

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI HO'ZO'RIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG  
VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“NEFT VA NEFT-GAZNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI”**

**yo‘nalishi**

**“NEFT –KIMYOVII SINTEZ KIMYOSI VA TEXNOLOGIYASI”  
modulidan**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**TOSHKENT -2022**

Mazkur o‘quv-uclubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi 538 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi

**Tuzuvchi:** ToshDTU, k.f.n., dotsent, M.A. Eshmuxamedov

**Taqrizchi:** M.Tillashayxov – TKTI “YOqilg‘i va uglerodli materiallarni kimyoviy texnologiyasi” kafedrasи dotsenti, t.f.n

O‘quv-uclubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi 4 sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## **MUNDARIJA**

|   |            |
|---|------------|
| <b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>   | <b>4</b>   |
| <b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM<br/>METODLARI .....</b> | <b>10</b>  |
| <b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>  | <b>14</b>  |
| <b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>                                     | <b>92</b>  |
| <b>V. GLOSSARIY .....</b>   | <b>124</b> |
| <b>VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....</b>   | <b>133</b> |

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **Kirish**

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu ishchi o‘qu dasturda neft-kimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalari, aromatik uglevodorodlar, naften uglevodorodlar, uglevodorodlarni oksidlash, separatorlarni hisoblash va tanlash, gazni temir gidrooksidi eritmasi bilan N2S dan tozalash jarayonini hisoblash bo‘yicha keng ma’lumotlar yoritilgan.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“Neft –kimyoviy sintez kimyosi va texnologiyasi”** modulining **maqsadi** tinglovchilarni sohadagi yangi innovatsiyalar, ularning tuzilishi va ishlash prinsiplari bilan tanishtirish orqali mutaxassislik fanlarini o‘qitish mazmunini boyitishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

**“Neft –kimyoviy sintez kimyosi va texnologiyasi”** modulining **vazifasi:**

- neft kimyoviy sintez jarayoni texnologik qurilmalarning ishlash asosi va tarkibiy tuzilmalarini turli ish rejimlari;

- ushbu texnologik qurilmalarning matematik modellarining har tomonlama tahlili va asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash;
- texnologik qurilma material va issiqlik balanslarini tuzish va unga oid barcha hisoblarni bajarish, asosiy jihozlarni tanlash va hisoblashlarni o‘rgatish;
- texnologik jarayonni boshqarishning optimallash usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatish;
- texnologik qurilmalarning zamonaviy boshqarish tizimlarining tuzilishi va funksional imkoniyatlarini o‘zlashtirish;
- chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni tovar mahsulotlar ishlab chiqarishga joriy qilish;
- texnologik qurilmalarni optimal boshqarishning turli amaliy masalalarni tahlil etishga, mustaqil fikrlashga, qororlar qabul qilishga tayyorlashdan iborat.

## **MODUL BO‘YICHA BILIMLAR, KO‘NIKMALAR, MALAKALARGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI**

**Kutilayotgan natijalar:** Tinglovchilar “Neft –kimyoviy sintez kimyosi va texnologiyasi” modulini o‘zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar:

### **Tinglovchi:**

- asosiy organik moddalar sintez qilishning asosiy usullarini;
- organik moddalarning sintez qilish texnologik sxemasini;
- organik moddalarning sintezining rivojlanish tendensiyalarini;
- aniq organik sintez maxsulotlari sintez qilish sharoitlari uchun texnologik parametrlar tanlash usullarini ***bilishi lozim.***

### **Tinglovchi:**

- asosiy organik mahsulotlar sintez qilish texnologiyasini texnik va iqtisodiy asoslangan holda to‘g‘ri tanlash;
- kimyoviy reaksiyalar mexanizmini aniqlash usullaridan foydalanish;
- organik moddalarni ajratish va tozalash usullarini tahlil qil;
- jarayon va asosiy jihozlarni hisoblash yo‘llarini tanlay olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

### **Tinglovchi:**

- murakkab kimyoviy jarayonlar foydalanish; o
- organik sintez texnologiyalari uchun muqobil jarayonlarni tanlash;
- ishlab chikarish jarayonlaridan olingan natijalarni tahlil qilish;
- yangi va progressiv texnologiyalarni qo‘llash ish rejimlarini belgilash;
- individual aromatik uglevodorodlarni ajratib olish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

### **Tinglovchi:**

- ish rejimlarining tahlili va ularni optimallash usullarini tanlash;
- avtomatik boshqarish tizimini ishlab chiqish;
- material va issiqlik balanslarni tuzish yo‘llari optimallashtirish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Modul “Neft –kimyoviy sintez kimyosi va texnologiyasi” mazmuni o‘quv rejadagi “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi”, “Neft va neft-gazni qayta ishlash sanoati texnologik jihozlari” va “Texnologik jihozlarni korroziyadan himoya qilish” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan.

### **Modulning oliv ta’limdagи o‘rni**

Modul “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” yo‘nalishi fanlarini o‘qitishning innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan ta’lim tizimida foydalanish orqali ta’limni samarali tashkil etishga va ta’lim sifatini tizimli orttirishga yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalari, axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni uzlashtirish va o‘quv – tarbiya jarayonida qo‘llash haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga asoslanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

## Modul birliklari bo‘yicha soatlar taqsimoti: 18 soat

| №  | Modul mavzulari   | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat |          |                   |                    |
|----|---|--------------------------------------|----------|-------------------|--------------------|
|    |   | Jami                                 | Nazariy  | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot |
| 1. | Neft-kimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalari.                                      | 4                                    | 4        |                   |                    |
| 2. | Aromatik uglevodorodlar. Naften uglevodorodlar.   | 2                                    | 2        |                   |                    |
| 3. | Uglevodorodlarni oksidlash.   | 2                                    | 2        |                   |                    |
| 4. | Separatorlarni xisoblash va tanlash   | 2                                    |          | 2                 |                    |
| 5. | Gazni temir gidrooksidi eritmasi bilan N <sub>2</sub> S dan tozalash jarayonini hisoblash | 2                                    |          | 2                 |                    |
| 6. | Tabiiy gazni quritish jarayonini hisoblash  | 2                                    |          | 2                 |                    |
| 7. | Tabiiy gaz uchun Joul-Tomson koeffitsientini aniqlash                                     | 4                                    |          | 4                 |                    |
|    | <b>Jami:</b>  | <b>18</b>                            | <b>8</b> | <b>10</b>         |                    |

### MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

### NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

#### **1 – mavzu. Neft-kimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalari.**

Neft-kimyo sanoati, vujudga kelish tarixi va rivojining asosiy yo‘nalishlari. Asosiy organik va neftkimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalari. Parafin uglevodorodlar. Olefin uglevodorodlar. Diolefin uglevodorodlar. Atsetilen ishlab chiqarish.

#### **2-mavzu: Aromatik uglevodorodlar. Naften uglevodorodlar.**

Aromatik va naften uglevodorodlarni sanoatda olish usullari. Aromatic va naften uglevodorodlarni ajratib olish jarayonlari. Aromatic va naften uglevodorod asosidagi sanoat sintezlari yoritilgan va ularni texnologiyalari. Individual aromatic uglevodorodlarni ajratib olish. Aromatic uglevodorodlar asosidagi sintezlar va ularni texnologiyasi. Naften uglevodorodlar kimyosi va texnologiyasi.

#### **3 – mavzu. Uglevodorodlarni oksidlash.**

Individual uglevodorodlarni oksidlash jarayonlari. Jarayonlarni borish mexanizmi. Reaksiyalarni o‘ziga xosligi. Spirtlar, aldegidlar, ketonlar, organik kislotalar, efirlar,

poliolefinlar va turli-tuman plast massalar olish jarayonlari va ularning texnologiyalari taxillari.

## **AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

### **1-Amaliy mashg‘ulot: Separatorlarni hisoblash va tanlash.**

Nasadkali inersion tipli separatorlar. Inersion separatorlarni xisoblash. Filtr separatorlar Markazdan qochma separatorlar. Separatorlarni xisoblash va tanlash.

### **2-amaliy mashg‘ulot: Gazni temir gidrooksidi eritmasi bilan N<sub>2</sub>S dan tozalash jarayonini hisoblash.**

YUtuvchi nordon komponentlarni ularni gazdag miqdori katta interval oralig‘ida bo‘lishiga qaramasdan yuqori yutuvchanlik qobiliyatini aniqlash. Oksidlanish va termik parchalanishga mustahkamligini aniqlash.

### **3-amaliy mashg‘ulot:Tabiiy gazni quritish jarayonini hisoblash.**

Asosiy apparat va jixozlar va ularni xisoblash.Quritish jarayonlarini hisoblash.

### **4-amaliy mashg‘ulot: Tabiiy gaz uchun Joul-Tomson koeffitsientini aniqlash.**

Gazni arabatik kengayishdan so‘nggi haroratini aniqlash. .Izoentalpiya va izoentropiya kengayishida gazning sovutilishi aniqlash.

## **TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin.

*Bir turdagи guruhli ish* o‘quv guruhlari uchun bir turdagи topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

*Tabaqalashgan guruhli ish* guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**YAkka tartibdagi shaklda** - har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

**"B/B/B" metodi**

B/B/B jadvali - Bilaman/Bilishni xoxlayman/Bilib oldim.

Mavzu yuzasidan ma'ruza matni bilan ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, uning xar bir bo'limini taxlil qilib chiqishga yo'naltirilgan. Talabalarda tizimli fikrlash, taxlilqilish ko'nikmalari va ixtisoslashtirilishi bo'yicha rivojlantiradi. Jadvalni yakka tartib yoki juftlikda rasmiylashtiriladi

### **B\B\B jadvali**

| <b>Bilaman</b>   | <b>Bilishni<br/>xoxlayman</b>                                       | <b>Bilib oldim</b>  |
|--|---|---|
| Asosiy organik va neftkimyo sanoati                      | Asosiy organik va neftkimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalar | Asosiy organik va neftkimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalar |
| Vujudga kelish tarixi va rivojining asosiy yo'nalishlari | Diolefin uglevodorodlar   | Diolefin uglevodorodlar   |
| Parafin uglevodorodlar                                   | Atsetilen ishlab chiqarish  | Atsetilen ishlab chiqarish  |
| Olefin uglevodorodlar.                                   | Poliolefinlar ishlab chiqarish                                      | Poliolefinlar ishlab chiqarish                                      |
| Uglevodorodlarni oksidlash                               | Plastmassalar ishlab chiqarish                                      | Plastmassalar ishlab chiqarish                                      |
| Spirtlar ishlab chiqarish                                |   |   |
| Aromatik uglevodorodlar.                                 |   |   |
| Naften uglevodorodlar                                    |   |   |

## **“Elpig‘ich” metodi**

Bu metodi murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Metodining mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol metodi tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Elpig‘ich” metodi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“Elpig‘ich” metodi umumiy mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarda qo‘llanishi mumkin.

**-boshida:** o‘z bilimlarini erkin faolashtirish;

**-mavzuni o‘rganish jarayonida:** uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;

**-yakunlash bosqichida:** olingen bilimlarni tartibga solish.

**“Elpig‘ich” metodining afzaligi:**

- ✓ kichik guruhlarda ishlash mahorati oshadi;
- ✓ muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati shakllanadi;
- ✓ murosali qarirlarni topa olishi;
- ✓ o‘zgalar fikrini hurmat qilish;
- ✓ xushmuomalalik;
- ✓ ishga ijodiy yondashish;
- ✓ faollik;
- ✓ muammoga diqqatini jamlay olish mahoratlari shakllanadi.

### **“Elpig‘ich” metodining kamchiligi:**

- ✓ ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- ✓ ko‘p vaqt talab etilishi;
- ✓ shavqun siron bo‘lishi;
- ✓ baholash qiyinchilik to‘g‘dirishi.

### **Metodning mavzuga qo‘llanilishi:**

Ushbu metoddan yangi mavzuni o‘tishda hamda mavzu o‘tib bo‘lgandan keyin mavzuni mustahkamlash maqsadida ishlatiladi.

### **Yangi mavzuni o‘tishda qo‘llanishishi:**

Olefin uglevodorodlarning afzallik va kamchiliklari haqida ma’lumot berishda “Elpig‘ich” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu metod qo‘yidagicha amalga oshiriladi:

Doskaga elpig‘ich rasmi chiziladi: Elpig‘ichning tepasiga “Olefin uglevodorodlarning afzallik va kamchiliklari deb yoziladi va talabalar bilan birgalikda vazifa bajariladi. Iloji boricha afzallik va kamchiliklari ko‘proq topib yoziladi va afzallik va kamchiliklaridan kelib chiqib xulosa chiqariladi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1 – mavzu. Neft-kimyoviy sintez xom ashyolari asosiy manbalari.**

##### **Reja:**

1. Neft-kimyo sanoati, vujudga kelish tarixi va rivojining asosiy yo‘nalishlari.
2. Neft kimyoviy sintez uchun xom ashyo ishlab chiqarish.
4. Parafin uglevodorodlar.
5. Olefin uglevodorodlar.
6. Diolefin uglevodorodlar.
7. Atsetilen ishlab chiqarish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** asosiy organik sintez, neftkimyoviy sintez,xpm ashyolari, parafinlar, olefinlar, diolefinlar. atsetilen, piroliz, gazlarni quritish,mexanik qo‘shimchalar, tozalash, nordon komponentlar, gazlarni ajratish, kompression usul, sorbsion usul, quyi haroratli rektifikatsiya, kombinirlangan usullar, suyuq olefinlar, diolefinlar, butadien, uni olish usullari,degidrirlash, Gudrt usuli, izopren, uni ajratish, izopentan, uni degidrirlash, izopren olish usullari,atsetilen, uni olish usullari, kalsiy karbid, elektrokreking, termokreking, metanni oksidlاب pirolizi, atsetilenni ajratib olish.

Jarayon ketuvchi asosiy qurilmalarning turlari. Asosiy qurilmalarning iштартеби va asosiy konstruktiv elementlari. Asosiy qurilmalarning bajaradigan vazifalar. Ish rejimlarining tahlili va ularni optimallash usullari. Avtomatik boshqarish tizimini ishlab chiqish. Material va issiqlik balanslarni tuzish yo‘llari. Parafin, olefin, diolefin uglevodorodlarni turli kimyoviy usullar bilan xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan moddalarga aylantirish nazariy usullari. Sanoat va halq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan atsetilen olish usullari. Jarayonlar ximizmi, mexanizmi, termodinamikasi, kinetikasi. Jarayon va asosiy jihozlarni hisoblash yo‘llari.

##### **1.1. Neft kimyo sanoati, vujudga kelish tarixi va rivojining asosiy yo‘nalishlari.**

Neftkimyo sanoati - kimyoviy sanoatning yangi sohasi bo‘lib, arzon xom ashyo bo‘lmish neft va gaz uglevodorodlarini qimmatli kimyoviy moddalar bo‘lgan

plastmassalar, kauchuklar, sintetik smolalar va tolalar, sintetik yuvish vositalari va ko‘pgina boshqa moddalarga aylantirib beradi.

Neft kimyo sanoati 20 asrning 3-4 o‘n yilligida rivojiana boshladi. Neftkimyoviy ishlab chiqarishlar Hamdo‘stlik mamlakatlarida Ulug‘ Vatan urushi arafasida vujudga keldi. 1936 yili Bokuda etilenni sul’fat kislota ishtirokida gidratasiya qilish yo‘li bilan etil spirti ishlab chiqarish bo‘yicha birinchi sanoat qurilmasi ishga tushirildi. 1970 yili neft xom ashvosini piroliz qilish orqali etilen va propilen ishlab chiqarish qurilmasi birinchi bor ishga tushirildi. Ushbu qimmatli xom ashylarni olish hozirgi paytda ham asosiy usul bo‘lib kelmoqda.

Kimyo sanoatini rivojlanish sur’atlari ko‘lamlarini va xattoki kimyoviy jarayonlar mazmun-moxiyatini neftkimyo rivoji tubdan o‘zgartirib yubordi. Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish arzon va keng xom ashyo manbalari bo‘lmish va kimyoviy sanoatning an’naviy manbalari bo‘lmish kokskimyo va o‘rmonkimyo sanoatlarini smolalari, mineral xom ashyo, oziq-ovqat mahsulotlarini siqib chiqarayotgan neft va gaz uglevodorodlariga bog‘lanib qolmoqda. Bu esa kimyoviy ishlab chiqarishni tez rivojlanishiga va klassik sintez usullariga taqqoslaganda o‘lchab bo‘lmaydigan darajada ko‘proq quvvvatga ega bo‘lgan kimyoviy mahsulotlarni olishni boshqa usullarini qo‘llashni talab qiladi.

Neftni qayta ishlash sanoati neftkimyoga xom ashyo tayyorlab berganligi sababli neftkimyoviy ishlab chiqarish neftni qayta ishlash zavodlari bazasida yoki unga qo‘shni holda rivojlanadi.

Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda uglevodorod xom ashvosini keng qo‘llash xalq xo‘jaligi uchun muhim bo‘lgan quyidagi vazifalarni echadi:

1. Kimyoviy ishlab chiqarish uchun o‘lchamsiz xom ashyo bazasini vujudga keltirish;
2. Avvallari kimyoviy sanoatga xom ashyo qilib ishlatilgan ko‘p miqdordagi qimmatli oziq-ovqat materiallarini tejash;
3. Kimyoviy mahsulotlar tannarxini va ularni ishlab chiqarishdagi mehnat sarflarini hamda zavodlar qurilishida ketadigan kapital harajatlarni kamaytirish;
4. Ishlab chiqarilayotgan kimyoviy mahsulot xajmini bir necha bor ko‘paytirish;

5. Mavjud bo‘lgan xom ashyo manbalari asosida ilgari amalda mumkin bo‘lmagan yangi neftkimyoviy jarayonlarni vujudga keltirish.

Neft kimyo sanoatini katta iqtisodiy effektivligi uni tez sur’atlar bilan rivojlanishini belgilaydi. Sanoatning boshqa turlariga nisbatan kimyo sanoati 1,5-2 barobar tez rivojlanayapti. Kimyo va neft kimyo sanoati rivoji 1971-75 yillarda 1,7 barobar, shu jumladan plastmassalar va sintetik smolalar-2, kauchuklar-1,7, maishiy kimyo tovarlari-1,9 barobar oshgan.


Neft kimyo sanoati uchun xom ashyo ishlab chiqarish neftkimyoning zaruriy bo‘limidir.

Neft asosida xom ashysidan organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish xorijda (AQSH, G‘arbiy evropa) 98%ga, neftkimyo ishlab chiqarish ko‘lami esa 1950 yilda 3 mln t.dan 1970 yilda 40 mln t.ga etgan.


Neft va gaz uglevodorodlaridan kimyoviy mahsulot ishlab chiqarish ko‘mir asosidagidan ancha rentabelroq, chunki ushbu xom ashyo ko‘mirga nisbatan mos ravishda 10 va 20 barobar arzonroq, kokslashda gaz va suyuq mahsulotlarning chiqish miqdori nisbatan ko‘p emas. Neft va gaz tarkibida uglevodorod xom ashysi konsentrangan holatda mavjud bo‘lib, yirik ko‘lamda olinadi.

Ko‘p hollarda neftni qayta ishlash va neftkimyo kombinat bir yoki ikki qo‘shni joylashgan korxona doirasida mavjud bo‘lib, buning natijasida umumiyl ishlab chiqarish rentabellini oshiradi. Bunda transport xarajatlari qisqaradi, ishlab chiqarilayotgan, neftkimyoviy mahsulot esa neft mahsulotiga nisbatan 8-12 barobar qimmatroqdir.

1-rasm ma’lumotlar neft xom ashysini destruktiv qayta ishlash jarayonlarida hosil bo‘ladigan neftkimyoviy sint ezi uchun ishlatiladigan asosiy uglevodorodlar bilan tanishtiradi.



Bunday tendensiyalardan biri sifatida texnologik qurilmalarni yiriklashtirishni ko'rsatish mumkindir. Masalan, 1950-60 yillarda etilen gazajratgich qurilmalarining quvvati 50 mingdan to 100 ming tonna/yilga bo'lgan bo'lsa, 1960-70 yillarda shunday qurilmalarning quvvati 300-600 ming tonna/yilga ko'paygan.



1-rasm. Neft xom ashynosini destruktiv qayta ishlash jarayonlarida olinadigan neftkimyoviy sintezning asosiy uglevodorodlari

1970 yildan boshlab esa ushbu tipdagi yangi qurilgan qurilmalarining quvvati 900 ming tonna/yilga etkazilgan. SHu bilan birga etilen olish usuli esa deyarli o'zgarmagan-etenil kuvurchali pechlarda piroliz usuli bilan olinavergan. 60 ming tonna quvvatdan 300 ming tonna quvvatga o'tish etilen narxini taxminan 50% ga tushirish imkoniyatini beradi. SHu bilan birgalikda katta quvvatli qurilmalarda butadien va izoprenlarni ajratib olish rentabel bo'lib qoladi. Ularning yig'ma miqdori piroliz gazida 15% ga yaqin bo'ladi (etilenga nisbatan). Piroliz gazidan ajratib olingan butadien taxminan 1,5-2 barobar n-butan va n-butadienlarni degidrogenlab olinganidan arzondir.

Er kurrasida etilen ishlab chiqarish 1960 yildan boshlab 3 mln tonnadan to 20 mln tonnagacha etgan. Etilenni 40% dan ortig'i yuqori va quiyi zichlikdagi polietilen olishga sarflanadi.

Xom ashynoni yuqori darajada mahsulotga aylantiruvchi jarayonlarni bunyod etish masalasi zarurdir. Masalan, etilenni to'g'ridan-to'g'ri giderasasiya qilib etil spirtini olishda bir bor reaktordan o'tganda etilenni bor-yo'g'i 4-5%i, siklogeksanni siklogeksanol va siklogeksanonga oksidlashda 4-5%i, etilenni yuqori zichlikdagi

polietilenga polimerizasiyasida 12-15% i mahsulotga aylanadi. Reaksiyaga past darajada kirishilganda unga kirishmay qolgan xom ashay qayta-qayta ishlab chiqarishga kiritilishi esa jarayon rentabelligini pasaytiradi.


Energiyani xom ashayoni isitishga yoki energetik maqsadlarga ishlatiladigan bo'lsa, neftkimyoviy jarayonlarda uni utilizasiya qilish muxim muammodir. Issiqlik yutilishi bilan boradigan jarayonlarda, xususan, degidrirlash jarayonida uni ekzotermik jarayonlar, masalan, oksidlab degidrirlash bilan yonma-yon olib borgan maqsadga muvofiqdir.

YUqori avtomatlashtirilgan kimyo zavodlarini barpo qilish neftkimyo korxonalari rivojining eng yaqin kelajagidir. Ushbu muammoni xal qilishda ob'ektiv sabablardan biri gaz va suyuq uglevodorodlarni qayta ishlashda modda hosil bo'lish jarayonining bitta oqimda borishidir.


Texnologik jarayonning uzluksiz xarakterdaligi-boshqaruvning avtomatik sistemalarini qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Butun dunyo neftkimyo sanoati xozirgi paytda 1500dan ortiq neftkimyo ishlab chiqarish korxonalaridan iborat va dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan neftning taxminan 4-7%ini (200mln tonna atrofida) va gazning 3,5%ini ishlatadi.


Quyidagi keltirilgan 2-5 rasmlar neftkimyoviy sintez sanoatining parafinlarni, olefinlarni, dienlarni va aromatik uglevodorodlarni qayta ishlash bo'limlarining asosiy yo'nalishlarini namoyon etadi.




2-rasm. To‘yingan uglevodorodlar asosidagi neftkimyo sintezlarining eng muxim yo‘nalishlari



3-rasm. Olefimlar asosidagi neftkimyo sintezlarning eng myxim yo’nalishlari



4-rasm. Diyenlarning manbalari va ular asosidagi neftkimyo sintezlarning eng myxim yo'nalishlari



5 – rasm. Aromatik uglevodorodlar asosidagi neftkimyo sintezlarning eng myxim yo’nalishlari

### **1.2.Neft kimyoviy sintez uchun xom ashyo ishlab chiqarish.**

Neftkimyo sanoatiga xom ashyo bo‘lib xizmat qiluvchi neft va gaz uglevodorodlari alifatik, sikloalifatik va aromatik qatorga mansubdirlar. Alifatik uglevodorodlarga parafin uglevodorodlari, olefinlar, diolefinlar va asetilenlar kiradi. Neftkimyoda sikloalifatik uglevodorodlardan eng ko‘p qo‘llaniladigan siklogeksandir. Neftkimyo korxonalarida olinadigan va qayta ishlanadigan aromatik uglevodorodlardan benzol, toluol, ksilollar hamda etil va izopropilbenzollardir; Kichikroq ko‘lamda bisiklik aromatik uglevodorodlar-naftalin va uning gomologlari olinadi.

YUqorida qayd qilib o‘tilganidek neftkimyo sintezi uchun xom ashyo sifatida quyidagi turli gaz xoldagi, suyuq va qattiq uglevodorodlar ishlatiladi:

- 1) To‘yingan uglevodorodlar (metan, etan, propan, butanlar va boshqalar).
- 2) To‘yinmagan uglevodorodlar: monoolefinlar (etilen, propilen, butenlar, pentenlar, yuqori olefinlar), asetilen va dien (butadien-1,3,izopren) uglevodorodlar.
- 3) Aromatik uglevodorodlar (benzol, toluol, alkilbenzollar, naftalin)
- 4) Alisiklik uglevodorodlar: naftenlar (siklopantan, siklogeksan), sikloolefinlar (siklogeksen), siklodienlar (siklopentadien, siklogeksadien va boshqalar).

**Eslatma:** Materiallarni bundan keyingi talqini uglevodorod va ularning hosilalarini nomlash imkon boricha “toza va amaliy kimyo xalqaro ittifoqi komissiyasi” nomenklaturasi qoidasi (**IUPAC** qoidasi) asosida beriladi. Biroq juda ko‘p tarqalgan uglevodorodlar uchun ularning eski odatiy nomlari qoldirilgan. Masalan: eten o‘rniga etilen, etin o‘rniga, asetilen, propen o‘rniga propilen, 2-metilbutadien-1,3 o‘rniga izopren va ba’zi boshqalar.

Neftkimyo ishlab chiqarish korxonalariga xom ashyni neft va gaz sanoati etkazib beradi. To‘yinmagan uglevodorodlar sintezi maxsus qurilmalarda amalga oshiriladi; ular neftni qayta ishlash jarayonlarida ham hosil bo‘ladi.

### **Neftkimyoviy sintez xom ashyolarining asosiy manbalari**

Neftkimyoviy sintez xom ashyolarining asosiy manbaalari quyidagilar:

1. Neft yo'ldosh gazi; 2. Gazli benzin; 3. Tabiiy gaz; 4. Gaz kondensati konlarining suyuq va gaz xoldagi uglevodorodlari; 5. Neftni qayta ishlash zavodlari gazlari (distillatlar va qoldiqlar); 6. Suyuq neft mahsulotlari (distillatlar va qoldiqlar).

### **Neft yo'ldosh gazi.**

“Xom” neft bilan birga chiqadigan gaz xoldagi uglevodorodlarni shunday deb atash qabul qilingan. Er qa’ri bosimi sharoitida gaz neftda erigan bo‘ladi va neftni qazib chiqarilish jarayonida, bosimning pasayishi bois, u ajraladi. Neft qazib chiqarilganda gaz maxsus separatorlarda neftdan ajratiladi. Biroq, bunda neft tarkibida bir qism erigan gaz xoldagi uglevodorodlar qolib ketadi, yo'ldosh gaz tarkibiga esa ma'lum miqdorda engil benzin fraksiyalari ham o'tib qoladi. Gaz xoldagi uglevodorodlarni to'laroq ajratib olish va gaz xolidagi va suyuq uglevodorodlarni keyingi yo'qotilishini kamaytirish maqsadlarida neft fizik stabilizasiyalanadi, yo'ldosh gaz esa neftni stabillashdagi gaz bilan gazobenzin zavodiga undan suyuq uglevodorodlarni ajratish va fraksiyalarga ajratishga jo'natiladi.

Neft yo'ldosh gazi metandan pentanlargacha bo'lgan to'yingan ugldevodorodlardan tarkib topgan va birqancha miqdorda inert gazlar ham saqlaydi; ayrim konlar yo'ldosh gazlari tarkibida erkin vodorod sul'fid ham mavjud bo‘ladi. Ayrim neft yo'ldosh gazlarining tarkibi 1- jadvalda keltirilgan. Ushbu gazlar uchun metanni yuqori miqdori va qimmatli uglevodorodlar komponenti bo'lgan etan, propan va butanlarning bir qancha miqdori mavjud.

### **1-jadval.**

#### *Ayrim neft yo'ldosh gazlarining tarkibi*

| Komponentlar                | Tarkibi, xajmiy %                              |                                      |   |                             |     |      |
|-----------------------------|--|--------------------------------------|---|-----------------------------|-----|------|
|                             | Tuymazin koni<br>(Boshqir. dist avtanom resp.) | Romash-kin koni<br>(Tataris. avt.r.) | SHaim koni<br>(Xanti-Manti milliy okrugi) | Ust-baliq koni<br>(Tyumen') |     |      |
| Etan                        | 21   | 20                                   | 7,1                                       | 16,9                        | 3,9 | 11,3 |
| Propan                      | 18,4   | 18,5                                 | 7,9                                       | 29,3                        | 3,2 | 14,5 |
| 2-Metilpropan<br>(izobutan) | s 6,8  | s 6,2                                | 1,3                                       | 5,2                         | 0,6 | 2,7  |
| n-Butan                     |  |                                      | 1,9                                       | 7,7                         | 1,0 | 5,2  |

|   |       |       |      |      |      |      |
|---|-------|-------|------|------|------|------|
| 2-Metilbutan<br>(izopentan)                         | s 4,6 | s 4,7 | 0,4  | 1,5  | 0,3  | 1,2  |
| n-Pentan  |       |       | 0,3  | 1,4  | 0,3  | 1,6  |
| C <sub>6</sub> va undan<br>yuqori<br>uglevodorodlar |       |       | 0,3  | 1,4  | 0,3  | 1,3  |
| Vodorod sul'fid                                     | yo‘q  | yo‘q  | yo‘q | yo‘q | yo‘q | yo‘q |
| Uglerod dioksid                                     | 0,1   | 0,1   | 2,3  | 2,7  | yuk  | yuk  |
| Azot  | 7,1   | 11,5  | 5,1  | yuk  | 2,7  | 0,5  |

### Gaz benzini.

Gaz benzini – engil benzin fraksiyasi bo‘lib, to‘yingan uglevodorodlardan tashkil topgan. Gaz benzinlari qimmatli uglevodorodlar komponentlarini o‘zida saqlaydi, shu jumladan 2-metilbutan (izopentan) va n-pentanni. Gaz benzinlarining tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.

### 2-jadval

#### *Ayrim gazobenzin zavod (GBZ) larini gaz benzinlari tavsifi.*

| Ko‘rsatkichlar   | Tuymazin GBZ | Minibaev GBZ |
|--|--------------|--------------|
| <b>1</b>   | 2            | 3            |
| Nisbiy zichlik   | 0,736        | -            |
| Fraksion tarkibi (GOST 1576-42 bo‘yicha), <sup>0</sup> S<br>qaynash boshlashi 26 27-30 | 26           | 27-30        |
| 10%  | 33           | 33-37        |
| 50%  | 46           | 43-46        |
| 90%  | 100          | 85-89        |
| Qaynashni oxiri  | 121          | 110-114      |
| Uglevodorod tarkibi, massaviy %  |              |              |
| <b>1</b>   | 2            | 3            |
| 2-metilpropan (izobutan)   | s 12,9       | izi bor      |

|   |          |        |
|---|----------|--------|
| n-butan                                       |          | 2,5    |
| 2-metilbutan (izopentan)                      | 25-30    | s 30,2 |
| n-pentan                                      | 20-25    |        |
| dimetilbutanlar                               | 3,5-4,5  | s 13,3 |
| metilpentanlar                                | 8,5-10,0 |        |
| n-geksan                                      | $\geq 5$ | 17,4   |
| metilsiklopentan                              | yuk      | 1,4    |
| siklogeksan                                   | yuk      | 2,5    |
| benzol  | 0,4      | 0,5    |
| izopentan                                     | 10       | 5,9    |
| C <sub>8</sub> va undan yuqori uglevodorodlar | 1,5-2,5  | -      |

### Tabiiy gaz.

Toza gaz konlarining gazini tabiiy gaz deb nomlash qabul qilingan. Tarkibiy qismi bo'yicha u yo'ldosh gazlardan anchagina farq qiladi. Tabiiy gazda metanning miqdori yo'ldosh gazdagidan ko'p bo'lib, 98% gacha etishi mumkin; C<sub>2</sub> va ayniqsa C<sub>3</sub>-C<sub>4</sub> uglevodorodlarning miqdori tabiiy gazda, odatda yuksak emas. Ko'pgina tabiiy gazlarda ko'proq miqdorda inert gazlar (N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>) va kamyob gazlar (Ar, He va boshqalar) ham mavjud. Ayrim tabiiy gazlarni tarkibi 3 va 4-jadvallarda keltirilgan. Tabiiy hamda yo'ldosh gazlar tarkibiga faqat to'yingan uglevodorodlar kiradi.

### 3-jadval.

#### *Ayrim gaz konlari tabiiy gazlarining tarkibi*

| Komponent-lar                          | T a r k i b i , xajmiy% |                       |                                    |                            |                           |
|--|-------------------------|-----------------------|------------------------------------|----------------------------|---------------------------|
|  | Nibel' koni (komi AR)   | Dashav koni (Ukraina) | Elman-Kufrom koni (Saratov vil-ti) | SHimo- liy Stavropol' koni | Vveden koni (Boshqird AR) |
| Metan                                  | 87,9                    | 97,5                  | 93,3                               | 96,86                      | 70,87                     |
| Etan                                   | 1,3                     | 0,5                   | 2,0                                | 0,1                        | 8,0                       |
| Propan                                 | 0,15                    | 0, 2                  | 0,5                                | 0,03                       | 4,3                       |
| 2-Metilpropan (izobutan)               | 0,06                    | s 0,1                 | 0,2                                | 0,1                        | 0,5                       |
| n-Butan                                | 0,03                    |                       |                                    |                            | 0,7                       |
| 2-Metilbutan (izopentan)               | s0,03                   | yuk                   | 0,1                                | yuk                        | 0,2                       |
| n-Pentan                               |                         |                       |                                    |                            | 0,12                      |
| C <sub>6</sub> va undan yuqori ug-dlar | yuk                     | yuk                   | yuk                                | yuk                        | 0,01                      |
| Uglerod dioksidi                       | 0,04                    | 0,1                   | 0,1                                | 2,0                        | 0,2                       |
| Azot                                   | 10,5                    | 1,6                   | 3,8                                | 1,0                        | 15,1                      |

4- jadval

*SHo‘rton gaz koni O‘zbekiston «xom» tabiiy gazining tarkibi, xajmiy%.*

|                 |        |                  |       |
|-----------------|--------|------------------|-------|
| Azot            | 1,58   | Geksan           | 0,119 |
| Uglerod dioksid | 2,307  | Geptan           | 0,112 |
| Metan           | 90,529 | H <sub>2</sub> S | 0,080 |
| Etan            | 3,537  | n-butan          | 0,260 |
| Propan          | 1,060  | i-pentan         | 0,110 |
| i-butan         | 0,209  | n-pentan         | 0,093 |

**Gaz kondensati konlarining suyuq va gaz holatdagi uglevodorodlari.**

YUqori bosimli plastlardan olinadigan ayrim gaz konlarida qazib olinadigan gazning tarkibida bir talay suyuq uglevodorodlar ham bo‘ladi. Bosimning pasaytirilishi oqibatida kritik oblastda fazoviy muvozanat sharoitidan kelib chiqqan xolda ushbu suyuq uglevodorodlar kondensatlanadilar va ular gazdan ajratib olinishi mumkin.

Ushbu holat retrogradli kondensasiya deb nom olgan. Gazdan ajratib olingan suyuqlik kondensat deb, bunday konni gazokondensat koni deb nomlash qabul qilingan. Tarkibi bo‘yicha gazokondensat koni gazi tabiiy gazga yaqin bo‘lib, kondensat esa benzin va kerosin fraksiyalarini o‘z ichiga oladi.

Muhim gazokondensat konlarining gazlarini va kondensatlarini tavsifi 5 va 6-jadvallarda keltirilgan.

5-jadval.

#### *Ayrim gazokondensat konlarining gazlarini tavsifi.*

| Komponentlar                             | Krasno-dar(RF) | SHebelin (Ukr.r) | Berezyan (Krasnodar) | Vuktil (Qomi AR) | Gazli (O‘zb.r) |
|--|----------------|------------------|----------------------|------------------|----------------|
| Gazni                                    | Tarkibi,       |                  | xajmiy               | %                |                |
| 1  | 2              | 3                | 4                    | 5                | 6              |
| Metan                                    | 86             | 93,6             | 87,7                 | 75,7             | 94,2           |
| Etan                                     | 6              | 4                | 4,9                  | 9,1              | 3              |
| Propan                                   | 2              | 0,6              | 1,9                  | 3,1              | 0,9            |
| Butanlar                                 | 1              | 0,7              | 0,9                  | 0,7              | 0,4            |
| C <sub>6</sub> va undan yuqori ugle-dlar | 1,5            | 0,4              | 1                    | 7,5              | 0,5            |
| Uglerod dioksid                          | 1,5            | 0,1              | 2,5                  | 0,2              | 0,4            |
| Azot                                     | 2              | 0,6              | 1,1                  | 3,8              | 0,6            |

6-jadval.

#### *Ayrim gazokondensat konlarining kondensatlarini tavsifi.*

| Komponentlar                                      | Krasnodar (RF) | SHebelin (Ukr.r) | Berezyan (Krasnodar) | Vuktil (Komi AR) | Gazli (O‘zb.R ) |
|---|----------------|------------------|----------------------|------------------|-----------------|
| Kon<br>Fraksion tarkibi<br>Qaynay boshlash,<br>°C | densatni<br>40 |                  | <b>tavsifi</b><br>47 | 31               | 54              |
| Qaynab bo‘ladi,<br>xajmiy %<br>100°Cgacha         | 30             | 27               | 22                   | 35               | 36              |
| 150°Cgacha  | 65             | 63               | 64                   | 55               | 83              |
| 200°Cgacha  | 83             | 80               | 78                   | 72               | 92              |
| Qaynashni<br>oxiri, °C                            | 300            | 289              | 315                  | 360              | 220             |

|   |    |    |    |    |    |
|---|----|----|----|----|----|
| Guruhni tarkibi,<br>massaviy%:<br><i>Aromatik</i><br><i>uglevodorodlar-</i> |    |    |    |    |    |
| <i>Naftenlar -</i>  | 25 | 14 | 33 | 15 | 26 |
| <i>Parafinlar -</i>   | 35 | 32 | 44 | 25 | 29 |
|   | 40 | 54 | 23 | 65 | 45 |

Ayrim konlarda naften uglevodorodlar 40% gacha mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich kondensatlarni neftkimyoning qimmatli xom ashyosiga aylantiradi.

### **Neftni qayta ishlash zavodlari gazlari**

Neft zavodi gazlarida C<sub>1</sub> dan C<sub>4</sub> gacha to‘yingan va to‘yinmagan uglevodorodlar mavjud. Undan tashqari, ushbu gazlar tarkibiga odatda vodorod, vodorod sul’fid va ko‘p bo‘lmagan miqdorda oltingugurt-organik birikmalar kiradi. Neftni qayta ishlash zavodi gazining tarkibi u erda qanaqa jarayonlar olib borilishiga bog‘liq. Gazning asosiy manbai neftni destruktiv qayta ishlash jarayonlari qurilmalari (termik va katalitik kreking, kokslash, katalitik riforming); va nefti to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydash qurilmalari bo‘lib, ularda miqdori ko‘p bo‘lmagan gaz va neftda erigan gaz ajratib olinadi.

Kreking va kokslash gazlarida to‘yingan uglevodorodlar bilan bir qatorda ko‘pgina olefinlar va birqancha miqdorda vodorod mavjud. Katalitik riforming gazi vodorodga boy (60 xajmiy % gacha) bo‘lib, u faqat to‘yingan uglevodorodlarni o‘z ichiga olgan. Neftni qayta ishlash jarayonlarida gazlarning bunday turli tarkibdaligi turli zavod gazlarining xilma-xil tarkibdaligi va xattoki uni bir zavod doirasida ham o‘zgarib turishini belgilaydi. Neft zavodi gazlari tarkibining o‘zgarib turishi ularni qayta ishlashni murakkablashtiradi.

### **Suyuq neft mahsulotlari (distillatlar va qoldiqlar)**

Suyuq neft mahsulotlarida neftkimyoda ishlatiladigan qator qimmatli komponentlar mavjud. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydab olingan va kreking benzinlarida pentanlar, pentenlar, siklopantan, metilsiklopantan, siklogeksan va uning gomologlari bor. Kerosin va gazoyl fraksiyalarida qattiq va suyuq to‘yingan uglevodorodlar (yumshoq parafin deb nomlangan), moy fraksiyalarida esa qattiq to‘yingan uglevodorodlar (qattiq parafin) mavjud.

### **1.3. Parafin uglevodorodlar.**

Neftkimyo sanoati uchun xom ashyo sifatida xizmat qiluvchi parafin uglevodorodlarga, birinchi navbatda, quyi molekulyar C<sub>1</sub>-C<sub>5</sub> parafin uglevodorodlar kiradi. Uglerod atomlari soni 6-10 dan iborat bo‘lgan parafin uglevodorodlar chegaralangan miqdorda qo‘llaniladi.

C<sub>10</sub>-C<sub>20</sub> va C<sub>20</sub>-C<sub>40</sub> parafin uglevodorodlar sintetik yuvish vositalari yarim mahsulotlarini ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Parafin uglevodorodlarni ishlatishda oqsil-vitaminli konsentratlarni bakteriyalar vositasida bijg‘itish usuli bilan olish yangi yo‘nalish xisoblanadi. Parafin uglevodorodlar uch turga bo‘linadi: gaz holatdagi, suyuq va qattiq.

#### **Gaz holatdagi parafin uglevodorodlar.**

Gaz holatdagi parafin uglevodorodlarga metan, etan, propan, butan va izobutanlar kiradi. Tabiiy gazlar bevosita er qa’ridan qazib chiqariladi; ko‘pchilik hollarda neft qazib chiqarishda yo‘ldosh gazlar sifatida ajralib chiqadi; ko‘p hollarda esa alohida kon hosil qilishi mumkin.

Neftkimyo uchun stabilizasiya gazlari, gaz-kondensat konlari uglevodorodlari, neftni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan gazlar katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy gazning tarkibiga qarab ularni 2 guruhg‘a: quruq va yog‘liq gazlarga bo‘linadi. Quruq gaz asosan metandan tashkil topgan bo‘lib, tarkibida biroz etan ham bo‘ladi. Gaz tarkibida uglevodorodlardan tashqari uglerod dioksid, azot, kislorod, vodorod sul’fidlar, gohida geliy ham bo‘ladi. Gaz tarkibida 3-4%dan kam bo‘lmagan miqdorda etan bor bo‘lsa, -20<sup>0</sup>S da uni engil absorbsiya moyi bilan absorbsiya qilib ajratib olinib, neftkimyo sintezi qimmatli xom ashyosi bo‘lmish etilenga degidrogenlashda ishlatiladi. Gaz tarkibidan 4-% gacha etan ajratib olinadi, qolgan gazni asetilen ishlab chiqarishda yoki yoqilg‘i sifatida ishlatiladi.

Neftkimyo uchun qimmatli bo‘lgan gaz-yog‘liq (yo‘ldosh) gazdir. YOg‘liq gaz komponentlari 3 guruhg‘a bo‘linishi mumkin:

- 1) metan, etan va qo‘sishimchalar (N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, O<sub>2</sub> va boshqalar), boshqacha aytganda quruq gaz;

- 2) propan, butan- 20at bosimda va normal temperaturada suyuq holatga o‘tadigan uglevodorodlar (suyultirilgan gazlar);
- 3) pentan, geksan va geptan- normal sharoitda suyuq holatda bo‘lgan uglevodorodlar (gaz benzini).

CHuqur burg‘ilash xajmlarini oshishi neftkimyo sintezi xom ashyolari manbai sifatida gaz kondensat konlari tobora ko‘proq ahamiyat kasb etayapti. Kondensat konlaridan chiqqan gaz etan, propan va butanni miqdori bo‘yicha tabiiy va yo‘ldosh gazlar oralig‘idan o‘rin oladi.

Kondensasiyalangan komponentlarni, ya’ni suyulgan gazlarni va gaz benzinini ajratib olish uchun 3 ta usul qo‘llaniladi:

1. kompression (bosim ostida haydash);

2. adsorbsion (katta solishtirma yuzaga ega bo‘lgan materiallar bilan adsorbsiyalash, masalan aktivlangan ko‘mir bilan).

Ushbu usul gazda yuqori molekulyar komponentlar kam bo‘lganda qo‘llaniladi.

3. absorbsion (moy bilan absorbsiyalash).

Xozirgi paytda eng ko‘p qo‘llanilayotgan usul-absorbsion usul bo‘lib, bunda 35 atm bosim ostida turgan gazdan C<sub>3</sub> va undan yuqori uglevodorodlarni absorbsion moyda eritib, ajratib olinadi. YUtilgan uglevodorodlarni desorbsiyalash va absorbentni regenerasiya qilish to‘yingan absorbsion moy (yog‘li moy) ni isistish orqali amalga oshiriladi; shundan so‘ng absorbent «ochiqqan moy» yana absorbsiyaga yuboriladi. YOg‘dan ajratib olingan parafin uglevodorodlardan gaz benzini olish uchun bosim ostida propan va butanlar haydalib, so‘ng ajratish uchun jo‘natiladi.

Neftni qayta ishlash zavodlarida turli jarayonlar mavjud bo‘lib, ularda neftkimyo sintezi uchun xom ashyo bo‘lgan gazlar hosil bo‘ladi. Engil parafin uglevodorodlar asosan neftni to‘g‘ri haydash jarayonida, dizel yoqilg‘isini gidrotozalashda hamda gidrokrekkingda olinadi.

Quyi molekulyar parafin uglevodorodlar neftkimyo sintezi uchun qimmatli xom ashyo xisoblanadi. Etan va propan neftkimyo uchun qimmatli xom ashyo turi bo‘lgan etilen va propilenni olishga ishlatiladi, butan va pentan esa sintetik kauchuklar olish uchun dastlabki monomer bo‘lgan butilen, butadien va izoprenlarni olishda qo‘llaniladi.

Parafin uglevodorodlar shu bilan birgalikda nitrolash, xlorlash va oksidlash jarayonlarida ham ishlatilishi mumkin. Hosil bo‘ladigan nitroparafinlar (erituvchi), metilxlorid, xloroform, uglerod IV-xlorid, etil xlorid (tetraetilqo‘rg‘oshin olish uchun ishlatiladi), formaldegid, metanol, asetal’degid va boshqalar qimmatli moddalaridir.

### **Suyuq parafin uglevodorodlar.**

$C_5$  ( $t_{qayn}30^0S$ ) dan  $C_{16}$  ( $t_{qayn}286^0S$ ) gacha bo‘lgan parafin uglevodorodlar normal sharoitda suyuqlikdir. Ushbu uglevodorodlar neftni to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydash natijasida mos xolda benzin ( $20-200^0S$ ) va kerosin ( $170-285^0S$ ) fraksiyalarida mavjuddir. Keyingi kimyoviy qayta ishlashlarga normal tuzilishga ega bo‘lgan parafin uglevodorodlar qiziqish hosil qiladi. Mos fraksiyalardan rektifikasiya yo‘li bilan ajratib olish imkoniyati yo‘q, chunki fraksiyada normal parafinlar bilan birga o‘scha oraliqda qaynaydigan izoparafin, aromatik va naften uglevodorodlar ham bor.

### **Suyuq parafin uglevodorodlarni qo‘llanilashi**

Izopentan –sintetik kauchuk monomeri-izopren ishlab chiqarishda ishlatiladi.  $C_6-C_{10}$  parafin uglevodorodlarni asosiy qo‘llanish soxasi- maxsus erituvchilar sifatida ishlatilishi bilan chegaralanadi.  $C_{10}-C_{20}$  parafin uglevodorodlar esa spirtgacha oksidlashda ishlatilib, hosil bo‘lgan mahsulotlar sintetik yuvish vositalarini olishda qo‘llaniladi.

### **Qattiq parafin uglevodorodlar.**

Qaysi neft konidan chiqqanligiga qarab neftni moy fraksiyasi ( $300-500^0S$ ) ni deparafinlaganda 30% gacha parafini bo‘lgan  $C_{20}-C_{40}$  qattiq parafin uglevodorodlar olinadi. Moylarni deparafinlash erituvchilar yordamida olib boriladi. Surkov moylari fraksiyasi to‘g‘ri keladigan erituvchi (metiletiketon-benzol, aseton-benzol, benzoldixloretan aralashmalari, suyuq propan)da eritiladi, so‘ngra eritma sovutiladi va bunda ajralib qolgan parafin fil’trlash yo‘li bilan ajratiladi. Erituvchi fil’tratdan haydaladi va u jarayonga qaytariladi. Parafin qoldiq moydan qaynoq erituvchi, (masalan metilen xlorid) bilan yuviladi.

$C_{20}-C_{40}$  qattiq parafin uglevodorodlar sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich xom ashyo bo‘lgan a-olefinlar va sintetik karbon yog‘ kislotalarini olishda ishlatiladi. Bundan tashqari,  $t_{erish}40-42^0S$  li parafinlar gugurt, teri sanoatida,

$t_{erish}=50-52^{\circ}S$  li parafinlar sham ishlab chiqarishda, xo‘l mevalarni konservalashda, kosmetikada, farmasevtika sanoatida, fotografiyada va shu kabilarda qo‘llaniladi.

#### **1.4. Olefin uglevodorodlar**

YUqorida ko‘rib chiqqan parafin uglevodorodlardan farqli o‘laroq, olefinlar neft va gazni tarkibida bo‘lmaydi, destruktiv qayta ishlash jarayonlari natijasida hosil bo‘ladi. Neft to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydalganda uning tarkibida mavjud bo‘lgan uglevodorod fraksiyalari faqat ajraladi. Destruktiv qayta ishlash destruksiyani, ya’ni og‘ir (yuqori temperaturada qaynaydigan) uglevodorodlarni quyi temperaturada qaynaydiganlarga parchalashni o‘z ichiga oladi.

O‘tgan asrning 20 yillarida neftni destruktiv qayta ishlash usullari rivojlana boshlagan va destruktiv qayta ishlash mahsulotlarida quyi qaynar uglevodorodlarning, ya’ni benzinning miqdori oshganligi bois, ular motor yoqilg‘isi resurslarini oshirishga xizmat qilgan. Bunday qayta ishlashning destruktiv usullarini qo‘llash ko‘rsatkichlarni nafaqat miqdoran (benzin resurslarini oshirish), balki jarayonida hosil bo‘lgan mahsulot sifatini oshiruvchi yuqori oktan sonli uglevodorodlar xisobiga yaxshilash orqali ham erishiladi.

Sanoatda etilen uglevodorodli xom ashyni piroliz qilib olinadi. Pirolizda etilen bilan bar qatorda ko‘pgina miqdorda propilen va biroz butenlar, butadienlar hosil bo‘ladi. Propilen va butenlarning boshqa manbai- neftni qayta ishlash zavodlarining gazlaridir (yuqoriroqda keltirilgan ma’lumotlarga qarang).

#### **Gaz xolidagi olefin uglevodorodlar**

Neftkimyo sanoati uchun gaz xolidagi olefin uglevodorodlar eng ko‘p ahamiyat kasb etadi. Neftkimyo sintezi uchun ushbu uglevodorodlar nechog‘lik kerakligini AQSH davlatining olefinlarga bo‘lgan talabidan ko‘rish mumkin (7-jadval).

#### **7-jadval.**

AQSH neftkimyosi uchun olefinlarni ishlatish o‘sish ko‘rsatkichlari, mln.t/y

#### **Y illar**

| 1971 | 1975 | 1980 |
|------|------|------|
| 13,2 | 20,5 | 37,5 |

Gaz holidagi olefin uglevodorodlarga etilen, propilen, butilenlar (butilen-1; butilen-2, izobutilen) taalluqli. Ushbu uglevodorodlarni olish uchun xom ashyo sifatida tabiiy va yo‘ldosh gazlar hamda suyuq neft mahsulotlari xizmat qiladi.

### **Gaz holidagi olefin uglevodorodlarni olish usullari**

Gaz holidagi olefin uglevodorodlarni olish usullarini 2 asosiy tipga bo‘lish mumkin:

A. Termik va katalitik kreking- neftni destruktiv qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan gazlardan ajratib olish. Ushbu jarayonlarda gaz- yonaki mahsulotdir.

B. Olefin uglevoddorodlar ishlab chiqarishning maxsus usullari- gaz xolidagi parafin uglevodorodlarni degidrogenlash, gaz xolidagi va suyuq neft mahsulotlarini piroлиз qilish. Ushbu jarayonlarda hosil bo‘lgan olefinlar maqsadga muvofiq mahsulotlardir.

### **Neftni destruktiv qayta ishlash jarayonlari.**

Neftni destruktiv qayta ishlash jarayonlari kreking va riforming nomi bilan ataladi.

Krekingning 2 xil turi mavjud- **termik va katalitik**.

Destruktiv qayta ishlashga berilayotgan dastlabki xom ashyoga va jarayonni olib borish sharoitiga qarab gazning miqdori va tarkibi keng doirada o‘zgarib turishi mumkin.

**Termik kreking maqsadi** –«xom» neft fraksiyasini faqat termik yo‘l bilan destruksiya qilishdir, bunda xom ashyo sifatida ko‘pincha gazoil deb ataladigan 200-400<sup>0</sup>S fraksiya ishlatiladi. Bunga ikki yo‘l bilan erishish mumkin: bug‘ fazada ( $t=580-650^0S$ ,  $P=5-10at$ ) kreking yo‘li bilan va aralash fazada ( $t=350-500^0S$ ,  $P=25-70at$ ) kreking bilan. Birinchi xolda olefinlarga boy bo‘lgan ko‘p (30% gacha, xom ashyoga nisbatan) gaz hosil bo‘ladi; ikkinchi holda gazning salmog‘i kamroq 10-12%, xom ashyoga nisbatan, u kamroq (15% olefinlardan iborat bo‘ladi).

Termik krekingning boshqa bir ko‘rinishi bo‘lgan va benzirlarni antidentalasion xususiyatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan yuqori qaynovchi benzin fraksiyalarini termik riformingidir. Uni 550-600<sup>0</sup>S temperaturada va 40 at bosimda olib boradilar.

Gazlar termik riformingda ancha ko‘p miqdorda, o‘rtacha 16-17 og‘irlik %da (boshlang‘ich xom ashyoga nisbatan) hosil bo‘ladi.

Termik kreking o‘z o‘rnini yuqoriroq oktan sonli benzin olib beruvchi katalitik krekinga bo‘shatib bermoqda. Jarayon  $t=450^{\circ}\text{S}$  temperaturada va 1-15at bosimda alyumosilikat katalizatorlari ( $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot \text{SiO}_2$ ) ishtirokida olib boriladi.

**Katalitik kreking** gazlarida ayrim xollarda termik krekingdagiga nisbatan ancha ko‘proq olefin uglevodorodlar mavjud bo‘ladi. Katalitik krekingda  $\text{C}_3$  va  $\text{C}_4$  uglevodorodlar va izo tuzilishga ega bo‘lgan uglevodorodlar ko‘proq bo‘ladi.

Katalitik krekingning boshqa bir ko‘rinishi bo‘lgan katalitik riforming gazlari asosan vodorod (90% gacha) va to‘yingan uglevodorodlardan iborat, shu sababli u gaz xolidagi olefinlar olish manbai bo‘lib xizmat qilaolmaydi. Ushbu jarayon benzirlarni antidentalasion xususiyatlarini yaxshilashga va aromatik uglevodorodlarni olishga yo‘naltirilgan. SHunday qilib neftni destruktiv qayta ishlash jarayonlari gaz xolidagi olefin uglevodorodlarni olish uchun xizmat qilishi mumkin, biroq neftni destruktiv qayta ishlash gazlaridan etilenni ajratib olish, uni gazlardagi miqdori quyi bo‘lganligi bois, maqsadga muvofiq emas.

Olefin uglevodorodlarni olishning maxsus usullari neftkimyo uchun ko‘proq ahamiyat kasb qiladi.

### **Gaz holidagi olefinlarni olishning maxsus usullari.**

Hozirgi vaqtida neftkimyo sanoatini gaz xolidagi olefin uglevodorodlarga bo‘lgan talabini qondiruvchi asosiy jarayon –piroliz jarayonidir. «Piroliz» tushunchasini yuqori temperaturadagi kreking bilan bog‘laydilar.

Pirolizga uchratilayotgan xom ashyoga bog‘liq xolda jarayonlarni quyidagicha farqlaydilar:

1) gaz xolidagi xom ashyoni pirolizi-tabiyy va yo‘ldosh gazlarni, neftni qayta ishlashdagi gazlar fraksiyasini pirolizi;

2) suyuq neft asosidagi xom ashyoni pirolizi: quyi oktan sonli gaz xolidagi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydalgan benzirlarni katalitik riformingdan keyin aromatikasi ajratib olingandan rafinatlarni, kerosin-gazoyl fraksiyasini og‘ir neft asosidagi qoldiqlarni va xattoki neftni o‘zini krekingi.

Piroliz jarayonining «chuqurligi» uch asosiy faktorlarga bog‘liq: kontakt vaqtı, temperatura va uglevodorodlarning parsial bosimiga.

Eng afzallari quyidagilar: kichik kontakt vaqtı katta bo‘lmagan parsial bosim va ushbu xom ashyo turiga mos maksimal temperatura.

Neftkimyo sintezi sanoati uchun gaz holidagi olefinlarni etkazib beruvchi eng ahamiyatli usul gaz holidagi xom ashyonи piroliz qilish usuli bo‘lib, bunda xom ashyo sifatida tabiiy va yo‘ldosh gazlar yoki neftni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan gaz fraksiyalari ishlatiladi.

Etilenni olishda eng ma’qul xom ashyo –etan va propandir.


Metan pirolizga eng qiyin uchraydigan xom ashyodir: uning pirolizi  $700^{\circ}\text{S}$  dan yuqorida boshlanadi.  $1000\text{-}1200^{\circ}\text{S}$  da undan etilen va asetilen olish mumkin;  $1200^{\circ}\text{S}$  dan yuqorida temperatura piroliz mahsuloti asetilendir.

Etanni pirolizida eng ma’quli  $750\text{-}850^{\circ}\text{S}$  temperaturedir; bunda etilen eng ko‘p miqdorda hosil bo‘ladi.

Propanni piroliz qilinganda ( $t=700\text{-}800^{\circ}\text{S}$ ) mahsulot tarkibida eng ko‘pi etilen va metandir, chunki C-C bog‘i C-H bog‘iga nisbatan engilroq uziladi:



Butanni pirolizi  $400^{\circ}\text{S}$  dan boshlanadi va quyidagi uch yo‘nalishda boradi.



Keltirilgan tenglamalardan ko‘rinib turibdiki, birinchi ikki reaksiya kamroq issiqlik sarfi bilan ketadi va shu sababli nisbatan quyi temperaturada olib boriladi: butanni pirolizi  $400^{\circ}\text{S}$  da boshlanadi; degidrirlash faqat  $>600^{\circ}\text{S}$  temperaturada ketadi.

Amalda piroliz uchun individual uglevodorodlar emas, balki tabiiy va yo‘ldosh gazlar yoki neftni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan gaz fraksiyalari ishlatilad

### **Piroliz jarayonlari sanoat qurilmasi**


Ilk hom ashyo qanday bo‘lishidan qat’iy nazar gaz xolidami yoki suyuqlikmi piroliz jarayonlarini issiqlik olib kelish usuliga qarab 2 guruhga bo‘lish mumkin:

A) Tashqi isitishli piroliz jarayoni;

B) Ichki issiqlik olib kelish bilan piroliz jarayoni.

Xozirgi vaqtda tashqi isitishli birinchi guruh jarayoni eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, quvurli pechlardagi pirolizning turli sxemalari mavjuddir.

Xom ashyo va tsirkulyatsiya gazlari suv bug‘i bilan aralashib, quvurli pechga kiradi va u erda 780-800°С gacha (ilk xom ashyo va maqbul mahsulotga qarab) juda qisqa vaqt ichida (1 sekdan ko‘p emas) qiziydi (6-rasm).



**6-rasm.** Uglevodorod gazlarining pirolizi texnologik sxemasi: 1,2-issiqlik almashtirgichlar; 3-quvurli pech; 4-«tobplash» uskunasi; 5-utilizator; 6-skrubbersovutgich; 7-sovutgich; 8-separator.

Pechdan chiqayotgan pirogaz unga moy, suv yoki benzin sochilib tezda sovutiladi, so‘ng siqiladi, suvsizlantiriladi, mexanik va kimyoviy qo‘sishchalaridan tozalanadi va tarkibiy qismlarga ajratish uchun jo‘natiladi.

Zamonaviy ko‘p kamerali piroliz pechlarining etilen bo‘yicha quvvati 50 ming tonna/yilga va undan ko‘pga etgan bo‘lib, bu bir korpusda 16 tagacha parallel ishlovchi piroliz ilon izi quvurchalari bo‘lgan bir necha oqim kameralarini (4-5 tagacha) blokirovkalash natijasida erishilgan.

Ikkinchi guruh jarayonlari- issiqliknii ichki etkazish usulida, ya’ni xom ashyonni o‘ta qizdirilgan gazlar yoki suv bug‘i bilan kontakt holda amalga oshiriladi.

## **Gaz holidagi uglevodorodlar aralashmasidan olefinlarni ajratib olish.**

Neftkimyo sintezi sanoati olefin uglevodorodlarning sifatiga juda yuqori talablar qo‘yadi. SHu sababli olefin tarkibli gazlar qanday usul bilan olinishidan qat’iy nazar ajratish jarayonidan avval xom ashyni neftkimyo sinteziga tayyorlaydigan ma’lum opersiyalarga uchratilishi lozim.

### **Xom ashyni neftkimyoviy jarayonlarga tayyorlash**

Odatda dastlabki tayyorlash quyidagi operasiyalarni o‘z ichiga oladi:

- a) mexanik qo‘shimchalardan tozalash;
- b) qo‘lansa hidli birikmalardan tozalash;
- v) quritish.

### **Gazlarni tarkibiy qismlarga ajratish**

Neftkimyo sanoati uchun kreking, piroliz va shu kabi jarayon gazlaridan toza olefinlarni ajratib olish o‘ta ahamiyatlidir. Qator jarayonlar uchun yuqori darajali tozalikka ega bo‘lgan olefinlar ishlatish talab qilinadi. Masalan yuqori bosim polietileni olish uchun 99,9% konsentrasiyali etilen, etil spirtini olish uchun esa etilenning konsentratsiyasi 97% dan kam bo‘lmasligi kerak.

Xozirgi vaqtida sanoatda gazlarni ajratishning quyidagi usullari qo‘llaniladi:


- 1) kompression,
- 2) sorbsion (adsorbsiya, absorbsiya, xemosorbsiya),
- 3) quyi temperaturali rektifikasiya,
- 4) kombinasiyalangan

### **Suyuq olefin uglevodorodlar.**

Neftkimyo sanoati uchun parafinlarni kreking mahsuloti bo‘lgan to‘g‘ri zanjirli alefinlar yoki quyi molekulyar polimerlar sintez qilinayotgandagi metallorganik katalizatorlar ishtirokida etilenni polimerlash jarayonlari zarur ahamiyat kasb etadi: Fosforli (nordon) katalizatorlarda propilen va butilenni polimerlab olinadigan tarmoqlangan zanjirli olefinlar ham zo‘r ahamiyat kasb qilganlar. Ushbu suyuq olefin uglevodorodlar asosan sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

## **1.5. Diolefin uglevodorodlar**

Diolefin uglevodorodlarga butadien (a) va izopren (b) lar mansub bo‘lib, ular sintetik kauchuk ishlab chiqarishda monomer sifatida ishlatiladi.



### **Butadien olishning asosiy sanoat usullari**

Butadien olishning asosiy sanoat usullari quyidagilar:

1. Lebedev usuli bo‘yicha etil spirtidan olish,
2. Butanni degidrirlash (bir va ikki bosqichli usullar bilan)
3. Piroliz jarayoni  $\text{C}_4$  fraksiyasidan ajratib olish.

### **Pirolizda olinadigan $\text{C}_4$ fraksiyadan butadienni ajratish**

Benzin va og‘irroq xom ashynoni ptiliz qilinganda etilen va propilenlar bilan birga butadien ham hosil bo‘ladi, uni ajratib olinishi esa piroliz jarayonini iqtisodiy ko‘rsatkichini ko‘taradi.

Butadien bilan biprgalikda butilenlar, izobutilen hosil bo‘lib, hamma  $\text{C}_4$ -fraksiyaning pirogazdagi umumiy miqdori bo‘yicha 6,4% dan 11,1% gacha o‘zgarib turadi (temperatura  $780^{\circ}\text{S}$  dan  $725^{\circ}\text{S}$  gacha o‘zgarganda).

Piroliz orqali olinadigan  $\text{C}_4$  -fraksiyaning mumkin bo‘lgan qayta ishlash variantlaridan birini quyidagicha talqin qilish mumkin: avvalo  $\text{C}_3$ - va  $\text{C}_5$  qo‘shimchalarni yo‘qotish uchun  $\text{C}_4$  fraksiya rektifikasiyaga uchratiladi, so‘ngra u asetilenden gidrirlash yo‘li bilan tozalanadi va keyin mis tuzlari eritmasi yordamida xemosorbsiya yo‘li bilan yoki selektiv erituvchilar (furfurol, asetonitril va boshqalar) ishlatib ekstraktiv rektifikatsiya bilan butadien tozalanadi.

### **Izopren ishlab chiqarish.**

Hozirgi vaqtda izopren olishning quyidagi usullari ma’lum:

- 1) Izopentanni degidrirlash (bir va ikki bosqichli usullar)
- 2) Izobutilenni formal’degidga ta’sir ettirib dimetildioksan hosil qilish va so‘ngra mahsulotni parchalash;
- 3) Asetonni asetilenga ta’sir ettirish

#### 4) Propilenni dimerizatsiya qilish

#### **Atsetilen ishlab chiqarish**

Atsetilen ( $\text{CH}=\text{CH}$ ) vinilxlorid, vinilatsetat (platmassa olish uchun xom ashyo), akrilonitril kislota (tola olish uchun xom ashyo), xloropren kauchuklarini olishda ishlatiladi, uning 30%i avtogen svarkada sarflanadi.

Atsetilen olishning bir nechta usullari ma'lum:


- 1) Kaltsiy karbididan;
- 2) Uglevodorod xom ashuosidan:

- a) metanni elektrokreking qilish usuli bilan;
- b) regenerativ pechlarda metanni termokreking qilib;
- v) metanni oksidlab piroliz qilish bilan.

#### **Kal'tsiy karbiddan atsetilen olish**

Kalsiy karbiddan atsetilen olish usuli XIX asr oxiridan mavjud bo'lib, ahamiyatini xozirgi vaqtda ham yo'qotmagan.

Atsetilenni olishni ushbu usuli ikki bosqichdan iborat:



2) kal'tsiy karbidni suv bilan ishlab atsetilen va oxak suti olish:



Birinchi reaksiya endotermik (issiqlik yutilishi bilan boradi) shu sababli 1t atsetilen olish uchun elektr energiyasining sarfi 10000-11000 kvt-soat bo'lib, ushbu usulning kamchiligi xisoblanadi.

Xom ashyo manbalariga atsetilen ishlab chiqarishning bog'liq emasligi (kal'tsiy karbidi transportda oson tashiladi) ushbu usulning afzalligidir.

Karbid usuli bilan olingan atsetilen yuqori tozalik darajasi (99%dan yuqori)ga ega.


#### **Uglevodorod xom ashuosidan atsetilen olish usullari**

Issiqlik olib kelish usuliga qarab ushbu usullar turlicha bo'ladi:

#### **Elektrokreking usuli.**

**Elektrokreking** –tabiiy gaz (metan)ni qayta ishlashda ishlatiladi.


2000-3000<sup>0</sup>S temperaturali elektr yoyi ta'sirida metan 1600<sup>0</sup>S gacha isishi natijasida atsetilen hosil bo'ladi.



Elektr energiyaning sarfi xuddi karbid usulidagidek. Atsetilenni salmog'i 50%.

### **Metanni oksidlاب piroliz qilish**

Ushbu usulda metan kislorod bilan aralashtirib bir qism metan yoqiladi va hosil bo'lgan issiqlik tufayli xom ashyo 1600<sup>0</sup>S gacha qiziydi va atsetilen olish reaksiyasi amalga oshadi:



Atsetilen salmog'i 30-32%.

Jarayonning uzluksizligi va pastroq energetik sarflar tufayli ushbu usul eng ko'p qiziqish uyg'otadi, chunki atsetilen bilan bir qatorda sintez-gaz (CO+H<sub>2</sub>) ham hosil bo'lib oksosintez usuli bilan metanol va boshqa spirtlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Oksidlاب piroliz qilishni bir turi sifatida uglevodorod gazlarining gomogen pirolizini ko'rsatish mumkin.

Xom ashyoning bir qismini kislorod bilan aralashmasi pech' o'txonasida yoqilib, buning natijasida gaz ~2000<sup>0</sup>S temperaturaga ega bo'ladi. Pechning o'rta qismiga gaz oqimiga avvaldan 600<sup>0</sup>S gacha isitilgan qolgan xom ashyonini kiritiladi. Xom ashyo parchalanishi jarayonida atsetilen hosil bo'ladi.

Ushbu usulning afzallikkari –pech' ishining ko'proq xafsizligi va ishonchliligi bo'lib, ammo uni tayyorlashda o'tga chidamli materiallar kerak bo'ladi.

### **Atsetilenni ajratib olish usullari**

Turli usullar bilan atsetilen olinganda uning gaz tarkibidagi miqdori taxminan 15% ni tashkil qiladi, atsetilenni salmog'i esa 30-50% gacha o'zgarib turadi.

Sanoat miqyosida piroliz gazlari tarkibidan yuqori kontsentratsiyali atsetilenni absorbtsiya usuli bilan selektiv erituvchilar yordamida ajratib olinadi.

Absorbsiya usuli atsetilenni turli suyuq absorbentlarda gazni boshqa komponentlariga nisbatan yuqoriq eruvchanligiga asoslangandir.

Absorbsiya jarayoni narmal temperaturada olib borilib, selektiv erituvchilar: N-metil pirrolidon, dimetilformamidlarda va past temperatura  $-70^{\circ}\text{Sda}$  esa metanol va atseton erituvchilari yordamida olib boriladi.

### **Nazorat savollar**

- 1.Neftkimiyoiy sintez xom ashylarining asosiy manbaalaria nimalar kiradi?
2. Uglerod atomlar soni nechaga teng?
- 3.Tabiyy gazning tarkibiga qarab nechchaga bo‘linadi?
- 4.YOg‘liq gaz komponentlarinechcha guruhga bo‘linadi?
5. Suyulgan gazlarni va gaz benzinini ajratib olishning necha xil usuli mavjud?

### **Asosiy adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.S.M. Turobjonov. B.A. Abidov. Moylar va maxsus suyuqliklar texnologiyasi. Darslik Toshkent 2010.
- 2.Speight, J.G. (2000). The Desulfurization of Heavy Oils and Residua. 2nd edn. Marcel Dekker, New York
- 3.Speight, J.G. and Ozum, B. (2002). Petroleum Refining Processes. Marcel Dekker, New York

### **2-mavzu: Aromatik uglevodorodlar. Naften uglevodorodlar.**

#### **Reja:**

- 1Aromatik uglevodorodlarni olish usullari.
2. Neft xom ashysidan aromatik uglevodorodlarni olish usullari
3. YUqori aromatlashtirilgan distillatlar va alkilaromatik uglevodorodlarni dealkillash.
4. Aromatik uglevodorodlarni ajratish va ajratib olish

**Tayanch so‘z va iboralar:** Arenlar, benzol, toluol, etilbenzol, ksilollar, arenlarni olish usullari,, katalptik riforming, uni ikki yo‘li, piroliz yo‘li, degidrotsiklizatsiya (keyingi degidrirlash bilan), arenlarni ajratish va ajratib olish, azeotrop haydash, selektiv ekstraksiya, ekstraktiv distillatsiya, ksilollarni ajratish, alkilaromatik uglevodorodlar olish, naftenlar, siklogeksanni ajratib olish, benzolni gidrirlash,

## **2.1 Aromatik uglevodorodlarni olish usullari.**

Neftkimyo ishlab chiqarish uchun uglevodorod xom ashyosidan aromatik uglevodorodlar: benzol, toluol, etilbenzol, izopropilbenzol, stirol, metilstirol, naftalinlar olish katta ahamiyat kasb etadi.

|        |        |             |             |             |
|--------|--------|-------------|-------------|-------------|
|        |        |             |             |             |
| Benzol | Toluol | Orto-ksilol | Meta-ksilol | Para-ksilol |

Neftkimyo sintezida aromatik uglevodorodlar keng qo'llaniladi.

Xorij ma'lumotlariga ko'ra 40% dan ortiq benzol stirol ishlab chiqarishga (sintetik kauchuk monomeri), 20%i fenol olishga, 10%i sintetik tola ishlab chiqarishga va qolgan 30%i –yuvish vositalari ishlab chiqarishga, zaxarli ximikatlar va boshqalarga sarf bo'ladi.

Neftkimyoda (50-55%) toluol plastmassalar, portlovchi moddalar, benzol olishda, erituvchi sifatida hamda benzinlarni komponenti holida ishlatiladi.

Ksilollarning asosiy massasi(35%i) erituvchi sifatida, yana shunchasi aviatsiya benzini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Orto-ksilol ftal angidridi ishlab chiqarishda qo'llaniladigan naftalin o'miga keng miqyosda ishlatiladi. Para-ksiloldan poliefir tola va plyonka ishlab chiqarish yarim xom ashyosi bo'lmish tereftal kislotasi olinadi. Metaksilol extiyojga kam sarflanadi: uni oksidlab izoftal kislotasi olinib, u esa plastifikatorlar ishlab chiqarish uchun kerak; izomerlab paraksilol oladilar; yuqori oktan sonli benzinlar uchun ham komponent xisoblanadi.

Uzoq vaqt aromatik uglevodorodlarni olishning asosiy manbasi koksokimyo sanoati bo'lgan, bunda 1t toshko'mirdan 10kg ga yaqin benzol olingan. Benzol va uning gomologlarini toshko'mir smolasidagi miqdori foizning o'ndan bir bo'laklaricha bo'lsada, aromatik uglevodorod resurslaridan bo'lgan ushbu manbani mensimaslik mumkin emas, chunki ko'mirni kokslash jarayoni yirik masshtablarda olib boriladi.

## **2.2.Neft xom ashyosidan aromatik uglevodorodlarni olish usullari**

Hozirgi vaqtida neft xom ashyosidan aromatik uglevodorodlarni quyidagi usullar bilan olish mumkin:

1. Neftni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fraktsiyalaridan va ayrim gaz kondensati konlarining kondensatlaridan ajratib olish.
2. Engil uglevodorod fraktsiyalarini katalitik riformingi.
3. Alkil aromatik uglevodorodlarni va yuqori aromatlashtirilgan distillatlarni dealkillash.
4. To‘g‘ridan-to‘g‘ri haydab olingan va ikkilamchi distilatlarni, ayrim hollarda esa «xom»neftni pirolizi.
5. Parafinlarni tsiklizatsiyasi.

### **Engil neft distillatlaridan aromatik uglevodorodlarni ajratib olish**

Ushbu aromatik uglevodorodlar olish manbaini neft fraktsiyalarida anchagina miqdorda aromatik uglevodorodlar bor bo‘lgandagina ishlatish maqsadga muvofiqdir.

YUqori aromatlashgan neftlar sirasiga Pensilvaniya (AQSH) aromatikaning miqdori 11% gacha va Grozniy (RF 5% gacha).

SHuning uchun yuqorida keltirilgan usul bu yaqin o‘rtada bizning Respublika uchun amaliy ahamiyat kasb etmaydi.

### **Katalitik riforming**

Neft asosidagi xom ashyordan yuqori konsentratsiyali aromatik uglevodo-rodlarni olishning asosiy manbai katalitik riformingdir.

Xom ashyo sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydalgan benzinni quyidagi temperaturalardagi tor fraktsiyalarpi ishlatiladi:

Benzol uchun  $-60\text{-}85^{\circ}\text{S}$

Toluol uchun  $-85\text{-}110^{\circ}\text{S}$


Ksilol uchun  $-120\text{-}135^{\circ}\text{S}$

YOki  $60\text{-}140^{\circ}\text{S}$  fraktsiya riforminga uchratiladi.

Qo‘llanilayotgan riforming katalizatorlariga bog‘liq xolda:

- 1) Gidroforming va 2) Platforming kabi jarayonlar o‘zaro farqlanadilar.

A) Gidroforming jarayoni  $480\text{-}540^{\circ}\text{S}$  temperaturada va 15-20at bosimda alyuminiy oksididagi molibden oksidi katalizatorida olib boriladi. Aromatik uglevodorodlar eng muximi olti a'zoli naften uglevodorodlarni degidrogenlash xisobiga va besh a'zoli naftenlarni olti xalqaliga izomerlab benzol hamda uning gomologlariga aylanishi xisobiga hosil bo'ladi:



Metilsiklopentan

Katalitik riforming jarayonida vodorod hosil bo'lsa hamki jarayon vodorod bosimi ostida olib boriladi. Bunda koks hosil bo'lishi vodorodsiz muxitdagidan ancha kamdir. Hozirgi sanoatda gidroforming psevdosuyultirilgan qatlam usulida amalga oshiriladi. Katalizator regeneratsiyasi uzlusiz amalga oshadi.


B) platforming jarayoni katalitik riforming soxasining katta yutug'idir. Ushbu jarayonda platinali katalizator (0,5% platina /alyuminiy oksidi) qo'llaniladi. jarayon  $450\text{-}540^{\circ}\text{S}$  temperaturada, 14-70 at vodorod bosimida olib boriladi. Ushbu jarayon asosida o'sha-o'sha gidroforming reaksiyalari yotadi.

Alyumoplatinali katalizatorda xom ashyo sifatida  $60\text{-}120^{\circ}\text{S}$  benzin fraktsiyasi ishlatilsa xom ashyyoga nisbatan aromatik uglevodorodlarni salmog'i 36,2%ni, shu jumladan benzol— 4,2%, toluol- 14,5%, ksilollar- 15,8% ni tashkil qiladi.

### **2.3.YUqori aromatlashtirilgan distillatlar va alkilaromatik uglevodorodlarni dealkillash.**

Ushbu jarayon Germaniyada 2-jaxon urushi yillari keng joriy etilgan bo'lib, yuqori oktanli benzinlar hamda aromatik uglevodorodlar olish uchun ishlatilgan. Jarayon benzol va naftalin olish maqsadlari uchun AQSH da keng ko'lamda olib boriladi. Xorijda ushbu jarayonning tez rivojlanishi benzol va naftalinlarni etishmay qolganligi boisdir. Dealkillash jarayonini 2 turi mavjuddir: termik va katalitik.

Reaksiya sxemasi:



Termik dealkillash 750<sup>0</sup>S da 40at bosimda boradi. Jarayon temperaturasini pasaytirish hamda benzolni salmog‘ini oshirish maqsadlarida adabiyotlarda molibden, kobal’t, nikel’ oksidlari /alyuminiy oksidida yoyuvchili katalizatorlarni qo‘llash va katalitik deallash jarayonini 620<sup>0</sup>S da amalga oshirish to‘g‘risida ko‘rsatmalar mavjud. Bunda xrom va alyuminiy oksidlari asosidagi katalizatorlarga afzallik berilgan.

### To‘g‘ridan-to‘g‘ri haydalgan va ikkilamchi distillatlarni pirolizi

Piroлиз smolalaridan aromatik uglevodorodlar ajratib olinadi. Smolaning salmog‘i xom ashyo turiga bog‘liqligini aytib o‘tish joizdir (13-jadval):

13-jadval

| Piroлиз xom ashysosi                        | Smolaning salmog‘I<br>(og‘irlilik% da) |
|---|--|
| Engil benzin (40-140 <sup>0</sup> S)        | 20-25                                  |
| Og‘ir benzin (100-180 <sup>0</sup> S)       | 25-30                                  |
| Kerosin-gazoyl fr. (145-345 <sup>0</sup> S) | 30-35                                  |

Piroлиз rejimiga o‘ta talabchan bo‘lish, ya’ni temperaturani 720<sup>0</sup>S dan 800<sup>0</sup>S ga ko‘tarish aromatik uglevodorodlarni salmog‘ini 14,4% dan 81% gacha oshishiga olib keladi.

Piroлиз smolasini 2 yo‘nalish bo‘yicha qayta ishlaydilar:

- 1) Faqat yoqilg‘i mahsulotlari olish uchun,
- 2) Asosan aromatik uglevodorodlar olish uchun.


### Parafinlarni halqalash.

Aromatik uglevodorodlar manbai sifatida Rossiya tadqiqotchilari Kazanskiy B.A va boshqalar tomonidan parafinlarni halqalanishi jarayoni 2-jaxon urushigacha ochilgan bo‘lsada, oxirgi vaqtgacha sanoatga tadbiq qilinmagan, chunki u texnologik nuqtai

nazardan murakkab, katalizator tezda aktivligini yo‘qotadi (xrom oksidlari alyuminiy oksidida), jarayon kichik ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Keyingi yillarda jarayonni oddiyroq amalga oshirish maqsadida qaynar qatlamlı jarayon xaqida unnalib ko‘rildi, biroq adabiyotlarda ushbu jarayonni muvaffaqiyatlı chiqqanligi xaqida ma’lumotlar yo‘qdir.

Umumiy holda reaksiya quyidagi ko‘rinishga ega:



#### **2.4.Aromatik uglevodorodlarni ajratish va ajratib olish**

Aromatik uglevodorodlarni ajratib olishning bir qancha usullari ma’lum:

- 1) Rektifikatsiya;
- 2) azeotrop haydash;
- 3) ekstraktiv haydash
- 4) selektiv ekstraksiya;
- 5) adsorbsiya.

Aromatik uglevodorodlarni ajratib olishning tejamliligini aniqlab beruvchi asosiy faktorlari bu ularning ilk xom ashyodagi kontsentratsiyasidir.

Ilk xom ashyoda aromatikaning kontsentratsiyasi 10 og‘irlik % dan kam bo‘lsa azeotrop haydash usuli rentabel bo‘lmay qoladi; ekstraktiv haydash usulida esa bu ko‘rsatkich 20%dan kam yoki 80%dan ortiq bo‘lganda kuzatiladi. Agarda aromatikaning xom ashyodagi miqdori 5%dan kam bo‘lsa qattiq adsorbent yordamidagi adsorbsiya usuli qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtida amaliyatda asosan azeotrop va ekstraktiv haydash, selektiv ekstraksiya usullari qo‘llaniladi.

#### **Azeotrop haydash**

Ushbu jarayon fraksiyaning noaromatik qismi metanol-suv aralashmasi bilan 3 yoqlama azeotrop aralashma hosil qilishiga asoslangan bo‘lib, undan aromatik uglevodorodlar haydash orqali ajratib olinishi mumkin.


## **Selektiv ekstraksiya**

Bizda va xorijda eng ko‘p tarqalgan ekstragen dietilenglikol’ (DEG) dir.

Ekstraktsiyaning mohiyati –aromatizatsiyalangan benzin va selektiv erituvchi qarama-qarshi oqimda kontaktda bo‘ladi, bunda aromatik uglevodorodlar eritmaga o‘tadi, noaromatik uglevodorodlar esa erimagan holda qoladi. So‘ngra eritmadan aromatik uglevodorodlar haydab ajratib olinadi (9-rasm).

Riforming katalizati 1-rektifikatsion kolonnaga engil qaynovchi fraktsiya ( $58^0S$ ) dan haydash orqali ajratish uchun yuboriladi. Fraktsiyaning og‘ir qismi kolonnaning quyi qismidan 2-ekstraktsion kolonnaga kirib keladi. Ushbu kolonnaning yuqori qismiga dietilenglikol’ning suvli eritmasi beriladi. Maksimal selektivlikni ta’minalash maqsadida 2-kolonnaga 5-kolonna pastidan retsirkulat yuborib turiladi. 2-Kolonna tepasidan olinadigan rafinat 3-kolonnaga yuvish uchun yuboriladi, pastidan esa ekstrakt 5-bug‘latgich kolonnaga jo‘natiladi. Haydab ajratib olingan aromatik uglevodorodlar 5-kolonnani tepasidan 6-haydab ajratib olingan mahsulotlar priemnigiga keladi, bu erdan esa ajralgan suv 3 va 4-yuvish kolonnalariga ketadi.

Aromatik uglevodorodlar aralashmasining bir qismi 5-kolonnadan ekstraktsion kolonnaga qaytariladi ortiqcha qolgan qismi esa 4-yuvish kolonnnasi orqali puxta rektifikatsiyaga yo‘naltiriladi. 3-kolonnanig tepe qismidan dearomatlashtirilgan katalizat olinadi. Benzol, toluol, ksilollarni ajratib olinish darajasi ularni ilk xom ashayodagi miqdoriga qarab 93-99%ni tashkil qiladi. dietilenglikol’: xom ashyo ni og‘irlilik nisbatlari 10:1 dan 14:1 gacha.



9-rasm. Riforming katalizatidan aromatik uglevodorodlarni dietilenglikol' (DEG) yordamida ekstraksiyalash prinsipial sxemasi.

1-xom ashyo tayyorlash rektifikatsion kolonnasi; 2-ekstraktsion kolonna; 3-dearomatizatsiyalangan katalizatni yuvish kolonnasi; 4-dearomatiza-tsiyalangan katalizat kolonnasi; 4<sup>1</sup>-aromatik uglevodorodlarni yuvish kolonnasi; 5-bug'latish kolonnasi; 6-haydab ajratib olingan mahsulotlar priemnigi.

Dietilenglikol' bilan ekstraktsiya qilishning kamchiliklari: ekstragent sarfining kattaligi, regeneratsiya qilishga yuqori energetik sarflar, uni etarli bo'lмаган yuqori selektivligi.

Xorijda ekstragent sifatida trietylenglikol', sul'folan, monometilformamid, N-metilpirrolidonni suvdagi eritmasi qo'llaniladi.


### **Ekstraktiv distillyasiya**

Ekstraaktiv distillatsiyani tub moxiyati quyidagichadir. Ekstraktiv distillatsiya uchinchi komponent- fenol ishtirokida olib boriladi. Aromatik uglevodorodlar bilan birga fenol kolonna kubida aromatikaning uchuvchanligi pasayishi xisobiga qoladi.

Fenoldan aromatikani haydab ajratib olinadi, fenol esa jarayonga qaytariladi.

Uglevodorodlarni aralashmasi (I) 1-kolonnaga keladi, u erga sof, yangi va jarayonga qaytarilgan fenol (VI) kiritiladi.

Ekstraktiv distillatsiyani soddalashtirilgan sxemasi quyidagicha (10-rasm)dir:



### **10-rasm. Ekstraktiv distillatsiya soddalashtirilgan sxemasi**

1-ekstraktiv haydash kolonnasi; 2-aromatik uglevodorodlarni ajratib olish kolonnasi.

1-Kolonna yuqorisidan noaromatik uglevodorodlar (II) chiqadi, pastidan esa aromatika+fenol (III) chiqib 2-kolonnaga aromatik uglevodorodlar (IV) ni ajratib olish uchun beriladi: 2-Kolonna tubidan ajralib chiqayotgan fenol (VI) sof, yangi fenol (V) bilan qo'shilib 1-kolonnaga boradi.

#### **Ksilollarni ajratib olish**


Ksilollarni ajratib olish ma'lum qiyinchiliklarga ega, chunki fraktsion tarkibga kirgan uglevodorodlar o'z fizik xossalariiga ko'ra juda yaqindirlar.

Quyida ksilol fraktsiyasi tarkibiga kirgan uglevodorodlarning qaynash va muzlash temperaturalari ( $^{\circ}\text{S}$  da) keltirilgan (14-jadval):

14-jadval

| Komponentlar | Qaynash temperaturasi, $^{\circ}\text{S}$ | Muzlash temperaturasi, $^{\circ}\text{S}$ |
|--------------|---|---|
| O-Ksilol     | 144,4                                     | -25,23                                    |
| M-Ksilol     | 139,1                                     | -47,97                                    |
| P-Ksilol     | 138,2                                     | +13,23                                    |
| Etilbenzol   | 136,2                                     | -95,09                                    |

Ksilol fraktsiyasini individual uglevodorodlarga ajratish quyidagicha amalga oshiriladi (11-rasm).



**11-rasm.** Ksilol fraksiyasini individual uglevodorodlarga ajratish prinsipial sxemasi.

1- o-ksilolni ajratish qurilmasi; 2- etilbenzolni ajratish qurilmasi; 3- p-ksilolni ajratish qurilmasi; 4- p-ksilolni ajratish maqsadidagi xom ashyni tayyorlash qurilmasi; 5- m-ksilolni ajratish qurilmasi.


Ksilollar aralashmasi 1-kolonnaga orto-ksilolni (III) ajratib olish uchun keladi. 1-Kolonna tepasidan mahsulotlar retsirkulyat (IV) bilan aralashgan xolda 2-kolonnaga etilbenzolni (V) ajratib olish uchun keladi, 2-kolonna tubidan xom ashyo 3-apparatga kristallizatsiyaga boradi. Bu erda p-ksilol (VII) ajraladi, xira eritma (VIII) esa 4-kolonnaga keladi, kolonna tepasidan p-ksiloni qo'shimcha ajratib olish uchun 2-kolonnaga yuborilayotgan retsirkulyat (IV) chiqarib olinadi, 4-kolonnadan chiqayotgan qoldiq (IX) m-ksilolni (X) va qoldiq ksilol fraksiyasini (XI) ajratib olish uchun 5-apparatga kiradi.

Keltirilgan sxema p-ksilol va etilbenzolni yuqori salmoqda 88 va 99% (xom ashyodagi ularning miqdoriga mos xolda) olish imkoniyatini beradi.

Ksilollarni ajratib olishning yangi orginal usuli yaponiyada ishlab chiqilgan. Ushbu usulda NG'.VG'3 aralashmasi qo'llanilib, dastavval uning yordamida xom ashyodan m-ksilol to'la ekstraktsiyalanadi ( $0\text{-}10^0\text{S}$ ), qolgan uglevodorodlar rektifikatsiyada oson ajraladi. NG'.VG'3 kompleksining yana bir et'tiborini tortadigan xossasi: temperaturani  $100^0\text{S}$  gacha ko'tarilsa metaksilolni orto- va para- ksilollarga izomerizatsiyasi amalga oshadi.

## Alkilaromatik uglevodorodlarni olish

Neftkimyoda alkilaromatik uglevodorodlardan eng ko‘p qo‘llaniladiganlari –etil- va izopropil-benzollardir. Ular sintetik kauchuk monomerlari bo‘lmish stirol va ametilstirollarni olishda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Undan tashqari oksidlash yo‘li bilan izopropilbenzoldan fenol (sintetik smola va plastmassalar xom ashyosi) va atseton olinadi. Alkilaromatik uglevodorodlar benzolni etilen va propilenlar bilan alkillash reaksiyasi yordamida olinadi:



Alkillash jarayoni uchun katalizatorlar sifatida sul’fat (H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>), fosfat (H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>), vodorod ftorid (HF) kislotalari, hamda alyuminiy xlorid (AlCl<sub>3</sub>) va rux xlorid (ZnCl<sub>2</sub>) lar xizmat qilishi mumkin.

Alkillash jarayoni Rossiyada quyidagi sharoitlarda AlCl<sub>3</sub> katalizatorligida olib borilgan: benzol: olefin nisbati yonaki mahsulotlar hosil bo‘lmasligini nazarda tutib 2:1 molyar nisbatda; reaktor sifatida kolonna olinib, uning balandligi 12 m, diametri 1,4 bo‘lgan. Kolonnaning ichki qismi emallangan va asbest zichlagichli flyanetslar bilan biriktirilgan 4ta zvenodan tashkil topgan. Boshqa hollarda korroziyadan ximoyalanish uchun grafit plitalar bilan futerovka qilinadi. Kolonnanig uch seksiyasi isitish va sovutish maqsadlari uchun “ko‘ylak” ka ega, ammo issiqliknig asosiy qismi benzolning bir qismining bug‘lanishi xisobiga olib chiqib ketiladi.


## Naften uglevodorodlar

Neftkimyoda naften uglevodorodlardan eng ko‘p qo‘llaniladigani tsiklogeksandir (C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>). Neylon va kapron ishlab chiqarishda tsiklogeksan ilk xom ashyodir, quyi bosimda polietilen ishlab chiqarishda esa erituvchi sifatida ishlatiladi.

TSiklogeksan ishlab chiqarishning 2 asosiy yo‘li mavjud: 1) uni tor benzin fraktsiyalaridan ajratib olish; 2) benzolni gidrirlab ajratib olish.

## Siklogeksanni tor benzin fraktsiyalari (68-85<sup>0</sup>S) dan ajratib olish

Rossiyada Suraxan va emben neftlari naften uglevodorodlarga boy (benzin fraktsiyasida 7,4% tsiklogeksan, 4-6%gacha metiltsiklopentan bor). Alyuminiy xlorid katalizatorida 80<sup>0</sup>Sda benzin fraktsiyasidagi metiltsiklopentanni izomeriza-tsiyalab tsiklogeksanga aylantiriladi:




Benzol, n-geksan, metiltsiklopentan v a tsiklogeksanlar o‘zaro azeotrop aralashma hosil qilishi bois rektifikatsiya usuli bilan benzin fraktsiyasidan toza tsiklogeksanni ajratib olish imkoniyati yo‘q. SHu sababli tsiklogeksanni metanol bilan azeotrop haydash orqali (tsiklogeksanni tozaligi-91%), yoki suvsiz fenol bilan ekstraktiv haydash yo‘li bilan ajratib olinadi.

Ushbu usullar yuqori darajali toza tsiklogeksanni olishga imkon bermaydi.

### Benzolni gidrirlab tsiklogeksan ishlab chiqarish

Benzolni gidrirlash quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:



Jarayon ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiqishi bilan boradi. Jarayonni sharoitlari tanlash ilk xom ashyo benzolni sifatiga bog‘liq.

Koksokimyo benzolini ishlatilganda, tarkibida anchagina oltingugurtli birikmali qo‘srimchalari bois jarayon nikel’, molibden, kobal’t sul’fidlarida olib boriladi. Ushbu katalizatorlar oltingugurtli birikmalar bilan zaxarlanmaydilar, ammo ular kam aktivlikka egaliklari sababli jarayon yuqori temperatura (350-370<sup>0</sup>S) va bosim (300at) da olib boriladi. Ushbu sharoitlarda gidrirlash bilan birga gidrotozalash ham ketadi.

Jarayon nikelli va platinali katalizatorlar ishtirokida 150-200<sup>0</sup>S temperaturada va 50at gacha bosimda olib boriladi, biroq xom ashymda katalizatorni zaxarlovchi oltingugurtli birikmalar bo‘lmashligi shart. Gidrirlashda ishlatiladigan vodorod ham oltingugurtli birikmalardan tozalangan bo‘lishi kerak.

### **Nazorat savollar:**

- 1Aromatik uglevodorodlarni olish qanday usullari mavjud?
2. Individual aromatik uglevodorodlarni ajratib olish yullarini ayting
- 3.Aromatik uglevodorodlar asosidagi sintezlar va ularni texnologiyasini malardan iborat?
4. Ekstraaktiv distillatsiyani tub moxiyati nimadan iborat?

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. М. А. Танатаров и др. Технологические расчёты установок переработки нефти. Учебное пособие для вузов. –М, Химия, 2000.-352с.
2. А.Г.Сарданашвили, А.И.Львова. Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа. Учебное пособие .-М., Химия, 2004.-256с
3. А.И.Скобло и др. Процессы и аппараты нефтегазопереработки и нефтехимии. Учебник для вузов.-М.: ООО “Недра – Бизнесцентр”. 2000.-677с

### **3 – mavzu. Uglevodorodlarni oksidlash. Spirtlar ishlab chiqarish.**

#### **Reja:**

1. Uglevodorodlarni oksidlash.
2. Spirtlar ishlab chiqarish.
3. Poliolefinlar ishlab chiqarish.
4. Plastmassalar ishlab chiqarish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** kislород saqlovchi birikmalar, uglevodorodlarni oksidlash, spirtlar, aldegidlar, oddiy qv murakkab efirlar, quyi parafinlarni oksidlash, formaldegid, metil spirti, sırka kislota, atselaldegid, suyuq parafinlarni oksidlash, uni prinsipial sxemasi, sintetik yog‘ kislotalar, texnologiyasi, olefinlarni oksidlashetilen oksidi, propilen oksidi, olefinlardan aldegid va ketonlar olish, akrolein, allil spirti, akrilonitril ,arenlarni oksidlash, benzoy kislotosi, malein angidridi, ftal angidridi, tereftal kislota, uni olish usullari, monometiltereftaoat, dimetilterekftalat, fenol, atseton, kumol usuli, izpropil benzolni, fenolni olish usullari, adipin kislota, siklogeksanol,

siklogeksanon, spirtlar ishlab chiqarish usullari, gidratatsiya, texnologiyasi, sulfat kisloota, gidratatsiya bosyichlari, alkilsulfatlar, etilen, propilen, izo-butilen, n-butilen, mono-va dialkilsulfitlar, gidroliz ,izi-propil spirti, texnologiyasi, magniy-organik birikmalar asosida spirtlar, ikki atomli spirtlar, etilenglikolsintetik glitserin ishlab chiqarish, glitserin, allil xlorid, akrolein, yuqori yog‘ spirtlar.

### **Kislород saqlovchi mahsulotlar ishlab chiqarish**

Kislород saqlovchi mahsulot ishlab chiqarishga kislotalar, spirtlar, al’degidlar, ketonlar, olefin oksidlari ishlab chiqarishlar kirib, eng rivojlangan va yirik neftkimyo ishlab chiqarishga taalluqlidir.

Neftkimyo sintezi sanoatining rivojlanishi oqibatida ko‘p bosqichli va yuqori bo‘limgan tezlik bilan boruvchi tabiiy oksidlanish , fermentativ bijg‘ish, noorganik oksidlovchilar ta’siridagi oksidlash jarayonlari o‘rniga uzlusiz sxema bo‘yicha olib boriluvchi uglevodorodlarni kislород bilan oksidlash jarayonlari kirib keldi.

Neftkimyo sanoati neft va gazning uglevodorodli xom ashyosi asosida kislород saqlovchi mahsulotlarni olish jarayonlarini o‘zlashtirdi va shu bois ko‘p miqdorda qimmatli oziq ovqat xom ashyolarini ozod etdi.

Kislород saqlovchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ikki asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1. Uglevodorodlarni oksidlash
2. Kislород saqlovchi mahsulotlar (asosan spirtlar)ni olishni boshqa usullari: gidratatsiya, hidroformillash va boshqalar.

#### **3.1. Uglevodorodlarni oksidlash**

Uglevodorodlarni oksidlab qimmatli mahsulotlardan yog‘ spirtlar va kislotalar, olefinlarni oksidi, fenol, adipin kislota va boshqalar olinadi.

Biroq uglevodorodlarni oksidlash jarayonlari uchun jiddiy o‘ziga xos kamchiliklar mavjud.

Birinchidan, uglevodorodlarni oksidlanish jarayoni odatda zanjirli radikal mexanizm bo‘yicha boradi: radikallar ilk molekulalarni duch kelgan nuqtalariga ataka qiladi, oqibatda oksidlash jarayoni ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha , ya’ni noselektiv ketadi.

Ikkinchidan, oksidlash o'sib boruvchi ekzotermiklik bilan boradi: oksidlash qanchalik chuqur borsa, shunchalik ko'p issiqlik ajralib chiqadi, shuning uchun oksidlash jarayonini boshlang'ich bosqichlarda to'xtatib qolish qiyin, shu bilan birga birinchi bosqichlarda olinayotgan oksidlash mahsulotlari eng qimmatli xisoblanadi.

### **Parafin uglevodorodlarni oksidlash**

Ilk xom ashyoga bog'liq xolda parafin uglevodorodlarni oksidlash jarayonini 3ta o'zaro mustaqil guruhlarga bo'lish mumkin:


- 1) Quyi parafin uglevodorodlarni oksidlash,
- 2) Suyuq C<sub>10</sub>-C<sub>20</sub> parafin uglevodorodlarni oksidlash,
- 3) Qattiq C<sub>20</sub>-C<sub>40</sub> parafin uglevodorodlarni oksidlash,

### **Quyi parafin uglevodorodlarni oksidlash**

Quyi parafin uglevodorodlarni oksidlashdan maqsad-formal'degid, sirka kislota, atsetal'degid, metanol va boshqa qimmatli mahsulotlar olishdir. Oksidlash tezligi metandan butanga tomon ortib boradi.

### **Metanni oksidlash**

Metan oksidlanganda quyidagi reaksiyalar ketadi:





Metanni to'g'ridan-to'g'ri oksidlashni qiyinchiligi shundan iboratki, oksidlash chuqurligini oshishi bilan jarayon tezligi va issiqlik effekti tobora o'sib boradi. Bu esa oksidlash jarayonini kerakli bosqichida temperaturani boshqarib turishni qiyinlashtiradi. SHu sababli bir o'tishda metanni kamroq konversiya reaksiyasi amalga oshiriladi, reaktorda esa reaksiya mahsulotlarini qisqa vaqt bo'lishini ta'minlanadi. Reaksiya yuqoriqoq bosimda azot oksidlari initiatorlari ishtirokida olib boriladi. Har doim oksidlash reaksiyasini, portlash havfi bor kontsentratsiyalar hosil bo'lishini oldini olish maqsadida, ortiqcha miqdorda uglevodorodlar bilan olib boriladi.

Metanni 360<sup>0</sup>S temperaturada, 100at bosimda, azot oksidlari (0,08%) mavjudligida va metan: kislород=9:1 (nisbat) da oksidlaganda 17% CH<sub>3</sub>OH va 0,6% CH<sub>2</sub>O olingan.

Atmosfera bosimi va  $600^{\circ}\text{S}$  ga yaqin temperatura, azot oksidlari ishtirokida 35% ga yaqin formal'degid (reaksiyaga kirishgan metanga nisbatan) olingan.

Neftkimyo sanoatida formal'degid ishlab chiqarish yirik ko'lamlarga etdi. Biroq, metanni oksidlab formal'degid olish qiyinchiliklari asosan metanni ushbu usul bilan olinishiga sabab bo'ldi. Bunda jarayon quyidagicha amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda metanni konversiyasini suv bug'i bilan olib boriladi:




Hosil bo'lgan sintez-gazdan metanol oladilar:



Reaksiyani  $370-400^{\circ}\text{S}$  temperaturada, 250-300 at bosimda  $\text{ZnO-Cr}_2\text{O}_3$  oksid formadagi katalizator ishtirokida olib boradilar. Metanol salmog'i 85-87%ni tashkil qiladi.


SHu bilan birga reaksiya mahsulotlari 2% gacha dimetil efiri, 1% gacha yuqori spirtlar va boshqalarini o'z ichiga oladi.

Metanol ishlab chiqarishning katta ko'lamlaligini (masalan 1967 yilda AQSH da 1,5 mln.t) va formal'degidni neftkimyodagi muximligini xisobga olgan xolda dimetilefirini formal'degidga qayta ishlash jarayoni ishlab chiqilgan:



Jarayon  $450-530^{\circ}\text{S}$  temperaturada, atmosfera bosimida  $\text{WO}_3$  katalizatorida ketadi.

Sintez-gazdan olingan metanolni oksidlab degidrirlash yo'li bilan formal'degidga aylantiriladi:



Jarayon kumush katalizatori ishtirokida  $600^{\circ}\text{S}$  xaroratda olib boriladi. Reaksiyaga kirishgan metanolga nisbatan formal'degid salmog'i 90% ga etadi. Portlash xavfiga ega kontsentratsiyalarga chap berish maqsadida reaksiya suv bug'lari bilan chapishtirib olib boriladi.

Oksidlash jarayoni uchun etan amalda qo'llanilmaydi.

## **Propan va butanni oksidlash.**

Propan va butanni oksidlash  $430\text{-}450^{\circ}\text{S}$  temperaturada va 7-10 at bosimda olib boriladi. Oksidlash natijasida formal'degid, atsetal'degid, atseton, metil-va etil spirtlari va boshqa mahsulotlar olinadi. Bosim oshishi bilan spirtlarni salmog'i ham ortadi. Oksidlovchi sifatida kislorod qo'llaniladi. Butanni alyuminiy fosfatda  $410^{\circ}\text{S}$  temperaturada va 20 at bosimda oksidlaganda reaksiya mahsulotlarida 13% metanol, 22% formal'degid va 3% atsetal'degid uchraydi.

Qator hollarda oksidlashga individual uglevodorodlar emas, balki yo'ldosh gaz uchratiladi. Hamdo'stlik davlatlarida ishlab chiqilgan usul bo'yicha  $1\text{m}^3$  yo'ldosh gazdan 125g formal'degid hosil bo'ladi, shu bilan birgalikda yuqori kalloriyalik ( $400\text{kcal/m}^3$ ) energetik yoqilg'i sifatida ishlatiluvchi ishlatib bo'lingan gaz olinadi. Jarayon 0,2% NO initsiatori ishtirokida  $600\text{-}700^{\circ}\text{S}$  temperaturada va 0,10-0,15 sek kontakt vaqtida olib boriladi.

Suyuq fazada propan va butanni oksidlash jarayoni katta qiziqish uyg'otadi. Hamdo'stlik davlatlarida (RF)da ishlab chiqilgan butanni oksidlab sirka kislota olish jarayoni kobal't yoki marganets tuzlari ishtirokida sirka kislota muxiti sharoitida  $165\text{-}170^{\circ}\text{S}$  va 60 at bosimda amalga oshiriladi. Sirka kislota olishning ushbu usuli boshqa hamma sanoat usullari (atsetal'degidni oksidlash, etil spirtini oksidlash, keten orqali atsetondan) ga taqqoslaganda iqtisodiy eng afzaldir.

Sirka kislota olishning butan kabi yaxshi xom ashyo bo'lgan  $\text{C}_5\text{-}\text{C}_7$  parafin uglevodorodlar saqllovchi, qaynash temperatura chegarasi  $30\text{-}90^{\circ}\text{S}$  bo'lgan engil va to'g'ridan-to'g'ri neft fraktsiyalari ham xizmat qiladi.

Oksidlashni marganets, kobalt' yoki vanadiy tuzlari katalizatorida  $145\text{-}215^{\circ}\text{S}$ , 42 at bosimda olib boriladi.

Rossiya Federatsiyasida sirka kislotaning katta miqdori atsetal'degidni oksidlab olingan.

### **3.2.Suyuq parafin uglevodorodlarni spirtlarga oksidlash.**

Suyuq parafin uglevodorodlarni oksidlash sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarishda zarur xom ashyo bo'lgan  $\text{C}_{10}\text{-}\text{C}_{20}$  oliy yog'li spirtlar olish uchun yo'naltirilgan.

YAqin-yaqingacha ushbu spirtlar yog‘lardan, ya’ni oziq-ovqat xom ashysidan yuqori yog‘ kislotalarni yoki ularni efirlarini gidrirlab olinar edi.


Rossiya Federatsiyasi neftkimyo sintezi institutida rus olimi Bashkirov A.N. tomonidan parafinlarni suyuq fazada yo‘naltirilgan oksidlashni yangi usuli ishlab chiqilgan. Ushbu usul bo‘yicha oliy spirtlar olinib, birinchi bor Rossiyada 1957-58 yillarda sanoatga tadbiq qilingan. Xom ashyo sifatida dizel’ fraksiya ( $200\text{-}350^{\circ}\text{S}$ ) sidan ajratib olingan yoki uglerod atomlari soni  $\text{C}_{10}\text{-}\text{C}_{20}$  bo‘lgan Fisher-Tropsh sintezi orqali olingan parafin uglevodorodlar ishlatiladi. Bunday parafin uglevodorodlarni  $t_{qaynash}=275\text{-}320^{\circ}$  va  $t_{erish}=24\text{-}26^{\circ}\text{S}$  ga tengdir.

Oksidlash jarayonini sekinlashtirishi bois xom ashysoda aromatik uglevodo-rodlar 0,5% dan oshmasligi lozim.

Parafin uglevodorodlarni oksidlash jarayoni 3-4% kislorod saqllovchi azot-kislorod aralashmasi bilan ilk xom ashyo 4-5% borat kislota (uglevodorodlar og‘irligiga nisbatan olganda) ishtirokida  $165\text{-}170^{\circ}\text{S}$  temperaturada 2-3soat muddatda olib boriladi.

### **Suyuq parafinlarni oksidlab spirtlar ishlab chiqarish prinsipial texnologiyasi**

Sanoatda jarayon quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi (1-rasm):



**1-rasm.** Suyuq parafinlarni oksidlab spirtlar ishlab chiqarish prinsipial texnologik sxemasi.

Oksidlash jarayoni 2-kolonnada olib boriladi, oksidlovchi- azot-kislород aralashmasi bir soatda 1 kg parafin uchun 500-700l. Oksidat oksidlash tamom bo‘lgandan so‘ng borat kislotani ortiqcha qismidan tindirish yo‘li bilan tindirgichda va tsentrafugada ajratib olinadi. Reaksiyaga kirishmay qolgan uglevodorodlar 5 mm simob ustuni vakuumida,  $230^{\circ}\text{S}$  temperaturada jarayonga qaytariladi. So‘ngra borat efirlari  $75-90^{\circ}\text{S}$  temperaturada suv bilan parchalanadi. Borat kislotaning suvli eritmasi bug‘lantiriladi va kislota yana jarayonga qaytariladi. So‘ngra spirtlar 45%li NaOH eritmasi bilan  $110^{\circ}\text{S}$  temperaturada ishlov berilib, yog‘ kislotalar sovunga aylantirilib bog‘lab qolinadi, spirtlar esa  $\text{C}_7\text{-C}_9$ ,  $\text{C}_{10}\text{-C}_{13}$ ,  $\text{C}_{13}\text{-C}_{16}$ , va  $\text{C}_{16}\text{-C}_{20}$  fraktsiyalarga rektifikatsiya qilinadi.

Boshkirov usuli bo‘yicha oksidlash natijasida 80% ikkilamchi va 20% birlamchi spirtdan tashkil topgan spirtlar olinadi.

Volgodonsk va SHebekino neftkimyo kombinatlarida  $\text{C}_{10}\text{-C}_{18}$  spirtlari ishlab chiqarish, shunga mos sintetik yog‘ kislotalar metil efirlarini gidrirlash yo‘li bilan spirt oluvchi qurilmalar ekspluatatsiya qilinmoqda.

### **Qattiq parafin uglevodorodlarni sintetik yog‘ kislota (SYOK)lar ga oksidlash.**

Parafinlarni oksidlab yog‘ kislotalari ishlab chiqarishning asosiy maqsadi- sovun pishirish sanoati yarim mahsuloti bilan oziq-ovqat yog‘lari o‘mini almashtirishdir.

Keyinchalik sintetik yog‘ kislotalarini ishlatish soxalari kengaydi, chunki parafin oksidlanganda uglerod atomi 1dan 25gacha bo‘lgan keng gamma kislotalar hosil bo‘lib, ular turli-tuman qo‘llaniladi.

Qattiq parafinlarni oksidlaganda chumoli va sirkalari kamroq miqdorda hosil bo‘ladi, ularni qo‘llanilishi xaqida yuqorida bayon etilgan.

$\text{C}_5\text{-C}_6$  kislotalar o‘zlariga mos efirlarni olishda ishlatilib, parfyumeriya va boshqa sohalarda qo‘llaniladi.


$\text{C}_7\text{-C}_9$  kislotalar plastifikatorlar va boshqa moddalar ishlab chiqarishda ishlatiluvchi birlamchi spirtlar olishda qo‘llaniladi.

$\text{C}_{10}\text{-C}_{20}$  kislotalar –sintetik yuvish vositalarini olishda va birlamchi spirtlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

$\text{C}_{21}\text{-C}_{25}$  kislotalar –konsistent surkov moylari tayyorlashda ishlatiladi.

SHunday qilib, sintetik yog‘ kislotalari (SYOK) ni qo‘llanish sohalari juda kengdir.

SYOK ishlab chiqarish quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi.




2-rasm. Sintetik yog‘ kislotalarini olish prinsipial texnologik sxemasi.

Zanglamas po‘latdan yoki alyuminiydan tayyorlangan kolonnaga parafin (1 qism yangi va 2 qism jarayonga qaytarilgan) solinadi va  $120^{\circ}\text{S}$  gacha isitiladi. Ushbu temperaturada suvda tayyorlangan 15%li  $\text{KMnO}_4$  eritmasi –katalizat parafin bilan alohida apparatda aralashtirib beriladi. Kaliy permanganat parafinda yaxshi taqsimlanadi va shu bilan birga u  $\text{MnO}_2$  gacha qaytariladi. Kolonnaga katalizator (parafinga nisbatan 0,1-0,3% miqdorda) solingandan so‘ng havo (1t parafinga  $60\text{m}^3/\text{soat}$ ) beriladi. Jarayon 20-24soat davomida amalga oshirilib, reaksiya oxirida temperaturani  $120^{\circ}\text{S}$  dan  $105^{\circ}\text{S}$  gacha pasaytiriladi.

Oksidlash 30-35% chuqurlikkacha olib boriladi.

Reaksiya tugallangandan so‘ng oksidat kukunsimon katalizator qoldig‘idan voqif bo‘lish uchun tindirgichga yo‘naltiriladi. So‘ngra oksidat quyi molekulyar kislotalar va katalizator qoldiqlaridan suv yordamida yuviladi. YUvilgan katalizat sovunlanishga jo‘natiladi. Sovunlash jarayoni 2 bosqichda olib boriladi: 1-bosqich –karbon kislotalarni 25%li soda eritmasi bilan sovunlanishi:



1-bosqich sovunlanishdan so‘ng oksidat tindiriladi, bunda 1-sovunlanmagan va asosan parafindan tashkil topgan mahsulot ajratib olinadi va oksidlashga qaytariladi.

### **Olefin uglevodorodlarni oksidlash**

Kislород saqlovchi mahsulotlarini turli aralashmasini hosil bo‘lishiga olib keluvchi parafin uglevodorodlarni oksidlashga qarama-qarshi o‘laroq olefinlarni oksidlash selektiv jarayondir.

Quyi olefin uglevodorodlar- etilen va propilanlarni oksidlash katta sanoat ahamiyati kasb etadi; shu bilan birga olefin oksidlari, akrolein, atsetal’degid va boshqa qimmatli mahsulotlar olinadi.

### **Olefin oksidlarini olish**

Etilen oksidi juda yirik ko‘lamda ishlab chiqarilmoqda. AQSHda uni ishlab chiqarish 1965 yilda 300 ming tonna bo‘lsa, 1975 yili 4 mln.t ga etgan va keyingi sur’atlar bundan ham jadallahsgan.

#### **Etilen oksidini olish**

Hozirgi vaqtida etilen oksidi ikki usul bilan olinadi: etilenni to‘g‘ridan-to‘g‘ri oksidlash va xlorgidrin usuli bilan.

*1-jadval*

#### ***AQSHda etilen oksidini iste’mol qilish soxalari***

| Qo‘llanish soxalari | 1965y      |         | 1968y      |         | 1974       |         |
|---------------------|------------|---------|------------|---------|------------|---------|
|                     | Ming<br>t. | %<br>da | Ming<br>t. | %<br>da | Ming<br>t. | %<br>da |
| Etilenglikol’       | 703        | 67,4    | 669,4      | 59      | 1180,8     | 59      |
| Sirt aktiv moddalar | 113,7      | 10,9    | 145,3      | 12      | 258,8      | 13      |
| Etanolaminlar       | 90,7       | 8,7     | 91,0       | 8       | 127,0      | 6       |
| Polietilenglikolar* | -          | -       | 118,0      | 10      | 182,0      | 9       |
| Glikol’ efiri       | 90,7       | 8,7     | 104,4      | 9       | 159,0      | 8       |
| Boshqalar           | 45,4       | 4,3     | 34,0       | 3       | 91,0       | 5       |
| Hammasi             | 1046       | 100     | 1192,1     | 100     | 1998,6     | 100     |

\* 1968 yilgacha Boshqalarga kirgan

## **Propilen oksidi olishning turli usullari**

Hozirda propilen oksidi xlorgidrin usuli bilan olinmoqda. Ushbu usul bo'yicha jarayon etilen oksidi olish kabi olib boriladi. Propilenni to'g'ridan-to'g'ri oksidlاب propilen oksidi olish jadal sur'atlar bilan ishlab chiqilayapti.

So'nggi vaqtarda propilen oksidini olishning bir nechta yangi usullari taklif qilindi. Ular Prilejaevning ma'lum reaksiyasiga asoslangan: olefinlar gidroperoksidlar bilan o'zaro ta'sirlashib olefinlar oksidi hosil bo'ladi.

Gidroperoksidlar sifatida nafaqat alifatiklari, aromatiklari ham qo'llaniladi.

Xozirgi vaaqtda kapitalistik davlatlarda propilen oksidi ishlab chiqarish quvvatlari 1,5 mln. t ni, ishlab chiqarishning o'sishi 15% ga to'g'ri kelayapti.

Etilen va propilen oksidlari mos xoldagi glikollar, etanol-va propanolaminlar hamda noionogen yuvish vositalari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Etilen oksidi sintetik kauchuk va tolalarning ilk monomeri bo'lgan akrilonitril ishlab chiqarishda ham qo'llaniladi.


### **Olefirlarni al'degidlar va ketonlargacha oksidlash**

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan hamma al'degidlar ichida ishlab chiqarish ko'لامи bo'yicha atsetal'degid birinchi o'rinni egallaydi.

AQSHda 1967yilda 630ming t.ga yaqin atsetal'degid ishlab chiqarilgan.

YAqin paytlargacha uni olishning quyidagi usullari ma'lum edi: etil spirtini oksidlاب degidridlash, mis katalizatorida etil spirtini degidrirlash, Kucherov usuli bo'yicha atsetilenni gidratatsiya qilish, etilen oksidini izomershish.

1959yili SHmidt tomonidan palladiy xlориди katalizatorini qo'llab suv yoki suv bug'i ishtirokida olefinlarni karbonil birikmalarga oksidlash jarayoni ishlab chiqildi. Bir bosqichda ushbu usul bo'yicha etilen oksidlanguanda atsetal'degid hosil bo'ladi:



Oksidlash 100-200°S temperaturada palladiy xlориди suvli eritmasida 3-10at bosimda olib boriladi. Utkazilgan etilenga nisbatan atsetal'degidni salmog'i 90-95% ga etadi, shu bilan birga 1-1,5% sirka kislotasi va 1-1,3% ga yaqin xlорli hosilalar hosil bo'ladi.

Etilenni atsetal'degidga oksidlash reaksiyasi turli usullar bilan olib borilishi mumkin: bir-va ikki reaktorli jarayonni suyuq katalizator vositasida va qattiq katalizator qo'llash orqali.

Birinchi xolda reaktorga hamma komponentlar kiritiladi. Ikki reaktorli sxemada metallik palladiyni palladiy xloridga aylantirish, ya'ni katalizatorni regeneratsiyasi alohida apparatda amalga oshiriladi.

Statsionar katalizator ishlatilganda promotorlar va katalizator qatlamlari orqali etilen va suv bug'i aralashmasi o'tkaziladi.

Atsetal'degid hosil bo'lish reaksiyasi ekzotermikdir, shuning uchun reaktor yaxshi sovutishni talab qiladi.

1970 yili xorijda atsetal'degid ishlab chiqarish 2mln. t/yiliga (1,03 mln t. AQSHda, 550ming t./yildan G'arbiy evropa va YAponiyada) dan oshib ketdi.

1965 yildayoq YAponiyada ishlab chiqarilgan hamma atsetal'degidning 68%i etilen asosida bo'lган. GFRda etilen asosga o'tish sekinroq amalga oshgan (atsetilenda ishlagan qurilmalarning ko'p sondaligi bois). AQSHda ishlab chiqarishning ko'pchiligi etanol asosda edi, biroq 1970 yili etilen usulini ulushi 54%ni tashkil etdi. 1968y dagi etakchi kapitalistik davlatlarni atsetal'degid ishlab chiqarish xom ashyo bazalari strukturasi 16-jadvalda keltirilgan:

2 - j a d v a l

#### ***Atsetal'degid umumiy ishlab chiqarishda turli xom ashyo turlarining ulushi***

| Mamlakat  | Etilen | Atsetilen | Etanol | Boshqalar |
|-----------|--------|-----------|--------|-----------|
| YAponiya  | 93     | 7         | -      | -         |
| AQSH      | 33     | 6         | 49     | 12        |
| GFR       | 69     | 31        | -      | -         |
| Italiya   | 54     | 46        | -      | -         |
| Frantsiya | 30     | 31        | 39     | -         |

Etilen xom ashyyoga o'tish 100-150 ming t./yil quvvatli yirik qurilmalar qurish imkoniyatini beradi.

Atsetal'degid –sirka kislotasi, etilatsetat, n-butil spirtlari olishda qo'llaniladi.

## **Metil guruhi qiyofasini o‘zgartirib olefinlarni oksidlash**

Metil guruhi qiyofasini o‘zgartirib propilen oksidlanguanda akrolien, ;jzbekiston asosida-allil spirti glitserin, akrilonitrillar olinadi.

### **20. Akrolein ishlab chiqarish**

Ushbu usul bo‘yicha olinadigan eng zarur mahsulot-akroleindir. U propilenni molekulyar kislorod bilan oksidlaganda hosil bo‘ladi:




Jarayon karborund (kremniy karbidi) dagi 0,4-1,4% miqdorda bo‘lgan mis (I) oksidi katalizatorida 350-400<sup>0</sup>S temperaturada, 1-10 at bosimda olib boriladi.


Jarayon katalizator yuzidan 7,9% O<sub>2</sub>, 26,4% C<sub>3</sub>H<sub>6</sub>, 65,8% suv bug‘i aralashmasini (portlash xavfi bor kontsentratsiya hosil bo‘lishini oldini olish maqsadida) o‘tkazib amalga oshiriladi. Kontakt vaqt 0,1-2sek. Akrolein salmog‘i 85% ga etadi. Akrolein allil spirti, glitserin hamda akrilonitril olishda qo‘llaniladi.

### ***Propilenni oksidlab ammonoliz qilib akrilonitril olish***

*Propilenni oksidlab olingan akroleindan va ammiakdan akrilonitril olish mumkin:*



Jarayon bir bosqichda – propilenni oksidlash orqali ammonoliz qilib olib boriladi. Ushbu jarayon 1959-60 yillarda ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagi reaksiya bo‘yicha ketadi:




Reaksiya akrolein hosil bo‘lish bosqichi orqali ketadi.

Jarayon 450<sup>0</sup>S temperaturada, 3 at ga yaqin bosimda yoyuvchi-silikagel’ bo‘lgan molibden, vismut, kobal’t, xrom va boshqa oksidilar bor katalizatorlarda amalga oshiriladi.

Oksidlovchi ammonolizda ishlatiladigan propilenni kontsentratsiyasi 90%dan kam bo‘lmasligi kerak. Reaksiyani, portlash xavfi bor kontsentratsiya hosil bo‘lishini oldini

olish maqsadida, suv bug‘i ishtirokida olib boradilar: komponentlarni nisbati stexiometrik ko‘rsatkichga yaqin:



Propilenni bir o‘tishdagi konvetsiyasi 60% ni tashkil qilib selektivlik 75% atrofidadir.

Oksidlovchi ammonoliz jarayoni odatda regeneratsiyasiz 6 oy ishlaydigan statsionar katalizatorlarda olib boriladi. Reaksiya mahsulotlari reaktordan chiqishi bilan temperaturani  $250^{\circ}\text{S}$  gacha pasaytirish uchun suv yordamida toplashga yo‘liqtiriladi va so‘ng ammiakni neytrallash qaynoq ammoniy sul’fat va sul’fat kislota bilan amalga oshiriladi. Ammiak mavjudligida akrlonitrilni polimerizatsiyasi o‘ta effektiv borgani sababli neytralizatsiya jarayoni uni oldini olish uchun zarurdir.

Akrilonitril va yonaki mahsulotlar- atsetonitril, sinil kislotasi suv bilan yuttirilib, so‘ng ekstraktiv distillyatsiya vositasida akrilonitril ajratib olinadi.

Hozirgi vaqtida xorijda barcha akrilonitrilning 80%i ushbu jarayon bilan olinib, 1970 yilda 6 kapitalistik davlatda 17 qurilma umumiy 1,2 mln t./yil quvvatda ishlagan.

Quyida akrilonitril ishlab chiqarishda (davlatdagi umumiy quvvatga nisbatan % da) propilenning nisbiy ulushi ko‘rsatilgan (17-jadvalda):

3-jadval

| Yil  | AQSH | Angliya | Fran<br>tsiya | Italiya | GFR  | YAponiy<br>a |
|------|------|---------|---------------|---------|------|--------------|
| 1965 | 30,0 | -       | -             | -       | -    | 77,4         |
| 1970 | 89,1 | 100     | 100           | 77,3    | 92,8 | 100          |

Akrilonitril ayrim boshqa usullar bilan ham olinishi mumkin: etilen oksidi va vodorod tsianiddan; atsetilen va sinil kislotadan; atsetal’degid va sinil kislotadan. Akrilonitrilni propilenni oksidlovchi ammonoliz orqali sintezi eng ko‘p iqtisodiy foyda keltiruvchidir.


Bizning respublikamizda akrilonitril «Nitron» sintetik tolasi ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. U benzin va moyga chidamli nitril kauchuklari, plastmassalar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

## Aromatik uglevodorodlarni oksidlash


Aromatik uglevodorodlarni oksidlash fenol va atseton, malein va ftal angdridi, tereftal kislota va boshqa zurur birikmalarini hosil bo‘lishiga olib keladi.

### Malein angidridini turli usullar bilan olish

Malein angidridi benzolni  $400\text{-}450^{\circ}\text{C}$  temperaturada vanadiy oksidi ( $\text{V}_2\text{O}_5$ ) ishtirokida oksidlab olinishi mumkin:



Biroq xozirgi vaqtida buten-2 va xattoki butanni oksidlab malein angidridini olishning yangi usuli qo‘llaniladi:




Malein angidridi salmog‘i esa 80% ga etadi.


Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, 1t malein angidridini olish uchun xisob bo‘yicha  $\text{S}_4$  to‘yinmagan uglevodorodidan benzolga nisbatan 30 og‘irlik qism kam talab qilinadi. Reaksiyaning issiqlik effekti ham kamroq, bu esa jarayonni texnologik bejashni osonlashtiradi.

### Ftal angidridini turli usullar bilan olish

Sintetik smolalar olishda ishlataladigan ftal angidridi ortoksilolni oksidlab olinadi:




Ushbu usul boshqa eski usul- naftalinni oksidlab ftal angidridi olishni muvaffaqiyatli siqib chiqarayapti:



## Izopropilbenzolni oksidlab fenol va atseton olish texnologiyasi

Kumol usuli bilan fenol va atsetonlar olish printsipial texnologik sxemasi 14-rasmida keltirilgan.

Issiqlikni olish uchun suvi sirkulyatsiya qilinadigan likopchalarga joylashtirilgan ilon izi quvurchalar kolonnada oksidlash jarayoni olib boriladi



4-rasm. Fenol va atsetonlar olish bilan boradigan izopropilbenzolni oksidlash texnologik sxemasi

### Fenol olishning boshqa usullari

Fenol olishning boshqa usullari ham mavjuddir:

1. Sul'fonat usuli-benzolni sul'furlashga va hosil bo'lgan benzol sulfokislotani ishqor bilan eritish orqali fenol hosil qilish bilan;
2. Xlor usuli –benzolni xlorlash bilan;
3. Oksidlab xlorlash usuli (Rashig usuli)- benzol, vodorod xlorid va havoni o'zaro ta'siri va hosil bo'lgan xlorbenzolni gidrolizi bilan.


### Naften uglevodordlarni oksidlash

Tsiklogeksanni oksidlash jarayoni asosan sanoat miqyosida sintetik tolalar – kapron va naylon sintez qilish uchun xom ashyo olishga yo'naltirilgan.

### Silikogeksanni oksidlab adipin kislota olish jarayonlari

Sanoatda tsiklogeksanni oksidlash havo yordamida 120-140<sup>0</sup>S temperaturada va 10-20at bosimda kobal't naftenati (tsiklogeksan og'irligiga nisbatan 0,004%da)-


katalizator sifatida ishlataliganda olib boriladi. Oksidlashda o'sha zaxotiyoyq tsiklogeksanol (1) va tsiklogeksanonga (2) parchalanib ketuvchi tsiklogeksan gidroperoksidi hosil bo'ladi.



Odatda tsiklogeksanolni tsiklogeksanonga nisbati 2:1 bo'lib, jarayonning selektivligi tsiklogeksanni konvetsiya darajasiga bog'liq: konvetsiya 5% bo'lsa reaksiyaga kirishgan tsiklogeksanga nisbatan tsiklogeksanol va tsiklogeksanonlarni umumiyl salmog'i 95%ni, konversiya 15% bo'lsa –60-65%ni tashkil qiladi.

SHu bois tsiklogeksan bir o'tkazilganda 10-12% konvetsiyaga uchrashi xisobga olinib, oksidlash jarayoni olib boriladi; reaksiyaga kirishmay qolgan siklogeksan retsirkulyasiya qilinadi.

Tsiklogeksanol va tsiklogeksanonni oksidlashni ikkinchi bosqichida oksidlash 57%li nitrat kislota bilan  $70-100^{\circ}S$  temperaturada va 2-10at bosimda mis-vanadiy katalizatorida kislotani o'ta mo'l miqdori bilan olib boriladi:



Xom ashyoga nisbatan adipin kislotaning salmog'i 90%ga etadi. U naylon olish uchun qimmatli xom ashyodir.


Kapron olishda ilk xom ashyo tsiklogeksandir. Uni oksidlashni birinchi bosqichidan so'ng rektifikatsiya yo'li bilan ajratib oladilar.

Tsiklogeksanni bir bosqichda oksidlash yo'li bilan adipin kislota olish mumkin. Buning uchun jarayon sirka kislota eritmasida  $100-120^{\circ}S$  temperaturada va 10at bosimda kobal't xlориди ishtirokida olib boriladi:



Biroq, adipin kislotaning salmog‘i tsiklogeksanni ikki bosqichda oksidlashdagi 75-80% o‘rniga bor yo‘g‘i 50%ni tashkil qiladi.

Tsiklogeksanni oksidlash jarayonini fenolni olish uchun ham qo‘llash mumkin. Ushbu usul bo‘yicha tsiklogeksanni oksidlashning birinchi bosqichida olingan tsiklogeksanon va tsiklogeksanollar platinalangan ko‘mirda  $250-425^{\circ}\text{S}$  temperaturada katalitik degidrogenizatsiyaga uchratiladi:



SHunday qilib, tsiklogeksanni oksidlاب qimmatli mahsulotlar bo‘lgan –adipin kislota (neylon olishda monomer), tsiklogeksanon (kapron olishda xom ashyo), fenol (qo‘llanish soxalari avvalgi bo‘limda ko‘rsatilgan) larni olish mumkin.

### **Spirtlar ishlab chiqarish**

Neftkimyo sanoatida spirtlar eng muhim va ko‘p tonnali mahsulotlardan biridir.


Ishlatishni turli oblastlarda spetsifikaga bog‘liq xolda keng va turli – tumanligi o‘z navbatida ularni ishlab chiqarish usullarini ham xilma-xilligini taqozo qiladi.

Hozirgi vaqtida spirtlar ishlab chiqarishning asosiy usullari quyidagilardir:

1. Olefinlarni (etilen va propilenni) to‘g‘ridan-to‘g‘ri gidratatsiyasi.
2. Olefinlarni sul’fat kislota yordamida gidratatsiyasi. Ushbu usul bilan etil spiriti va zanjirida  $\text{C}_3$  dan  $\text{C}_4$  gacha bo‘lgan ikkilamchi spirtlar olinadi.
3. Oksosintez usuli. Ushbu usul bilan zanjirida  $\text{C}_4\text{-C}_8$  uglerod atomi bo‘lgan izo-va normal tuzilishga ega bo‘lgan al’degidlar va birlamchi spirtlar olinadi.
4. Alyuminiyorganik birikmalar yordamida birlamchi spirtlarni olish.

### **Etilenni to‘g‘ridan to‘g‘ri gidratatsiya qilib etil spiriti olish texnologiyasi**

Etileni to‘g‘ridan-to‘g‘ri gidrotatsiya qilib etil spiriti ishlab chiqarish printsipial texnologik sxemasi 15- rasmida keltirilgan.



5-rasm. Etilenni to‘g‘ridan-to‘g‘ri gidratatsiyalab etil spirti ishlab chiqarish prinsipial texnologik sxemasi.

### Olefinlarni sul’fat kislota yordamida gidratatsiyasi

1873 yili Butlerov A.M va Goryainov V. lar etilenni sul’fat kislota yordamida gidratatsiyasini batafsil o‘rgandilar. Faqatgina 1939 yili neft gazlaridan etil spirtini olish bo‘yicha birinchi sanoat qurilmasi ishga tushdi.

Xozirgi vaqtida sul’fat kislota usuli va quyi molekulyar olefinlarni (etilen, propilen, butilenlar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri gidratatsiyasi usullar sanoatda quyi spirtlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.


Jarayonning oddiyligi uni yuqori spirtlar ishlab chiqarishda qo‘llash imkonini ochib bergen, biroq xozirgi vaqtgacha sanoatda qo‘llanilmayapti. Sababi – olefinlarni yuqori tozalik darajasida olishning qiyinligi, talaygina miqdorda yonaki mahsulotlarda ko‘p bo‘lmagan miqdorda spirlarni salmog‘i, cheklangan extiyojli ikkilamchi spirlarni hosil bo‘lishidir.

Faqat so‘nggi yillarda neftkimyo sanoati tomonidan olefinlarnni yuqori tozalik darajasida olish usullari (parafinlarni krekingi va degidrogenlash, olefinlarni polimerizatsiyasi) ishlab chiqildi. Boshqa tomondan esa ikkilamchi yuqori yog‘ spirlariga extiyoj vujudga keldi.

## Izopropil spirti ishlab chiqarish texnologiyasi

Propilenni sul'fat kislota ishtirokidagi gidratatsiya usuli texnologik sxemasi 16-rasmida keltirilgan.

Kerakli kontsentratsiyadagi sul'fat kislota 1-absorberni yuqori likopchasiga, quyi likopchasiga esa berilgan bosimgacha avvaldan siqilgan olefinlar yo'naltiriladi. Absorberda alkilsul'fatlar hosil bo'ladi va ularni qisman gidrolizi sodir bo'ladi. Kolonnaning o'rta likopchalaridan 2-nasos yordamida suyuqlikni bir qismi yuqori likopchaga uzatiladi.




6-rasm. Propilenni sul'fat kislota ishtirokida gidratatsiya qilib etil spirti ishlab chiqarish printsipial texnologik sxemasi

### Oksosintez usuli bilan spirtlar olish.

Nemis kimyogari Ryolen tomonidan 1938 yilda karbonillash reaksiyasi ochlib, ko'proq uni oksosintez reaksiyasi deb yuritadilar. Oksosintez reaksiyasi deb, bir vaqtning o'zida uglerod oksidi ( $\text{CO}$ ) va vodorod ( $\text{H}_2$ ) ni olefinga kobalt (katalizator) ishtirokida  $110\text{-}180^{\circ}\text{S}$  temperaturada va 200 at bosimda o'zaro ta'sirlashuviga aytildi. reaksiya natijasida izo- va normal tuzilishdagi to'yingan alifatik al'degidlar hosil bo'lib, ilk olefinga nisbatan bir uglerodi ortiq bo'ladi.

Umumiy holda reaksiyani quyidagicha ifodalash mumkin:



Izo va normal tuzilishga ega o'lgan al'degidlar nisbatan tanlab olingan shart-dharoitlarni o'zlashtirish oqibatida o'zgartirilishi mumkin. Ular keyingi reaksiya – gidrogenizarsiya jarayonida birlamchi izo– va normal spirtlarga aylanadi.

Reaksiya uchun xom ashyo sifatida oxirgi atomida qo'shbog'i bo'lgan asosan izomerlardan tashkil topgan kreking jarayoni a-olefinlari xizmat qiladi.

1. Birinchi bosqichda toksik, yong'in jixatdan xavfli va portlash xavfi bor moddalar (alyuminiy uch etil va yuqori alyuminiy uchalkillar) ishlatalishi;
2. Bir tonna spirt olish uchun alyuminiyni katta sarfi (60-100 kg).
3. Quyi spirtlar – etil, butil spirtlar hosil bo'lishi, ularni ushbu usul bilan olish iqtisodiy yaxshi emas, C<sub>20</sub>-spirtlarga esa barqaror talab yo'q.
4. Bosimni qo'llanilishi jarayonni qimmatlashtiradi.

Biroq, yuqorida sanab o'tilgan hamma kamchiliklarni xom ashyoning arzonligi kompensatsiyalaydi, undan tashqari zanjirida uglerod atomi juft son bo'lgan spirtlar hosil bo'ladi va ularni bir-biridan oson ajratib olish mumkin. Ular asosida biologik to'la parchalanish qobiliyatiga ega bo'lgan sintetik yuvish vositalari olinadi.

### **Ikki atomli spirtlarni olish**


Ikki atomli spirtlardan eng ko'p ahamiyat kasb etgani etilen-(CH<sub>2</sub>OH-CH<sub>2</sub>OH) – va propilenglikol (CH<sub>3</sub>-CHOH-CH<sub>2</sub>OH) lardir.

Ikki atomli spirtlar erituvchi sifatida, sintetik mahsulotlar (lavsan tolasi), antifriz ishlab chiqarishda qo'llaniladi.


### **Etilenglikol' olish usullari**

Etilenglikol' quyidagi usullar bilan olinadi:


1. Dixloretandan:



2. Etilen xlorgidrindan:



3. Etilen oksidini hidratatsiyalab:



Uchinchi usul eng kelajagi porloq usuldirdi; 1- va 2- usullarda xlor katta miqdorda sarf qilinadi va xlor mineral tuz ( $\text{CaCl}_2$ ) ko‘rinishida chiqarib olinadi.

### **3.3. Poliolefinlar va polimerizatsion plastmassalar ishlab chiqarish**

Poliolefinlar va polimerizatsion plastmassalar ikki bog‘li uglevodorodni, ya’ni masalan, etilen, propilen, ayrim boshqa a-olefinlar, stirol, vinilxlorid va boshqalarni polimerizatsiyalab olinadi.

Poliolefinlarni texnik namunalari 15 darn to 600-700 mingtagacha molekulyar og‘irlikka ega bo‘lib, ularda 1000-10000 uglerod atomiga bir qo‘shbog‘ to‘g‘ri keladi. SHuning uchun ushbu birikmalar amalda to‘yingan xarakterga ega.

To‘yinmagan uglevodorodlarni polimerizatsiyasini birinchi bor XIX asming ohirida kuzata boshlangan. Biroq, poliolefinlarni sanoat ishlab chiqarishi II-jaxon urushidan keyin amalga oshirilgan. 1938-40 yillarda angliyada etilenni yuqori bosimda polimerlash imkoniyati borligi ochilgan. Taxminan o’sha davrda Hamdo‘stlik Davlatlarida (RF) ham Dintses A.I raxbarligida laboratoriya sharoitida etilenni yuqori bosimda polimerizatsiyasi imkoniyati o‘rganildi. Birinchi sanoat qurilmalari 1942-43 yillarda paydo bo‘ldi, biroq yuqorida ta’kidlaganimizdek, ommaviy ishlab chiqarish II-Jaxon Urushidan keyin boshlangan. 1955 yilgacha polietilen faqat yuqori bosim qo‘llanilgan jarayonlardagina olingan.

1955-56 yillardan boshlab, ya’ni Tsigler-Natt metallorganik katalizatorlarida polimerlash imkoniyatlari ochilgandan so‘nggina quyi bosim polietilenini ishlab chiqarish boshlangan.

Plastmassalar- bu plastiklik, ya’ni ma’lum temperatura va ma’lum yuklar ta’sirida o‘z formasini o‘zgartirish xususiyatiga ega bo‘lgan materiallardir. Poliolefinlar ham plastmassalarga mutanosibdurlar, biroq ularni ishlab chiqarish faqat neftkimyo xom

ashyosiga asoslanganligi va monomerlar qo'llanilishi sabab, ularni alohida guruhga ajratiladi.

Kapitalistik davlatlarda 1960-1970 yillarda neftkimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish umuman olganda o'sgan holda yuqori molekulyar moddalar ishlab chiqarish 3,6 barobar ko'proq o'sgan (xususan, sintetik tola – 6-7 barobarga, plastmassalar – 3,8 barobarga va sintetik kauchuklar – 2,2 barobarga). 1980 yilga kelib u 1970 yilga nisbatan 3 barobarga oshgan.

Ishlab chiqarish xajmi bo'yicha birinchi o'rinda plastmassalar (yuqori polimerlar umumiyligi ishlab chiqarish ichida 1970 yilda 74% ni, 1980 yilda esa 80%ni tashkil etgan) turadi.

Sintetik kauchuk va tolalarni mahsus, chegaralangan qo'llanilishdan farqli o'laroq, plastmassalar amalda sanoatning hamma sohalarida qo'llaniladi. 80-yillar o'rtalariga kelib butun dunyo bo'yicha plastmassa ishlab chiqarish hajmi bo'yicha po'lat eritish ko'rsatkichiga etib oldi. O'tgan asrning oxiriga kelib butun dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan konstruktsion materiallarning 70%i plastmassalarga to'g'ri keldi.

Plastmassalarni dunyo bo'yicha ishlab chiqarish 1970 yilda deyarli 30 mln tonna, ya'ni 1950 yildagiga (1,5 mln.t) nisbatan 20 barobarga oshgan. Bu esa ushbu davrda plastmassalar ishlab chiqarishni yillik o'sishi 16%ni (umumiyligi kimyo sanoatiniki esa 8,7 %) tashkil qildi.

Asosiy kapitalistik davlatlarda 1970 yilda plastmassa ishlab chiqarish (mln.t) va xar bir davlatni umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi quyida ko'rsatilgan (20-jadval):  
-jadval

| Davlatlar | Ishlab<br>chiqarish | Ulushi |
|-----------|---------------------|--------|
| AQSH      | 8,48                | 28     |
| Yaponiya  | 5,12                | 17     |
| GFR       | 4,33                | 14     |
| Italiya   | 1,73                | 5,8    |
| Frantsiya | 1,52                | 5,1    |
| Angliya   | 1,47                | 4,9    |

Plastmassalar ishlab chiqarishni yillik o'sishi kimyo sanoatini umumiy o'sishidan anchagina ortiqligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

1970-1980 yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'atlari (%da) quyidagi jadvalda keltirilgan - jadval

| Asosiy davlatlar | Kimyoviy maxsulot | Plastmas-salar |
|------------------|-------------------|----------------|
| AQSH             | 7                 | 11             |
| Yaponiya         | 10                | 16             |
| G'arbiy evropa   | 5                 | 12             |

Plastmassalar umumiy ishlab chiqarishning yarmidan ko'pi termoplastlarga to'g'ri kelib, 1980 yilga kelib hajmi 50 mln.t ga etgan.

Hamma kapitalistik davlatlarda poliolefinlar etakchi o'rinni egallaydilar. 1965 yili ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ular polivinilxloridni quvib o'tdilar: Ishlab chiqarish 1960yilda 1,1mln.t dan 1970 yilda 8 mln.t ga va 1980 yilda 30 mln.t ga etdi. Poliolefinlarni sintetik smolalar va plastmassalar umumiy ishlab chiqarishida ulushi 1960 yildagi 16% dan 1970 yili 27% ga, 1980 yili esa 30% gacha oshdi.

Poliolefinlar ichida ishlab chiqarish hajmi bo'yicha birinchi o'rinda yuqori bosimda olinuvchi quyi zichlikdagi polietilen turadi, u 1980 yilda dunyo bo'yicha 17,5 mln.tonna (15 mln.t. polivinilnikiga qarshi) ni tashkil qilgan.

### **Poliolefinlarni ishlab chiqarish**

Hozirgi vaqtida poliolefinlarni quyidagi turlari ishlab chiqariladi:

1. Quyi zichlikdagi polietilen (yuqori bosimli)
2. YUqori zichlikdagi polietilen (quyi bosimli)
3. O'rta bosim polietileni.
4. Polipropilen.
5. Etilen va propilen sopolimerlari.
6. Buten-1, 4-metilpenten-1, amilenlar asosidagi boshqa yuqori polioleflar.

Poliolefinlarga poliizobutilen va butilkauchuklarni ham kiritish lozim, biroq, ushbu polimerlar kauchuksimon hossalariga egaliklari bois, ularni sintetik kauchuklarga kiritadilar.

Hozirgi vaqtida hamma poliolefin turlaridan eng katta ishlab chiqarish hajmini yuqori bosim polietileni egallaydi. Ishlab chiqarilayotgan yuqori va quyi bosim polietilenlarini miqdoriy nisbati – 3:1. Biroq, keyingi paytlarda quyi bosim polietilenini ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan o'smoqda. Ayniqsa, polipropilenni. Bu yaqin keljakda ushbu isbat buzilib, quyi bosim polietileni va polipropileni foydasiga hal bo'ladi.

Poliolefinlar zanjirli jarayonlar mexanizmi bo'yicha polimerlash usuli bilan olinadi. Zanjirli polimerizatsiyada jarayon boshlanishidan avval radikal yoki ion bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori aktivlikka ega bo'lgan oraliq mahsulot hosil bo'lishi lozim. SHunga ko'ra, radikal zanjirli polimerizatsiya va ion zanjirli polimerizatsiyalarni farqlaydilar. So'nggi holda ion zaryadi musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin, shuning uchun ion zanjirli polimerizatsiya kationli va anionlilarga bo'linadi.

Zanjir reaksiyalarning xarakterli o'ziga xos xususiyati –ularning yuqori tezligi va zanjirni o'sish bosqichida etarli katta ekzotermiklikdir. Jarayonning xar bir bosqichida dimer, trimer va shu kabi barqaror mahsulotlar hosil bo'ladigan bosqichli polimerizatsiyadan farqli o'laroq, zanjirli polimerizatsiyada jarayon oxiriga etgunga qadar beqaror makroradikallar yoki makroionlar mavjud bo'ladi.

### **Quyi zichlikdagi (yuqori bosimli) polietilen ishlab chiqarish**

Etilenni yuqori bosimda polimerlash- radikal mexanizm bo'yicha ketuvchi zanjir jarayondir. Reaksiyani initsiatori kisloroddir, biroq peroksidlar ham qo'llanilishi mumkin. Reaksiya katta miqdorda issiqlik ajralib chiqishi bilan boradi.

### **YUqori bosimda etilenni polimerlash jarayoniga ta'sir etuvchi faktorlar.**

Ushbu faktorlar quydagilar:


1. Bosim va temperatura.
2. Kislород miqdori.
3. Reaksiya vaqtı.

2-jadval

## Polietilenni molekulyar og‘irligi bilan reaktsion massadagi kislород miqdori orasidagi bog‘liqlik (R-1500 at, T-230<sup>0</sup>S)

|  |       |       |       |       |                         |
|--|-------|-------|-------|-------|-------------------------|
| Kislородni miqdori, %da                    | 0,01  | 0,04  | 0,07  | 0,13  | 0,16                    |
| Polietilenni o‘rtacha molekulyar og‘irligi | 18000 | 15000 | 12000 | 10000 | Parchala-nish, portlash |


Agarda ilk etilendagi kislород miqdori yanada ko‘proq, masalan, 1-2% ga oshirilsa, bosimni esa 500-600at gacha pasaytirilsa, 300<sup>0</sup>S temperaturada vazelinga o‘xshash mahsulotlar hosil bo‘ladi.



17-rasm. YUqori bosimli polietilen ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi.

1-birinchi kaskad kompressori; 2-ikkinchi kaskad kompressori; 3- reaktor; 4- yuqori bosim ajratgich; 5-kuyi bosim ajratgichi; 6- tsiklonli separator; 7-uch pogonali sovutgich; 8-kaytarma etilenni quruq usulda tozalash kolonnasi.

Bir o‘tishda etilenni konversiyasi yuqori bo‘lmagani bois retsirkulyasiya gazi ulushi 90%ni tashkil etadi.



Glitserinni akroleindan olish usuli istiqbolliroqdir, chunki ushbu jarayonda xlor sarf bo‘lmaydi va ishqor talab qilinmaydi.

### Poliolefinlar va polimerizatsion plastmassalar ishlab chiqarish

Poliolefinlar va polimerizatsion plastmassalar ikki bog‘li uglevodorodni, ya’ni masalan, etilen, propilen, ayrim boshqa a-olefinlar, stirol, vinilxlorid va boshqalarni polimerizatsiyalab olinadi.

Poliolefinlarni texnik namunalari 15 darn to 600-700 mingtagacha molekulyar og‘irlikka ega bo‘lib, ularda 1000-10000 uglerod atomiga bir qo‘shbog‘ to‘g‘ri keladi. SHuning uchun ushbu irikmalar amalda to‘yingan xarakterga ega.

To‘yinmagan uglevodorodlarni polimerizatsiyasini birinchi bor XIX asrning ohirida kuzata boshlangan. Biroq, poliolefinlarni anoat ishlab chiqarishi II-jaxon urushidan keyin amalga oshirilgan. 1938-40 yillarda angliyada etilenni yuqori bosimda polimerlash imkoniyati borligi ochilgan. Taxminan o‘scha davrda Hamdo‘stlik Davlatlarida (RF) ham Dintses A.I raxbarligida laboratoriya sharoitida etilenni yuqori bosimda polimerizatsiyasi imkoniyati o‘rganildi. Birinchi sanoat qurilmalari 1942-43 yillarda paydo bo‘ldi, biroq yuqorida ta’kidlaganimizdek, ommaviy ishlab chiqarish II-Jaxon Urushidan keyin boshlangan. 1955 yilgacha polietilen faqat yuqori bosim qo‘llanilgan jarayonlardagina olingan.

1955-56 yillardan boshlab, ya’ni Tsigler-Natt metallorganik katalizatorlarida polimerlash imkoniyatlari ochilgandan so‘nggina quyi bosim polietilenini ishlab chiqarish boshlangan.

Plastmassalar- bu plastiklik, ya’ni ma’lum temperatura va ma’lum yuklar ta’sirida o‘z formasini o‘zgartirish xususiyatiga ega bo‘lgan materiallardir. Poliolefinlar ham

plastmassalarga mutanosibdurlar, biroq ularni ishlab chiqarish faqat neftkimyo xom ashyosiga asoslanganligi va monomerlar qo'llanilishi sabab, ularni alohida guruhga ajratiladi.

Kapitalistik davlatlarda 1960-1970 yillarda neftkimyo ahsulotlarini ishlab chiqarish umuman olganda o'sgan holda yuqori molekulyar moddalar ishlab chiqarish 3,6 barobar ko'proq o'sgan (xususan, sintetik tola – 6-7 barobarga, plastmassalar – 3,8 barobarga va sintetik kauchuklar – 2,2 barobarga). 1980 yilga kelib u 1970 yilga nisbatan 3 barobarga oshgan.

Ishlab chiqarish xajmi bo'yicha birinchi o'rinda plastmassalar (yuqori polimerlar umumiyligi ishlab chiqarish ichida 1970 yilda 74% ni, 1980yilda esa 80%ni tashkil etgan) turadi.

Sintetik kauchuk va tolalarni mahsus, chegaralangan qo'llanilishdan farqli o'laroq, plastmassalar amalda sanoatning hamma sohalarida qo'llaniladi. 80-yillar o'rtalariga kelib butun dunyo bo'yicha plastmassa ishlab chiqarish hajmi bo'yicha po'lat eritish ko'rsatkichiga etib oldi. O'tgan asrning oxiriga kelib utun dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan konstruktsion materiallarning 70%i plastmassalarga to'g'ri keldi.

Plastmassalarni dunyo bo'yicha ishlab chiqarish 1970 yilda deyarli 30 mln tonna, ya'ni 1950 yildagiga (1,5 mln.t) nisbatan 20 barobarga oshgan. Bu esa ushbu davrda plastmassalar ishlab chiqarishni yillik o'sishi 16%ni (umumiyligi kimyo sanoatiniki esa 8,7 %) tashkil qildi.

Asosiy kapitalistik davlatlarda 1970 yilda plastmassa ishlab chiqarish (mln.t) va xar bir davlatni umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi quyida ko'rsatilgan (20-jadval):

20-jadval

| Davlatlar | Ishlab chiqarish | Ulushi |
|-----------|------------------|--------|
| AQSH      | 8,48             | 28     |
| Yaponiya  | 5,12             | 17     |
| GFR       | 4,33             | 14     |
| Italiya   | 1,73             | 5,8    |
| Frantsiya | 1,52             | 5,1    |
| Angliya   | 1,47             | 4,9    |

Plastmassalar ishlab chiqarishni yillik o'sishi kimyo sanoatini umumiy o'sishidan anchagina ortiqligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

1970-1980 yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'atlari (%da) quyidagi jadvalda keltirilgan (21-jadval):

21-jadval

| Asosiy davlatlar | Kimyoviy maxsulot | Plastmas-salar |
|------------------|-------------------|----------------|
| AQSH             | 7                 | 11             |
| Yaponiya         | 10                | 16             |
| G'arbiy evropa   | 5                 | 12             |

Plastmassalar umumiyl ishlab chiqarishning yarmidan ko'pi termoplastlarga to'g'ri kelib, 1980 yilga kelib hajmi 50 mln.t ga etgan.

Hamma kapitalistik davlatlarda poliolefinlar etakchi o'rinni egallaydilar. 1965 yili ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ular polivinilxloridni quvib o'tdilar: Ishlab chiqarish 1960yilda 1,1mln.t dan 1970 yilda 8 mln.t ga va 1980 yilda 30 mln.t ga etdi. Poliolefinlarni sintetik smolalar va plastmassalar umumiyl ishlab chiqarishida ulushi 1960 yildagi 16% dan 1970 yili 27% ga, 1980 yili esa 30% gacha oshdi.

Poliolefinlar ichida ishlab chiqarish hajmi bo'yicha birinchi o'rinda yuqori bosimda olinuvchi quyi zichlikdagi polietilen turadi, u 1980 yilda dunyo bo'yicha 17,5 mln.tonna (15 mln.t. polivinilnikiga qarshi) ni tashkil qilgan.

### **Poliolefinlarni ishlab chiqarish**

Hozirgi vaqtida poliolefinlarni quyidagi turlari ishlab chiqariladi:

1. Quyi zichlikdagi polietilen (yuqori bosimli)
2. YUqori zichlikdagi polietilen (quyi bosimli)
3. O'rta bosim polietileni.
4. Polipropilen.
5. Etilen va propilen sopolimerlari.
6. Buten-1, 4-metilpenten-1, amilenlar asosidagi boshqa yuqori polioleflar.

Poliolefinlarga poliizobutilen va butilkauchuklarni ham kiritish lozim, biroq, ushbu polimerlar kauchuksimon hossalariga egaliklari bois, ularni sintetik kauchuklarga kiritadilar.

Hozirgi vaqtida hamma poliolefin turlaridan eng katta ishlab chiqarish hajmini yuqori bosim polietileni egallaydi. Ishlab chiqarilayotgan yuqori va quyi bosim polietilenlarini miqdoriy nisbati – 3:1. Biroq, keyingi paytlarda quyi bosim polietilenini ishlab chiqarish tez sur’atlar bilan o’smoqda. Ayniqsa, polipropilenni. Bu yaqin keljakda ushbu nisbat buzilib, quyi bosim polietileni va polipropileni foydasiga hal bo’ladi.

Poliolefinlar zanjirli jarayonlar mexanizmi bo‘yicha polimerlash usuli bilan olinadi. Zanjirli polimerizatsiyada jarayon boshlanishidan avval radikal yoki ion bo‘lishi mumkin bo‘lgan yuqori aktivlikka ega bo‘lgan oraliq mahsulot hosil bo‘lishi lozim. SHunga ko‘ra, radikal zanjirli polimerizatsiya va ion zanjirli polimerizatsiyalarni farqlaydilar. So‘nggi holda ion zaryadi musbat yoki manfiy bo‘lishi mumkin, shuning uchun ion zanjirli polimerizatsiya kationli va anionlilarga bo‘linadi.

Zanjir reaksiyalarning xarakterli o‘ziga xos xususiyati –ularning yuqori tezligi va zanjirni o‘sish bosqichida etarli katta ekzotermiklikdir. Jarayonning xar bir bosqichida dimer, trimer va shu kabi barqaror mahsulotlar hosil bo‘ladigan bosqichli polimerizatsiyadan farqli o‘laroq, zanjirli polimerizatsiyada jarayon oxiriga etgunga qadar beqaror makroradikallar yoki makroionlar mavjud bo‘ladi.


### **Quyi zichlikdagi (yuqori bosimli) polietilen ishlab chiqarish**

Etilenni yuqori bosimda polimerlash- radikal mexanizm bo‘yicha ketuvchi zanjir jarayondir. Reaksiyani initsiatori kisloroddir, biroq peroksidlar am qo‘llanilishi mumkin. Reaksiya katta miqdorda issiqlik ajralib chiqishi bilan boradi.

### **YUqori bosimda etilenni polimerlash jarayoniga ta’sir etuvchi faktorlar.**

Ushbu faktorlar quyidagilar:

1. Bosim va temperatura.
2. Kislород miqdori.
3. Reaksiya vaqtisi.



7-rasm. YUqori bosimli polietilen ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi.

1-birinchi kaskad kompressori; 2-ikkinchi kaskad kompressori; 3- reaktor; 4- yuqori bosim ajratgich; 5-kuyi bosim ajratgichi; 6- tsiklonli separator; 7-uch pogonali sovutgich; 8-kaytarma etilenni quruq usulda tozalash kolonnasi.

Bir o‘tishda etilenni konversiyasi yuqori bo‘lmagani bois retsirkulyasiya gazi ulushi 90%ni tashkil etadi.

### **3.4. Plastmassalar ishlab chiqarish**

Plastmassalar turli-tuman qo‘llaniladi. Xozirgi vaqtida xalq xo‘jaligining xech bir sohasi yo‘qli, u erda plastmassalar ishlatilmagan bo‘lsa –samolyotsozlik va raketa yasashdan tortib, to maishiy buyumlar va meditsina sohasini ham o‘z ichiga oladi.

Plastmassalar o‘ziga xos xossalari tufayli ishlab chiqarishdan traditsion materiallar bo‘lmish qora va rangli metallarni, yog‘och va tabiiy tola hosil qiluvchi materiallar va shu kabilarni tobora siqib chiqarayapti. Bunday almashinish nafaqat yangi xususiyatlari buyumlarni olish, anchagina iqtisodiy afzalliklarga ham ega bo‘lishga olib keladi. Plastmassalar uchun xom ashyo olish va plastmassalarni o‘zini ham ishlab chiqarish anchagina kam mehnat sarflanishi bilan bog‘liq.

Plastmassalarni olishni, kimyoviy reaksiyalarni ketish xarakteriga bog‘liq ravishda, ikki ko‘rinishga bo‘lish mumkin:

- 1) Polimerizatsiya yo‘li bilan olinadigan plastmassalar, ya’ni polimerizatsion plastmassalar.
- 2) Kondensatsiya yo‘li bilan olinadigan plastmassalar, ya’ni kondensatsion plastmassalar.

Polimerizatsion plastmassalar ulushiga umumiyligi plastmassa ishlab chiqarishning 60%ni to‘g‘ri kelib, unga poliolefinlar, polistirollar, polixlorvinil va shu kabilar kiradi. Kondensatsion polimerlarga esa ulushning qolgan 40%ni to‘g‘ri kelib, ularga fenolformal’degid-, poliefir- va shu kabi plastmassalar kiradi.

#### **Polistirol.**


Stirolni polimerlab yoki u asosda olingan plastmassalar ishlab chiqarish umumiyligi hajmining taxminan 18% ini tashkil etadi.

Stirol asosida polimerlar ishlab chiqarishni ko‘rib chiqishdan avval monomerni o‘zini olish haqida qisqacha ma’lumot beramiz.

Stirol olishda ilk xom ashyo sifatida etilbenzol xizmat qiladi, u benzolni etilen bilan alkillab olinadi. Etilbenzolni degidrirlash yangi katalizatorda  $560-580^{\circ}\text{S}$  temperaturada,  $600^{\circ}\text{S}$  da esa biroz ishlatilgan katalizatorda amalga oshiriladi.

Katalizator sifatida magniy yoki temir asosidagi oksidlar boshqa qo'shimcha oksidlar ( $\text{CuO}$ ,  $\text{ZnO}$ ,  $\text{CaO}$  va boshqalar) bilan birga oksidli birikmalar holida ishlataladi. Katalizatorga oz miqdorda kaliy karbonat ham qo'shimcha qilinadi. Jarayon suv bug'i ishtirokida boradi, kaliy birikmasi katalizatorni o'z-o'zidan regeneratsiyalanishiga yordam qiladi. Bu jarayonni 10-12 oygacha katalizatorni regeneratsiya qilmay olib borishga imkon beradi. Etilbenzol degidrirlanganda hosil bo'lgan stirolni salmog'i 70-80% ga etadi.

Asosiy reaksiya – etilbenzolni degidrirlash:



bilan bir qatorda reaksiya mahsulotlarida benzol, toluol va murakkabroq mahsulotlar hosil qiluvchi yonaki reaksiyalar ham ketadi.

Sanoatda stirolni polimerizatsiyasi bir necha usullarda amalga oshiriladi:

- 1) Blokli termik polimerizatsiya;
  - 2) Peroksid birikmalar bilan initsiirlangan emul'sion yoki suspenzion polimerizatsiya;
  - 3) erituvchida initsiirlangan polimerizatsiya;
  - 4) Kompleks metalloorganik katalizatorlar ishtirokida polimerizatsiya.
- Polistirol olishning eng keng tarqalgan usuli termik polimerizatsiyadir.

### **Polivinilxlorid**

Vinilxlorid asosida olingan polimerlar eng ko'p tarqalgandir.

Ilk monomer bo'lmish vinilxlorid bir nechta usullar bilan olinadi: etilenden yoki atsetilenden. Oxirgi usul eng arzon vinilxlorid olish imkoniyatini beradi.


Vinilxloridni polimerizatsiyalash odatda emul'sion polimerizatsiya usuli bilan kaliy persul'fat, vodorod peroksid initsiatorlari ishtirokida olib boriladi, suspenzion polimerizatsiya esa organik peroksidlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Jarayon  $30-60^\circ\text{S}$  temperaturada va 10 at ga yaqin bosimda ketadi. Polivinilxloridni molekulyar og'irligi, polimerizatsiya temperaturasi qancha past bo'lsa, shuncha yuqori bo'ladi.


Polivinilxlorid amorf, o‘ta qattiq material, u uglevodorodlarni galoidli xosilalarida eriydi, oksidlovchilar va kontsentrlangan ishqorlar ta’sirida parchalanadi, ammo kislota va tuzlar ta’siriga chidamli.

### Ftoroplastlar.

Plastmassalarni eng qiziqarli xillaridan va noyob xossalarga egalaridan biri ftoroplastlardir. Ftoroplastlarni olishda ilk monomerlar: tetraftoretilen, uni polimerlab ftoroplast-4 yoki teflon nomi bilan ma’lum bo‘lgan politetraftor etilen olinadi:



uchftorxloretilen, uni polimerlab ftoroplast-3 deb nomlanuvchi poliuchftorxloretilen olinadi:



Polimerlar, odatda, emul’sion usul bilan suvda kaliy persul’fat yoki vodorod peroksid initisiatorlari shtirokida olinadi.

Ftoroplast-4 xira oq material bo‘lib, mumsimon yuzaga ega.

O‘zining tanxo sifatlari: xech bir polimerda mavjud bo‘lmagan yuqori dielektrik xossalari, yuqori kimyoviy chidamlilik va yuqori ( $300^{\circ}\text{S}$  gacha) va quyi ( $-250^{\circ}\text{S}$  gacha) temperaturalarda ish qobiliyatlarini saqlab qolishi turli-tuman qo’llanishlarga olib keladi; ftoroplast-4 ni ijobjiy xususiyatlariga o‘ta quyi ishqalanish koeffitsientiga ega ekanligi, ayniqsa po‘lat yuzada. Bu ftoroplast-4 ni moylash talab qilinmaydigan podshipnik vkladishlarini tayyorlash imkoniyatini beradi.

Ftoroplast-4 ni o‘ta jiddiy kamchiligi sifatida yuk ta’sirida, xattoki odatdagи temperaturada (sovujda oquvchanlik) ko‘tarilib ketgan plastiklikni hamda uni qayta ishlashni qiyinligini ko‘rsatish mumkin.

Ftoroplast-3 ftoroplast-4 ga nisbatan kimyoviy chidamliligi bilan, yuqori va past temperaturada ish qobiliyati bilan bir qancha past keladi. Biroq ftoroplast-3 ayrim afzallikkarga ham ega, ulardan eng boshi  $-250-275^{\circ}\text{S}$  da yopishqoq-oquvchanlik holatga o‘tish qobiliyati bo‘lib, undan bosim va presslab quyish yo‘li bilan buyumlar yasash imkoniyatini beradi.

Ftoroplast-3, shu bilan birga, ikki barobar ortiq mexanik mustahkamlikka va qattiqlikka ham egadir.

**Nazorat savollar:**

- 1.Uglevodorodlarni oksidlab qimmatli mahsulotlardan nimalar olinadi?
2. Poliolefinlarningqanday turlari ishlab chiqariladi?
3. YUqori bosimda etilenni polimerlash jarayoniga qanday faktorlar ta'sir etadi?
- 4.Fenol olishning qanday ussullari mavjud?

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. М. А. Танатаров и др. Технологические расчёт установок переработки нефти. Учебное пособие для вузов. –М, Химия, 2000.-352с.
2. А.Г.Сарданашвили, А.И.Лвова. Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа. Учебноэ пособие .-М., Химия, 2004.-256с
3. А.И.Скобло и др. Процессы и аппараты нефтегазопереработки и нефтехимии. Учебник для вузов.-М.: ООО “Недра – Бизнесцентр”. 2000.-677с

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **1-amaliy mashg‘ulot: Separatorlarni xisoblash va tanlash.**

**O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Gazning kirish va chiqish quvurchalarining diametrini hisoblash.

*Pedagogik vazifalar:*

Amaliy mashg‘ulotni tashkil qilish va boshqarish:

- mavzu va talabalar vazifalari bilan ularni tanishtirish;talabalarni guruhlarga (5-6 kishidan) bo‘lish;ularni motivatsiyalash;moderatorlik vazifasini o‘tash;muzokaralarni tashkil qilishga yo‘llanma berish;talabalar faolligini nazorat qilish va ular erishgan natijalarni baholash.

*O‘quv faoliyati natijalari:*

- ishchi guruhlar hosil qiladilar;ishchi guruh ichida vazifalarni bo‘lishib oladilar va guruh liderini tayinlaydilar;Separatorlar ning ish rejimlarini tahlil qiladilar va aytib beradilar;Filtr separatorlarni hisoblaydilar

Gaz yoki par suyuqlik bilan kontaktda bo‘lsa yoki suyuqlik qavvatidan barbotaj qilib o‘tadigan barcha jarayonlarda odatda gaz va suyuqlikning zichligi har-xil bo‘lganligi uchun ular to‘liq ajralmaydi. Gaz o‘zi bilan suyuqlikni har-xil kattalikdagi zarrachalarini olib ketadi. Suyuqlik zarrachalari muallaq bo‘lgan gaz muhitidan iborat sistema aerozol deb aytildi. Aerozolning zarrachalari odatda sharsimon formada bo‘ladi va har-xil o‘lchamli bo‘lishi mumkin (MKM).


Kondensatsiyada hosil bo‘lgan tomchilar juda (dispers) mayda bo‘ladi. Ularning o‘lchamlari-diametri 0,1-20 mkm. Suyuqlik qavvatidan barbotaj – qaynab chiqqan gazdagi tomchilarning o‘lchamini diametri 10-1000 mkm. Gazning harakati natijasida suyuqlik yuzasidan olib ketilgan tomchini diametri ham shundaydir. Lekin bu tomchilar vaqt o‘tishi bilan bir-biri bilan urilib, qo‘silib katta tomchi hosil qiladi va apparatlarni ichki yuzasiga kelib tushadi. Gaz-suyuqlik oqimini harakat yo‘lini aerozollarni o‘lchamlari bir xil bo‘lgan uchastkalarga bo‘lish mumkin. Texnologik uchastka – texnologik inshootlarni – apparatlarni gazni tayyorlash uchun tanlab olish. Bu

uchastkada aerozollarni dispers tarkibi texnologik apparatlarning tipiga bog'liq (1.1-rasm).

### Separatorlarni sinflash

Hozirgi zamon separatorlarini konstruksiyalarini ishlatish bo'yicha turlicha, lekin ularning ko'pchiligi ishlash prinsipi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: 1) Gravitatsion, 2) Enersion, 3) markazdan qochuvchi 4) Filtr – separatorlar.


SHakliga qarab bosim ostida ishlovchi separatorlar gorizontal, vertikal va sharsimon holida bo'ladi. Bu separatorlarda quyidagi zonalar bor.



1.2-rasm. Separatorlar a) vertikal; b) sferik; v) gorizontal.

1) Gaz, suyuqlik kiruvchi zona; 2) CHo'ktirish zonasi; 3) Asosiy separatsiya zonasi; 4) Suyuqlik yig'uvchi zona; 5) Gaz chiquvchi zona; 6) Oqava suvlarni chiqaruvchi zona.

Ishlash prinsipi: 1-gaz kiradi, 2-filtrga urildi, 3-chiqdi



### Filtr – separatorlar

Gazningsifatiga bo'lgan talabning oshib borishi va gaz tarkibidagi qimmatba xomoddalarni saqlab qolish uchun mayda dispersaerozol (tomchi diametri 0,5-5 mkm) bo'lganda tuman xolidagi namlikni ushlab qolish uchun effektivroq jihozlar ishlab chiqish muammosini oldinga surdi.

SHunga asosan turli maqsadlar uchun mo'ljallangan tolasimon tuman ushlagichlar yaratildi. Tuman ushlagichlarni turlaridan biri bu suyuqlik va mexanik qo'shimchalardan tabiiy gazni o'ta tozalashda ishlatiladigan filtr-separatordir (2-rasm).

Filtr-separatorning farqlanuvchi xususiyati bu unda filtrlovchi bo'limning mavjudligi va uning bir vaqtning o'zida mayda tomchilarni yiriklashtiruvchi xususiyatidir.


Filtrlovchi va yiriklovchi material sifatida ingichka-ip xolidagi shisha-tola xizmat qiladi.

SHisha tolali materiallardagi tomchilarga tasir qiluvchi kuchlar bu-inersiya kuchi, ushlanib qolish effekti va Braun diffuziyasi.

$R=0.1-0.12$  ga teng deb, ( $W_F$ ) gaz tezligidan kelib chiqib tomchini yiriklashtiruvchi nasadkaning kerakli yuzasini aniqlaymiz.

Filtr-separatorning berilgan o‘tkazish qobiliyatiga ko‘ra nasadkaning kerakli yuzasini quyidagicha topiladi.

$$F_{\phi} = \frac{Q_n \rho_0 Z_p T_p}{86400 \rho_p Z_0 T_0 W_{\phi}} \quad (1.1)$$



1.3-rasm. Tabiiy gazni o‘ta tozalashdagi filtr – separator

1-separatsiya kirish zonasi; 2-filtrlovchi bo‘lim; 3-tomchi o‘lchagich; 4-gazning chiqishi; 5-suyuqlik yig‘gich; 6-filtrlovchi patron qobig‘i; 7, 8, 9 - filtrlovchi va tomchilarni yiriklashtiruvchi qatlamlar.

Konstruktiv muloxazalardan kelib chiqqan xolda tomchilarni yiriklashtiruvchi patronning diametrini (50,80,100 mm) qabul qilinadi va ularning kerakli sonini quyidagi formula orqali topiladi.

$$\pi_{\phi} = \frac{F_{\phi}}{\pi d_n l_n} \quad (1.2)$$

bu erda  $d_p$  – patronning diametri.

$l_p$  – patron uzunligi.

Patron uzunligining diametriga bo‘lgan nisbati quyidagicha olamiz.

$$l_p/d_p = 12 \div 15$$

### **Separatorlarni hisoblash va tanlash uchun misollar**

#### **1. MISOL.**

Quyidagi sharoitlar uchun gazning kirish va chiqish quvurchalarining diametrini hisoblang.

Separatorning ishlab chiqarish quvvati 3 mlnm<sup>3</sup>/sut+20-30%, bosim 7,5 mPa, temra 200<sup>0</sup>S, siqlish koef.-ti 0,84.

Ish sharoitida gaz bo'yicha separatorning o'tkazish qobiliyati

$$q = \frac{1,2 Q_H T_p p_0}{86400 (p_p + p_0) T_0} = \frac{1,2 \cdot 3,0 \cdot 10^6 \cdot 293 \cdot 0,84 \cdot 0,1}{(7,5 + 0,1)273 \cdot 86400} = 0,51 \text{ m}^3 / \text{s}$$

2. Gazning tezligi  $W_{qr} = 12 \text{ m/s}$  bo'lganda quvurchaning yuzasi

$$F_{\Pi} = \frac{\pi D_{\Pi}^2}{4} = \frac{q}{W_{\Pi}} = \frac{0,51}{12} = 0,0425 \text{ m}^2$$

bu erdan quvurchaning diametrini topamiz.  $D_p = 230 \text{ mm}$ .

Quvurning diametrini shartli ravishda 250 mm deb olamiz. Gazning haqiqiy tezligi  $W_p = 10,3 \text{ m/s}$ .

## 2.MISOL.

1-misol uchun setkasimon gazning zichligi  $\rho_g = 60 \text{ kg/m}^3$ , kondensatning zichligi  $\rho_s = 750 \text{ kg/m}^3$ , sirt taranglik koeffitsienti  $\sigma = 1,94 \cdot 10^{-3} \text{ N/m}$

Formula orkali setkasimon tomchi ushlagichdagi gazning kritik tezligi

$$W = 0,6^4 \sqrt{\frac{10 \cdot 9,81^2 \cdot 1,94 \cdot 10^{-3} (750 - 60)}{60^2}} = 0,259 \text{ m/s}$$

2. Setkasimon tomchi ushlagichning yuzasi

$$F_c = \frac{q}{W_k} = \frac{0,51}{0,25} = 1,97 \text{ m}^2$$

bu erdan tomchi ushlagich va separatorning diametri  $D = 1580 \text{ mm}$ . Uning kiymatini standart kiymatgacha yaxlitlaymiz.  $D = 1600 \text{ mm}$ .

Gazning haqiqiy tezligi.

$$W_c = \frac{q}{\frac{\pi D_c^2}{4}} = \frac{0,51}{2,02} = 0,252 \text{ m/s}$$

Kritik tezlik  $W_{kr.} = 0,259 \text{ m/s}$  dan kam.  $W_s < W_{kr.}$

## 3. MISOL.

1-2-misol sharoitida patronlar karshiligi va gorizontal suyuklik yig'gich o'lchamlariga filtr-separatordagi patronlar sonini xisoblang.

Formula bo‘yicha tomchi yiriklashtiruvchi nasadkaning yuzasi

$$F_{\phi} = \frac{1,2 \cdot 2,0 \cdot 10^6 \cdot 1,033 \cdot 0,86 \cdot 293}{86400 (75 + 1,033) 273 \cdot 0,517} = 10,1 \text{ m}^2$$

Filtrlash tezligi  $W_f = 0,517 \text{ m/s}$ . Patron diametrini  $d_p = 80 \text{ mm}$ .

$l_p/d_p = 14$  qabul qilamiz va patronlar sonini formula orqali topamiz.

$$n = \frac{E_{\phi}^2}{\pi d_{\Pi} 14 d_{\Pi}} = \frac{10,1}{3,14 \cdot 0,08 \cdot 14 \cdot 0,08} = 35,8; \approx 36$$

$$3. \text{ Patron quvurchalari ichidagi gazning tezligi } W_{\phi,T} = \frac{q}{\pi_{\phi} \frac{\pi d_{\Pi}^2}{4}} = \frac{0,51}{3,6 \cdot 0,785 \cdot 0,08^2} = 2,79 \text{ m / c}$$

$$\text{Koalesirlovchi patronlarning gidravlik qarshiligi } \Delta p_{\phi} = \frac{20 \cdot 2,79^2 \cdot 60}{2} = 4,67 \text{ kPa}$$

## **2-amaliy mashg‘ulot: Gazni temir gidrooksidi eritmasi bilan N<sub>2</sub>S dan tozalash jarayonini hisoblash.**

**O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Temir gidrooksidi eritmasi yordamida gazni N<sub>2</sub>S dan tozalash jarayonini xisoblash.

*Pedagogik vazifalar:*

Amaliy mashg‘ulotni tashkil qilish va boshqarish:

- Tabiiy gaz tarkibidagi nordon komponentlarni tozalash usullarini tushuntirish; Absorbsiya jarayoni gaz tarkibidagi nordon komponentlarni absorbentni erishiga asoslanganligi, bu jarayon gaz tarkibidagi nordon komponentlar ko‘p bo‘lganda qo‘llanilishi.
- O‘quv faoliyati natijalari:
- Ishqor va aminlarni xossalari balan tanishadi. Absorbsiya jarayoni parametrlari va jarayonda qo‘llaniladigan absorbentlar bilan tanishadi.

Tabiiy gazni H<sub>2</sub>S, COS, CS<sub>2</sub>, RSH lardan tozalashda yutuvchini to‘g‘ri tanlab olish asosiy vazifadir. YUTUVCHINI TO‘G‘RI TANLAB OLIB TOVAR GAZ SIFATINI OSHIRISHDAN TASHQARI QURILMALARINI ENERGIYA VA METALLAR SARFINI KAMAYTIRADI, HAMDA GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA YORDAM BERADI.

Gaz tozalash usullarining turlicha bo‘lishiga qaramasdan yutgich barqaror umumiyl talablarga javob berishi kerak:

- 1) YUtuvchi nordon komponentlarni ularni gazdagi miqdori katta interval oralig‘ida bo‘lishiga qaramasdan yuqori yutuvchanlik qobiliyati bo‘lishi kerak.
- 2) YUtuvchini parsial bosimi past bo‘lishi kerak, chunki jarayonda uni yo‘qotish kamayadi.
- 3) Gaz bilan kontakt yaxshi bo‘lishi uchun yutuvchini qovushqoqligi past bo‘lishi kerak.
- 4) Uglevodorodlarda erimasligi kerak.
- 5) Uglevodorod va ingibitorlarga neytral bo‘lishi kerak.
- 6) Korroziyaga aktivligi past.
- 7) Oksidlanish va termik parchalanishga mustahkam.
- 8) Har-xil aralashmalar bilan reaksiyaga kirishmaslik
- 9) Ko‘pik hosil bo‘lishiga barqaror.
- 10) YUtuvchini qaynash harorati barcha komponentlarga nisbatan past bo‘lishi kerak.

Oddiy sharoitda DGA va MDEA dan tashqari barcha to‘rtta aminlar qattiq moddalardir. Aminlarga suv qo‘shilsa ularni qovushqoqligi pasayadi, eritmani qaynash harorati ham pasayadi va jarayon nisbatan past haroratda olib boriladi.

### **Gazlarni tozalash**

Aminlar markazdagi azot atomini alkil radikallar bilan joylashish darajasiga qarab birlamchi monoetanol amin, diglikolamin; ikkilamchi – dietanolamin metildietanolamin va uchlamchilarga bo‘linadi. Aminlar 3 tipdagi funksional guruhga ega. Bu guruhlarni aminlarga tasiri quyidagicha tavsiflandi.


1. metil guruhlarning sonini ortishi. Aminlarning uglevodorodlarda eruvchanligini orttiradi va suvdagi eruvchanligini pasaytiradi.

2. Oksi-guruuhlar – eritma ustidagi aminlarni to‘yingan parlarini bosimini pasaytiradi. Ularning molekuladagi sonini ortishi aminlarning suvda erishini ko‘paytiradi va uglevodorodlardagi erishini pasaytiradi.

3. Amino-guruuhlar – ularni suvli eritmalariga ishqoriy muhit beradi, uglevodorodlarni aminlarda erishiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

YUqorida keltirilganlarga xulosa qilib, shuni aytish mumkinki dietanolamin boshqa yutuvchilarga nisbatan yuqori tanlovchanlikka ega, chunki unda 2 ta oksi guruuh hamda 4 ta metilen guruhi bor. Monoetanolamin va diizoprapanolamin-larni eruvchanligi bir-biriga yaqin. Diglikolamin – 1 ta oksi va 4 ta metilen guruhgaga ega. SHuning uchun uglevodorodlarga yaqin va ularga nisbatan tanlovchanligi kam. Gazlarni N<sub>2</sub>S va SO<sub>2</sub> dan tozalash quyidagi xususiyatlarga asoslangan. N<sub>2</sub>S va SO<sub>2</sub> suvda eriganda disotsiyalanib kuchsiz kislota hosil qiladi. Aminlar esa kuchsiz asosdir. Aminlar nordon gazlar bilan reaksiyaga kirishganda tuzlar hosil bo‘ladi va shuning hisobiga gazlar tozalanadi. Hosil bo‘lgan tuzlar yuqori haro ratda tez parchalanib ketadi

Monoetanolamin uchun bu reaksiyalar quyidagi tenglamalar bilan tushuntiriladi.



Le-SHatele prinsipiiga asosan haroratni pasayishi <sup>R - HO - CH<sub>2</sub> - CH<sub>2</sub></sup> va bosimning ortishi 1-5 reaksiyalarni to‘g‘ri yo‘nalishda borishini ta’minlaydi va aksincha haroratni ortishi va bosimning pasayishi reaksiyani teskari yo‘nalishda borishiga yordam beradi. Ko‘rsatilgan reaksiyalar issiqlik chiqishi bilan boradi.

### **Tabiiy gazni monoetanolaminni suvli eritmasi bilan tozalash**

Tabiiy gazni etanolaminni suvli eritmasi bilan tozalash – bu xemosorbsiya jarayonidir. Bu jarayon sanoatda keng qo‘llaniladi. Aminlarni suvli eritmalarda ishlatiladigan qurilmalarini amin qurilmalar deyiladi. Amin qurilmalari kompakt, ishlatishga qulay, gazni tarkibini o‘zgarishiga deyarli tasir etmaydi. Gazni N<sub>2</sub>S va SO<sub>2</sub>



dan monoetanolaminning suvli eritmasi bilan tozalaydigan eng katta qurilmalar Muborak – gazni qayta ishlash zavodida ekspluatatsiya qilinadi.

Tabiiy gaz tarkibidan ajratib olingan oltingugurt sanoatda sulfat kislotani olishda, rezina sanoatida va qishloq xo‘jaligida zararkunanda hashoratlarga qarshi ishlatiladi. Oltingugurni metallar bilan hosil qilgan tuzlari, masalan: natriy sulfid  $\text{Na}_2\text{S}$  teri sanoatida ishlatiladi. Agarda gazni tarkibida vodorod sulfidni miqdori 1,0% dan yuqori bo‘lsa aminlar bilan tozalanadi. Kichik sexlarda  $\text{H}_2\text{S}$  ni miqdori kam bo‘lsa ishqor yoki soda bilan tozalanadi.

### **Gazlarni adsorbsiya usuli bilan tozalash**

Adsorbsiya usuli gaz aralashmasidagi zararli komponentlarni oltingugurt birikmalarini saylab yutishga asoslangan. Bunda oltingugurt birikmalarini chiqarib olish elementar oltingugurtgacha oksidlاب yoki oddiy adsorbsiya usuli bilan ajratib olish mumkin. Fizik adsorbsiya jarayoni  $\text{H}_2\text{S}$  ni gaz (oqimidan) qattiq yutuvchi modda bilan selektiv adsorbsiyalashga asoslangan. Masalan, seolitlar bilan. Bu usulning afzalligi shundaki  $\text{H}_2\text{S}$  bilan bir vaqt ni o‘zida seraorganik birikmalar va suv parlari ham yutiladi. Adsorbsiya usuli bilan tozalash qurilmasi SHo‘rtangaz gazni qayta ishlash zavodida qo‘llanildi.

Monoetanolamin uchun bu reaksiyalar quyidagi tenglamalar bilan tushuntiriladi.



2.1 rasm.Tabiiy gazni H<sub>2</sub>Sdan adsorbsiya usuli bilan tozalash qurilmasini sxemasi.

Absorbsiya R=5,5 MPa t=25-40<sup>0</sup>S da olib boriladi. Har bir reaktorga 75 tonna seolit solinadi.

Adsorbsiya- usulida tabiiy gazda 1% gacha N<sub>2</sub>S bo‘lganda qo‘llaniladi.

### **Gazlarni N<sub>2</sub>S va SO<sub>2</sub> dan tozalash usullari**

Kazib chiqarilayotgan tabiiy gazlarda uglevodorodlardan tashqari karbonat angidrid, vodorod sulfid va boshqa seroorganik birikmalar bo‘ladi. Karbonat angidridni gazdagi miqdori 0,1% dan bir qancha % gacha bo‘lishi mumkin. Lekin uglevodorodlar gazni transportirovka qilinganda xalaqit bermaydi, faqat gazni issiqlik effektini kamaytiradi. Agarda geliy ajratib olinadigan bo‘lsa SO<sub>2</sub> to‘liq tozalanishi kerak. Tozalanmasa -72<sup>0</sup>S da quruq muz xosil qiladi. Tozalanmasa trubalarda tiqilib qoladi.

### **Karbonat yordamida tozalash**

Tarkibida kamida 10% SO<sub>2</sub> bulgan gazlarni tozalash uchun kuyidagi usul keng qo‘llaniladi.

Bosim ostida yuqori tem-radagi kaliy karbonat eritmasi orqali tozalash usuli.

Bu jarayon quyidagi reaksiya orqali olib boriladi;



Sxema bo‘yicha gaz absorberga 107<sup>0</sup>S temperaturada etib keladi. Gaz absorberda qaynoq eritma bilan isitiladi yoki absorberdan oldingi gaz issiqlik almashtirgichida isitiladi. Absorber K<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> ning 30-40% konsentratsiyali eritmasi bilan sug‘oriladi bunda SO<sub>2</sub> yutilishi hisobiga 1,19 mJ/m<sup>3</sup> issiqlik ajralib chiqadi, buning natijasida absorberdan chiqishda temperatura bir muncha ko‘tariladi. Absorberdagи aralashma o‘z bosimi bilan desorberga kelib tushadi, bunda atmosfera bosimigacha kamayib SO<sub>2</sub> ajralib chiqadi.

SO<sub>2</sub> ning ajralib chiqishi uchun kerak bo‘lgan issiqlik desorberning quyi qismi bilan bog‘langan bo‘g‘iq bug‘.

Nasos orqali 107-110<sup>0</sup>S temperaturada regeneratsiya qilingan eritma absorberga beriladi.

Desorberda ajralib chiqqan suv bug'i sovitilganda kondensirlanadi va flegma hamda yig'gich orqali nasos yordamida desorberga qaytariladi va SO<sub>2</sub> atmosferaga chiqib ketadi.

(SO<sub>2</sub> yoki ishlatiladi, quruq muz hamda reagent gaz balonlarga ishlatish mumkin).

Kaliy karbonatning qaynoq eritmasi tabiiy gazni SO<sub>2</sub> va N<sub>2</sub>S dan tozalashda ham ishlatish mumkin.



## 1. MISOL

Temir gidroksidi eritmasi yordamida gazni N<sub>2</sub>S dan tozalash jarayonini xisoblang.

Gazning xajmi 1·106 m<sup>3</sup>/sut. Tozalangan gazdagi N<sub>2</sub>S ning miqdori 0,4%. Tozalash bosimi 6,5 MPa, temperatura 35<sup>0</sup>S.

Gazni tozalash to‘g‘ri oqimli nasadkali apparatda olib boriladi.

Tozalash jarayonida quyidagi reaksiya ketadi.



Tozalash jarayonining sarfiy koeffitsientlari yuqorida berilgan tenglama asosida 1 kg ajratib olinayotgan N<sub>2</sub>S (vodorod sulfidga) nisbatan olinadi.

$$\frac{g_{Fe(OH)_3}}{g_{H_2O}} = \frac{214}{102} = 2,10 \text{ кг / кг H}_2S$$

temir sulfidga nisbatan sarfiy koeffitsienti.

$$\frac{g_{Fe_2S_3}}{g_{H_2O}} = \frac{208}{102} = 2,04 \text{ кг / кг H}_2S$$

Suv bo‘yicha sarfiy koeffitsienti.

$$\frac{g_{H_2O}}{g_{H_2S}} = \frac{208}{102} = 2,06 \text{ кг / кг H}_2S$$

Ishlov berilgan gazga nisbatan sarfiy koeffitsienti.

$$\frac{g_{H_2O}}{g_{H_2S}} = \frac{1000}{C_{H_2S}} = \frac{1000}{6,07} = 164,74 \text{ м}^3 / \text{кг H}_2S$$

bu erda C<sub>H<sub>2</sub>S</sub> = 6,07 г / м<sup>3</sup> – tozalanayotgan gazdagi H<sub>2</sub>S miqdori.

YUtvuchi eritmalar sarfini aniqlaymiz.

Gazni tozalash uchun kerak bo‘lgan temir gidrooksidi miqdori quyidagi tenglama yordamida xisoblanadi.

$$g_{Fe(OH)_3} = \frac{Q_r}{g_r} \cdot g_{Fe(OH)_3}$$

$Q_g - 1$  soatdagi tozalangan gazning sarfi.

$$g_{Fe(OH)_3} = \frac{41667}{164,74} \cdot 2,1 = 531,14 \text{ кг / с}$$

Suvli eritmadagi temir gidrooksidi konsentratsiyasini  $g_{Fe(OH)_3} = 20 \text{ кг / м}^3$  deb

qabul qilamiz.

Berilgan konsentratsiyali yutuvchi eritmaning konsentratsiyasini quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi.

$$Q_{1p} = \frac{g_{Fe(OH)_3}}{C_{Fe(OH)_3}} (1)$$

$$Q_{1p} = \frac{531,14}{20} = 26,6 \text{ м}^3 / \text{сам} \quad (2)$$

Temir oksidining 50% ortiqcha olgan holda yutuvchi eritmaning sarfi quydagiga teng bo‘ladi:

$$Q_p = Q_{1p} \cdot 1,5 = 26,6 \cdot 1,5 = 39,9 \text{ м}^3 / \text{сам} \quad (3)$$

Havo kislороди bilan ishlov berib, eritma reginiratsiya qilinadi.



$$2 \cdot 208 = 416 \text{ kg} \quad 22,4 \cdot 3 = 67,2 \text{ м}^3 \quad 6 \cdot 18 = 108 \text{ kg}$$

$$g_{Fe_2S_3} V_{O_2} g_{H_2O}$$

Regeneratsiya jarayoni sarfiy koeffitsientlari 1 kg ajratib olinayotgan  $\text{N}_2$  ga nisbatan ko‘rsatilgan reaksiya bo‘yicha xisoblanadi.

Kislород bo‘yicha sarfiy koeffitsient.

$$V_{O_2} = g_{Fe_2S_3} \cdot \frac{67,2}{416};$$

$$V_{O_2} = 2,04 \frac{67,2}{416} = 0,329 \text{ м}^3 / \text{кгH}_2\text{S}.$$

Havodagikislorodkonsentratsiyasi  $\text{SO}_2$  = 21%  
 liginihisobgaolganholdaxavobo‘yichasarfiykoeffitsienti.

$$V_{xavo} = V_{O_2} \cdot \frac{100}{21}$$

$$V_{xavo} = 0,329 \cdot \frac{100}{21} = 1,57 \text{ m}^3/\text{kg H}_2\text{S}$$

YUtuvchi eritmani regeneratsiya qilish uchun xavoning nazariy sarfi.

$$Q_{xaeo} = V_{xaeo} G_{H_2S}$$

Bu erda  $\text{GH}_2\text{S}$  ajratib olinayotgan vodorod sulfid miqdori.

$$G_{H_2S} = 252,9 \text{ kg/soat}$$

$$Q_{xavo} = 1,57 \cdot 252,9 = 397 \text{ m}^3/\text{soat.}$$

Tozalash apparatlarining asosiy konstruktiv o‘lchamlari.

Gazlarni vodorod sulfiddan tozalash to‘g‘ri oqimli nasadkli absorberlarda olib boriladi. Tozalash apparatlarining balandligi (massa peredacha) – massa uzatish tenglamasi yordamida aniqlanadi. Uzatish birligi sonini quyidagi tenglama yordamida topiladi.

$$m = 2,3 \lg \cdot \frac{C_{H_2S}}{C_{H_2}}$$

bu erda  $C_{H_2S}$  – OST 51.40-74 talabiga binoan, tozalangan gaz tarkibidagi vodorod sulfidning miqdori.

$$m = 2,3 \lg \cdot 6,07 / 0,02 = 2,3 \lg 303,5 = 2,3 \cdot 2,481 = 5,7$$

Rashig halqasi nasadkali apparatlari uchun uzatish birligi balandligi 1,5m.

$$25,0 \cdot 25,0 \cdot 1,5h = 1,5 \text{ m.}$$

Tozalash apparatlarining umumiyl balandligi.

$$H = mh$$

$$H = 5,7 \cdot 1,5 = 8,6$$

Umumiyl balandligi N = 10m.

Tozalash apparatlarining diamektrini, gaz tezligini apparatning umumiyl qirqimida bo‘lgan sharoitda xisoblaymiz.

$$W_g = 0,5 \text{ m/s}$$

Apparatning qirqim yuzasi quyidagi formuladan xisoblanadi.

$$F = \frac{Q_{\Gamma} P_0 T Z}{W_{\Gamma} p T_0};$$

$$F = \frac{41667 \cdot 0,1033 \cdot 308 \cdot 0,92}{3600 \cdot 0,5 \cdot 6,5 \cdot 273} = 0,38 \text{ m}^2$$

Tozalash apparatining diametri quyidagi tenglama yordamida aniqlaymiz

$$D \sqrt{\frac{F}{0,785}} = \sqrt{\frac{0,38}{0,785}} = \sqrt{0,484} = 0,7 \text{ m}$$

Sirkulyasion nasoslarning quvvati.

Sirkulyasion nasoslarning yig‘ma elektr quvvatini quyidagi tenglama asosida aniqlaymiz.

$$N = \frac{Q_p \rho_p H_c}{3600 \cdot 102 \eta}$$

bu erda N – nasos quvvati kVT,  $Q_p$  – 1 soatdagi aralashma sarfi,  $\text{m}^3/\text{s}$ ,  $\rho_p$  – eritma zichligi,  $N_s$  – nasos yordamida yaratilgan litr xisobida suyuqlik ustunining to‘la bosmi.

$$R_R = 1100 \text{ kg/m}^3, N_s = 715.$$

$\eta$ - nasosning foydali ish koeffitsienti (FIK)

$$\eta = 0,85$$

$$N = \frac{39,9 \cdot 1100 \cdot 715}{3600 \cdot 102 \cdot 0,85} = 100,5 \text{ kBT}$$

### **3-amaliy mashg‘ulot: Tabiiy gazni quritish jarayonini hisoblash**

**Amaliy mashg‘ulotining maqsadi:** Asosiy apparat va jixozlarni hisoblash.

#### **Vazifalar:**

Amaliy mashg‘ulotni tashkil qilish va boshqarish:tabiiy gazni quritishda quritish usulini tanlab olish;absorbentni tanlab olish va shudring nuqtasini aniqlash.

#### *O‘quv faoliyati natijalari:*

- gazni quritishni faolligini qanday kriteriya ga bog‘liqligi;absorbentlarga qo‘yilgan talablarni bilishi

Gaz qatlam sharoitida suv parlari bilan to‘yingan holda bo‘ladi. Gazni qazib chiqarishda texnologik sxemalar bo‘yicha qayta ishlash vaqtida termodinamik sharoitlar, harorat, bosim o‘zgaradi va natijada suv parlari kondersirlanadi. Hosil bo‘lgan suv tomchilari gazni tayyorlash qurilmalarining texnologik tizimlarini ishini buzadi va uni uzoq masofaga magistral truboprovodlar orqali tashishni qiyinlashtiradi. Bunga asosiy sabab tabiiy gazni suv bilan gidrat hosil qilishidir. Buni klatrat deyiladi. U muzsimon modda bo‘lib gidrat probkalarini hosil qiladi. Gidratlar quvurlarda tiqin hosil qiladi Buning natijasida kompressorlar ishdan chiqadi. SHuning uchun tabiiy gazni magistral quvurlarga berishdan va past haroratda qayta ishlashdan oldin quritiladi. Kuritish usulini tanlab olish aniq maqsadga va sharoitga bog‘liq. Bularga gazni tarkibi, quritish darajasi, quritilgan gazning tarkibi kiradi. Gaz quritishda suv yutadigan, qattiq va suyuq sorbentlar ishlatiladi, yani adsorbentlar va absorbentlar ishlatiladi. Ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. YUqori darajada namlikni yutishi kerak, yani yutuvchi massasi va hajmi birligiga nisbatan ko‘p namlik yutishi kerak.
2. Uzoq vaqt xizmat qilishi kerak.
3. Arzon va olinishi qulay bo‘lishi kerak.

SHu ko‘rsatilgan sifatlarga aktiv alyuminiy oksidi, seolit, suyuq moddalardan – di va tri etilenglikollar kiradi. Neftni qayta ishlash korxonalarida odatda tabiiy gaz suyuq usul bilan tozalanganda dietilenglikol ishlatiladi. Dietilenglikol bilan tozalanganda

shudring nuqtasi  $-20^{\circ}\text{S}$ ga tushadi. Aktiv alyuminiy oksidi bilan quritilganda shudring nuqtasi  $-70^{\circ}\text{S}$ ga, seolit bilan quritilganda  $-75^{\circ}\text{S}$  ga etadi.

### **Tabiiy va yo'ldosh gazlarning tarkibidagi namlik miqdori**

Gaz tarkibidagi namlik miqdori (kg) deb nam gaz tarkibidagi namlik miqdorining quruq gaz miqdori nisbatiga aytildi.

Absolyut namlik – nam gazdagi suv bug‘ining parsial bosimining kattaligi ( $P_n$ ). Ba’zida absolyut namlik deb,  $1\text{m}^3$  nam havo tarkibidagi suv bug‘ining massasiga aytildi. U bu ikki kattalik son jihatidan – suv bug‘ining parsial bosimi millimetr simob ustunida va suv bug‘ining massasi (grammda)  $1\text{ m}^3$  nam gazda deyarli bir-biriga teng,  $16,5^{\circ}\text{S}$  haroratda esa qat’iy bir-biriga teng.

Gazning nisbiy namligi deb, gaz aralashmasidagi suv bug‘ining, mazkur hajmda o’sha haroratdagi to‘yingan bug‘ massasi munosabatiga aytildi, va  $\varphi$  bilan belgilanadi.

SHuningdek  $\varphi$  ni, nam gaz tarkibidagi suv bug‘ining parsial bosimini shu haroratdagi suv bug‘ining bosimining nisbati ko‘rinishida ham ifodalash mumkin.

$$\varphi = \frac{P_n}{P_s}$$

$\varphi$  kattaligi odatda % ko‘rinishida ifodalanadi.  $0 \leq P_n \leq P_s$  bo‘lgani uchun, unda  $0 \leq \varphi \leq 100\%$ . Absolyut quruq gaz uchun  $\varphi = 0$ , to‘yingan gaz uchun  $\varphi = 100\%$ .

Mazkur gaz aralashmasidagi suv tomchisi hosil bo‘ladigan harorat shudring nuqtasi deb ataladi. Havoga qaraganda uglevodorodli gazlarda namlik yuqori, lekin harorat oshishi bilan bu farq kamayib boradi. Nisbiy zichligi 0,6 tarkibidagi azot bo‘lmagan, chuchuk suvgaga to‘yingan har-xil harorat va bosimdagi tabiiy gazni namligi berilgan.

Gaz namligining kattaligi, uning uglevodorodli tarkibiga bog‘liq: gaz tarkibidagi og‘ir uglevodorodlar qancha ko‘p bo‘lsa, namlik shuncha past bo‘ladi. Tabiiy gaz tarkibida  $\text{H}_2\text{S}$  va  $\text{SO}_2$  ning bo‘lishi namlikni oshiradi, azot esa kamaytiradi.

Nisbiy zichligi 0,6 dan farq qiladigan gaz namligini aniqlash uchun, zichlikka K tuzatishni kiritish zarur (rasm 3.1 ga qarang).

$$K_1 = \frac{W}{W_{0,6}}$$

Bu erda:  $W$ ,  $W_{0,6}$  – mos ravishda tekshirilayotgan gaz va zichligi 0,6 bo‘lgan gaz. Suvda ( $\text{NaCl}$ ,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{MgCl}_2$ ) erigan tuzlarining bo‘lishi suv bug‘i parsial bosimini pasaytiradi, shu bilan birga gazni namligi ham pasayadi.

Tuzlilik ( $K_2$ ) ga tuzatish koeffitsienti quyidagi munosabatda bo‘ladi.

$$K_2 = \frac{W_s}{W}$$

Bu erda:  $W_s$  – tuzli suv bilan kontaktda bo‘lgan gazning muvozanat namligi.

Gaz tarkibidagi namlik miqdorini quyidagi ifodadan foydalanib aniqlash mumkin:

$$W = \frac{A}{P} + B$$

Bu erda:  $A$  ideal gaz tarkibidagi kam miqdorga teng bo‘lgan koeffitsient;  $R$  – gaz bosimi;  $V$  – gaz tarkibiga bog‘liq koeffitsient.

### **To‘yingan yutuvchi sorbentlarni regeneratsiyalash orqali gazni quritishning fizik asoslari**

Tabiiy va neftli gazdan namni ajratib olish absorbsiya yoki adsorbsiya orqali amalga oshiriladi.

Absorbsiyali quritishning afzallik taraflari quyidagilar:

- Sistemada bosim ko‘tarilishining pastligi;
- Kapital va foydalanish harajatlarini kamligi;
- Sorbentlarni zaharlovchi moddalar saqlovchi gazlarni quritish imkoniyatlari mavjudligi.

Absorbsiya – bu suyuqlik yutgichlar yordamida gazli yoki bug‘li aralashmalardan gaz yoki bug‘ning yutilish jarayoni.

Vaqtga bog‘liq bo‘lgan massa uzatishning asosiy tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega.

$$dM = K_m \Delta dF d\tau$$

Bu erda:  $dM$  – modda miqdori;  $K_m$  – massa uzatish koeffitsienti;  $\Delta$  – massa almashinuv jarayonining harakatlanuvchi kuchi;  $dF$  – fazalar orasidagi sirt kontakti;  $d\tau$  – vaqt.

Gaz fazasiga tegishli bo‘lgan, massa uzatishning umumiy koeffitsienti quyidagiga teng.

$$K\gamma = \frac{1}{\frac{1}{B\gamma} + \frac{K}{B\chi}}$$

Suyuq fazaga


$$K\chi = \frac{1}{\frac{1}{K} - \frac{1}{B\chi}}$$

Bu erda:  $B\chi B\gamma$  – mos ravishda suyuq va gaz fazalarning massa uzatish koeffitsientlari.

Hozirgi vaqtida tabiiy va neftli gazni absorbsiyali quritish uchun asosan dietilenglikol (DEG) va trietilenglikol (TEG) ishlataladi.

Boshqa suyuq yutuvchilar, masalan, propilenglikol, metanol, tetraetilenglikol va boshqalar yuqori gigroskopiklikka ega bo‘lsa ham keng qo‘llanilmaydi.

Glikollar – rangsiz yog‘li suyuqliklar. Quritish bosqichidan keyin, ishlatalgan suyuq quritgichlar ozmi, ko‘pmi darajada namga to‘yinadi. Ularni qayta ishlatishdan oldin, regeneratsiya bosqichidan o‘tkazish kerak.



To‘yingan absorbent regeneratsiyasi deb, yutilgan moddalarning absorbentdan yo‘qotish jarayoniga aytildi, quritish jarayonidagi yutilgan komponent suv bug‘idir.

Glikollar regeneratsiyasi atmosfera bosimida olib boriladi va ularning konsentratsiyasini 96-97% gacha etkazish imkoniyatini beradi. YUqori konsentratsiyaga erishish uchun, regeneratsiyaning maxsus usullarini qo'llash zarur. Bunaqa usullarga, vakuum ostidagi regeneratsiya va namlangan gaz tozalashni azeotrop regeneratsiyasi kiradi.

3.1-rasm. Suv-gaz sistemasida suv bug'larining muvozanatli miqdori.

### **Asosiy apparat va jixozlar va ularni xisoblash**

Tabiiy gazni glikollar bilan quritish qurilmalari quyidagi asosiy apparatlardan iborat; absorber, issiqlik almashtirgichlar,sovutgichlar, shamollatgichlar, desorber va oralik sig'imlar:

Absorber: Bu massaalmashinish kolonnalari bo'lib, nasadka qavatli yoki dumaloq qalpoqchali tarelkalardan iborat yoki S- shaklli, tarelkalarda suyuqlik satxini doimiy ta'minlovchi elementlardan tashkil topgan.


Gazni quritish qurilmalaridagi absorberning texnologik xisobida asosan tarelkalar soni, eritma miqdori, boshlang'ich va oxirgi konsentratsiya, apparat diametri va tarelkalar konstruksiyalarini aniqlash zarur. Gazni quritish darajasi, jarayonning xarorat va bosimini, gaz kuvurlarning ishlash shartlaridan kelib chiqqan xolda belgilanadi. Xisoblar uchun absorbsiya jarayonining xarorati kalonna balandligi bo'yicha doimiy va gazni kirish paytidagi xaroratga teng bo'lib, absorberga kelayotgan gazning massaviy issiqlik sig'imi, berilayotgan glikolning issiqlik miqdoridan ancha ortiq.

Quritilayotgan gazning talab etilgan shudring nuqtasi va gaz xarorati 3.2 rasm bo'yicha quritishga berilayotgan glikolning konsentratsiyasi aniqlanadi.

3.1. rasmdan foydalanib berilgan bosim va xaroratdan absorberga kirishi va chiqishidagi gazning namligi topiladi. Berilgan shudring nuqtasigacha gazni quritish uchun kerak bo'lgan, regeneratsiya qilingan glikolning miqdori  $Q$  quyidagi formula bo'yicha topiladi;

$$Q = \frac{W_{x_2}}{x_1 - x_2}$$

Bu erda  $W$ -ajratib olinayotgan namlik miqdori:  $x_1, x_2$  –regeneratsiyalangan va to'yingan eritmaga mos keluvchi glikolning massaviy konsentratsiyasi.



3.2-rasm. Kontakt haroratlar har-xil bo‘lganda DEG (a) va TEG (b) eritmalarining suv bo‘yicha muvozanatlari shudring nuqtasi.

Absorberdagagi tarelkalar sonini quyidagi grafik usulidan foydalanib aniqlaymiz. x-y koordinatasida egri va operativ chiziq quramiz. Operativ chiziq absorberning material balansi bo‘yicha aniqlanadi.

$$V(y_1 - y_2) = L(x_1 - x_2)$$

Bu erda  $V$ ,  $L$  – vaqt birligida kalonnaning kesimi orqali keluvchi quruq gaz va glikolga mos keluvchi mollar soni;

$y_1, y_2$  -bir molga mos gazning kirish va chiqishdagi suvning mollar soni;  $x_1, x_2$  – 1 molga mos glikolning kirish va chiqishdagi suvning mollar soni.

Operativ chiziq to‘g‘ri bo‘lib, uni kurishda ikki nuqta etarli, biri gazga kirib kelayotgan namlik  $y_1$  va chiqayotgan glikol  $x_1$  lar namlik konsentratsiyasiga mos, ikkinchisiga esa- chiqayotgan gaz  $y_2$  va kirib kelayotgan glikol  $x_2$  - namlik konsentratsiyasiga mos. Egri chizik quyidagicha quriladi. Bunda glikolning turli konsentratsiyasi beriladi va ishchi xaroratdagi kontaktda 3.2 rasmdan foydalanib qabul qilingan konsentratsiyasidagi glikolning shudring nuqtasi topiladi.

So‘ng namlik miqdori grafigi bo‘yicha aniqlangan shudring nuqta uchun gazdagi suv parlarining miqdori (3.1) rasmdan aniqlanadi. Gaz va glikolning namligi mollar konsentratsiyasida xisoblanib, x-y koordinatalarida egri chizik orasidan  $x_1y_1$ ,  $x_2y_2$  nuqtalari va siniq chiziqni qo‘ramiz, bunda nazariy tarelkalar soni  $N_t$ , qavatlar soniga mos.

Ishchi tarelkalar soni quyidagicha

$$N_{ishchi} = N_t / \eta$$

Buerdah-k.p.d. tarelkalar.

Absorberning diametriga ko‘ra tarelkalar orasidagi masofa quyidagicha

| D,m     | H, mm   |
|---------|---------|
| 0,8     | 200-350 |
| 0,8-1,6 | 350-400 |
| 1,6-2,0 | 400-500 |
| 2,0-2,4 | 500-600 |
| 2,4     | 600     |

### 3.3-jadval

| Tarelkalar<br>masofa, mm | Turli gidravlik zatvordagi o‘lchamlar K <sub>v</sub> /mm |           |           |       |
|--------------------------|--|-----------|-----------|-------|
|                          | 13   | 25        | 51        | 76    |
| 152                      | 0,02-0,04  | -         | -         | -     |
| 305                      | 0,09-0,11  | 0,07-0,09 | 0,05-0,07 | -     |
| 457                      | 0,15   | 0,14      | 0,12      | 0,09  |
| 610                      | 0,185  | 0,17      | 0,16      | 0,15  |
| 762                      | 0,195  | 0,185     | 0,18      | 0,175 |
| 914                      | 0,205  | 0,195     | 0,19      | 0,185 |

Absorberdag'i gazning ruxsat etilgan maksimal tezligini quyidagicha aniqlanadi.

$$V_{max} = 0.305 K_V \sqrt{\frac{\rho_{\text{ж}} - \rho_{\text{п}}}{\rho_{\text{п}}}}$$

Bu erda  $\rho_{\text{ж}}, \rho_{\text{п}}$  – ishchi sharoitdagi suyuqlik va parning zichligiga mos:  $K_V$  – emperik konstanta, III.3 jadvalda keltirilgan.

0,305- ko‘chirish koeffitsienti.

Absorberdag'i xisobiy tezlikni asosan maksimal ruxsat etilganga ko‘ra 0,8-0,85 ga teng deb olinadi.

Absorberning diametri quyidagi tenglikdan topiladi.

$$D = \sqrt{\frac{V}{v_{\text{capф}} 0,785}}$$

Bu erda V- ishchi sekunddag'i gazning xajmi, v- absorberdag'i gazning xisobiy tezligi.

Desorber – bu tarelkali yoki nasadka tipidagi kalonnali massa almashtiruvchi apparat bo‘lib, bunda glikolning regeneratsiyasi amalga oshiriladi. Kalonna diametri 600 mm gacha bo‘lgan desorber asosan nasadkalar bilan, 600 mm dan yuqori bo‘lganda 14-18 ta qalpoqli nasadkalar bilan ta’minlangan bo‘ladi. Kalonnaning o‘rta qismiga suyuqlik beriladi. Reboylar orqali esa kalonnaning quyi qismiga issiqlik beriladi. Oxirgi yillarda glikollarni o‘tli qizdirish sistemasi keng qo‘llanilmoqda. SHu bilan birga desorber qurilmalari qizdirish bloki bilan birga tuzatilib va nasadkalar bilan to‘ldiriladi. Desorberning yuqori qismidan to‘yintirib boriladi ya’ni eritmani regeneratsiya qilganda ajralib chiqadigan suv parlarining kondensati bilan. Parlar xavoli kondensatorlarda yoki trubkali suv sovutgichlarda sovutiladi. Desorberlarni grafik yoki analistik kremser metodi bilan xisoblanadi. Quritish qurilmalarining sxemalarida shamollatgichlar bo‘lib, ular issiqlik almashtirgichlar orqali absorberdan desorberga suyuqlikning normal oqishini ta’minlab, ular o‘z vaqtida gaz tiqinlar bo‘lishining oldini oladi. SHamollatgichlar birinchi va ikkinchi issiqlik almashtirgichlar orasiga o‘rnataladi.

### **Quritish jarayonlarining hisobi.**

Zichligi 0,6 bo‘lgan tabiiy gazning kuritish protsessining xisobini olib borish shart. Kuritilayotgan gazning sarfi  $1 \cdot 106 \text{ m}^3/\text{sut}$ . Kuritish bosimi 6mPa. Gazning temperaturasi 250 S. Talab kilinayotgan shudring nuktasi -150S. Absorbent – dietilenglikol.

Kerak bulayotgan namlikning mikdorini aniklaymiz. Absorberdan chikish va kirishdagi gazdagi nam saklanish (rasm 3.1)  $W_1=0,540 \text{ g/m}^3$ ;  $W_2=0,042 \text{ g/m}^3$ . SHunda  $W=Q_0(W_1 - W_2) = 1 \cdot 106 (0,540 - 0,042) = 498 \text{ kg/sutka}$  yoki  $20,75 \text{ kg/soat}$ .

SHudring nuqtasi – 150 S<sup>0</sup> bo‘lishi uchun quritishga konsentratsiyasi  $x_1=0,985$  bo‘lganda dietilenglikol eritmasini berish kerak. Kuritish xisoblarida asosan absorberdan chiqayotgan to‘yingan glikol konsentratsiyasi yoki quritishga sarf bo‘layotgan glikol beriladi. Bunda glikol sarfi 1 kg namlikka 25 l. Absorberdan chiqayotgan glikol sarfi  $x_2=0,96$ . SHunda DEG sarfi  $Q=Wx_2 / x_1 - x_2 = 20,75 \cdot 0,96 / 0,985 - 0,96 = 796,8 \text{ kg/ch}$

Absorberdag'i tarelkalar sonini aniqlaymiz. Buning uchun operativ liniyalar tuzamiz. Bu liniyalar koordinatalari  $u_1=0,000672$  mol N<sub>2</sub>O/mol gaz;  $u_2=0,000052$  mol N<sub>2</sub>O/mol gaz;  $x_2=0,0898$  mol N<sub>2</sub>O/mol DEG,  $x_1=0,2456$  mol N<sub>2</sub>O/mol DEG.


Muvozanat egri chizig'ini qurish uchun gazning shudring nuqtasini aniqlaymiz. 3.4 tabl.da hisob keltirilgan.

Jadval 3.4

| DEGni<br>konsentratsiyasi | SHudring nuqtasi <sup>0</sup> S | Namlik miqdori | X     | U        |
|---------------------------|---------------------------------|----------------|-------|----------|
| 0,95                      | -1                              | 0,12           | 0,310 | 0,000149 |
| 0,96                      | -25                             | 0,11           | 0,246 | 0,000156 |
| 0,97                      | -5                              | 0,09           | 0,182 | 0,000112 |
| 0,98                      | -10                             | 0,063          | 0,120 | 0,000078 |
| 0,99                      | -18                             | 0,033          | 0,033 | 0,000041 |

Olingen xisoblarga ko'ra, III.10 rasmida operativ va muvozanat liniyalari qurilgan, grafik usulda teoretik tarelkalar soni – 2,8 dona. Ishchi tarelkalar sonini aniqlash uchun k.p.d.  $\eta=0,2$ . SHunda ishchi tarelkalar soni  $N_{ishchi} = 2,8 / 0,2 = 14$  donani tashkil qiladi.

Absorberdag'i gazning ruxsat etilgan maksimal tezligini aniqlaymiz. Gidravlik qulfnинг balandligini 50mm va tarelkalar orasidagi oraliqni 400 mm deb olamiz. SHunda III.3 tabl.ga ko'ra  $K_v=0,104$  va glikolning suvli eritmasining zichligini  $\rho_s=1100\text{kg/m}^3$  deb qabul qilamiz.



Ish sharoitida gazning zichligi

$$\rho_p = 0,774 \cdot 61,2 \cdot 273 / 298 \cdot 0,94 \cdot 1,033 = 44,69 \text{ kg/m}^3$$

Bu erda 61,2 mPa – absorberdagি ishchi bosim. 0,94 – gazning siqilish koeffitsienti.

$$g_{\max} = 0,305 \cdot 0,104 \sqrt{\frac{1100 - 44,69}{44,69}} = 0,154 \text{ m/s}$$

$$0,154 \cdot 0,8 = 0,123 \text{ m/s}$$

$$\text{Ishchi gazning xajmi } 11,574 \cdot 0,774 / 44,69 = 0,200 \text{ m}^3/\text{s}$$

$$\text{Absorber qirqimining yuzasi } 0,200 : 0,123 = 1,630 \text{ m}^2$$

10 % umumiy kolonnaning qirqim yuzasini suyuqlikni oqib ketishiga mo‘ljallangan trubalar egallashini xisobga olsak, absorberning diametri

$$D = \sqrt{\frac{1,63 \cdot 1,1}{0,785}} = 0,154 \text{ m} \quad \text{5. Kuritish darjası quyidagicha aniqlanadi.}$$

$$\varphi = 1 - \frac{0,96(1 - 0,985)}{0,985(1 - 0,96)} = 0,6345$$

Kremser diagrammasiga ko‘ra desorbsiya S=0,635

To‘yingan DEG ning miqdori

$$L = 796,8 \left( \frac{0,96}{106} + \frac{0,04}{18} \right) = 9,02 \text{ кмоль / соам}$$

Parlatish kolonnasidagi o‘rtacha temperatura

$$t_{\text{ypm}} = 160 - \frac{540(1 - 0,96)0,6345}{2 \cdot 0,68} = 1500 \text{ C}$$

0,68 – solishtirma issiqlik sig‘imi.

$$P = 0,105 \text{ mPa va } t = 1500 \text{ s}, K = 2,8$$

Parlatish gazining miqdorini aniqlaymiz.

$$W_{P.G.} = 9,02 \cdot 0,635 / 2,8 = 2,04 \text{ kmol / soat}$$

$$\text{yoki } 2,04 \cdot 22,4 = 45,7 \text{ m}^3/\text{soat}$$

#### **4-amaliy mashg‘ulot. Tabiiy gaz uchun Joul-Tomson koeffitsientini aniqlash.**

**Ishdan maqsad:** Tabiiy gaz uchun Joul-Tomson koeffitsientini aniqlash.

#### **Izoentalpiya jarayoni**

Tabiiy gazni qazib olish va ekspluatatsiya qilishdan malumki, gazning yoki suyuqlikning oqimida bir qancha to‘siqlar bo‘lib, bunda yuzaning to‘satdan siqilishi sodir bo‘ladi, buning natijasida yuza oqimining qirqimi kattalashib, gazning bosimi kamayadi.

Siqilish natijasida gaz yoki suyuqlik oqimining bosim pasayishi drossellash deyiladi.

Drossellash jarayoni adiabatik xamda qaytmas bo‘lib, doimiy entalpiyaga ega  $i=\text{const}$  (izoentalpiya jarayoni).

Real gazni drossellashda tashqi kuchlarga nisbatan ishni tugatish natijasida molekulalar bilan birgalikda xajmiy energiyaning o‘zgarishida  $\Delta(PV) = p_1 V_1 - p_2 V_2$ , ichki energiya o‘zgaradi, shuningdek gaz oqimining xarorati xam.

$$\left(\frac{\partial T}{\partial p}\right)_i \left(\frac{\partial p}{\partial i}\right)_T \left(\frac{di}{\partial T}\right)_p = -1 \quad \text{aniqlaniladi} \quad \left(\frac{\partial T}{\partial p}\right)_i = \frac{T \left(\frac{\partial V}{\partial T}\right)_p - V}{c_p} \quad (\text{IV.8.})$$

$\left(\frac{\partial T}{\partial p}\right)$  o‘lchami adiabatik drossellash koeffitsienti yoki differensial drossellash effekti deyiladi; buni quyidagicha belgilanadi

$$\alpha_i = \left(\frac{\partial T}{\partial p}\right)_i \quad (\text{IV.9})$$

$\alpha_i$  – o‘lchamni ko‘pincha Djoul-Tomson koeffitsienti deyiladi.

Drossellash natijasida amalda drosselda bosimning tushishi kuzatiladi. Xaroratning o‘zgarishi integral drossel-effekti bilan aniqlaniladi.

$$\Delta T_i = (T_2 - T_1)_i = \int_{p_1}^{p_2} \alpha_i dp \quad (\text{VI.10})$$

Miqdoriy birikmalar  $\alpha_i$  va  $\Delta T_i$  moddaning xolati, kurinishi, bosimi, xarorati va ko‘pkomponentli bo‘lganda aralashmaning tarkibiga bog‘liq. Integral adiabatik drossel effektining o‘lchamlari  $i$ -T diagramma orqali aniqlaniladi. (VI.8 rasm). Drossel oldidan gazning xolati ma’lum bo‘lsa, u xolda uning bosimi  $p_1$  va xarorati  $T_1$ , drossellashdan keyingi bosim  $p_2$  unda  $p_1$  va  $T_1$  parametrlari bilan (1 nukta) o‘tkazib izoentalpiya

$i=\text{const}$  bilan izobara  $p_2=\text{const}$  kesishgan nuqtalarini topib, drossellashdan keyingi  $T_2$  xaroratni xosil qilamiz.

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, drossellashda gaz oqiminingsovushi bilan uning qizishi xam kuzatiladi. Buni (IV.8) tenglamadagi analizzdan xam ko'rish mumkin.  $c_p > 0$ , bo'lganda adiabatik drossellash koeffitsienti  $\alpha_i$  tenglananing o'ng qismida turuvchi belgi bilan aniqlaniladi. IV.8.rasm i-T diagramma

$$\left(\frac{\partial T}{\partial p}\right)_p < \frac{V}{T},$$


U xolda  $\alpha_i < 0$

Bunda adiabatik drossellash jarayonida gazning xarorati ortadi.


$$\left(\frac{\partial T}{\partial p}\right)_p < \frac{V}{T}.$$

u xolda  $\alpha_i < 0$

Bu ideal gazning drossellash shartlariga javob beradi va u o'zgarmas xaroratda drossellanadi. SHunday qilib, Djoul-Tomson effekti faqat real gazlar va suyuqliklar uchun mavjud. Tajribalardan ma'lumki, bir yoki shu gazning bir necha xil termodinamik sharoitlari uchun  $\alpha_i$  belgisi turli bo'lishi mumkin. Agar  $\alpha_i = 0$  bo'lsa gazning xolatida bu nuqta inversiya (nukta) si deyiladi va bu nuqtadagi belgi  $\alpha_i$  qarama-qarshisiga o'zgaradi.



Xisoblarni tezlashtirish uchun namogrammalar qurilgan bo‘lib, ular turli bosimlarda integral drossel effekti aniqlashga yordam beradi. 90-95% metandan tashkil topgan tabiiy gaz uchun xam qoniqarli moslik beruvchi IV.9 rasmdagi nomogrammadan ko‘rinib turibdiki drossel oldidagi xarorat va drossellashdan dastlabki bosimi past bo‘lgan sari drosseldan keyingi xarorat drosseldan yanada past bo‘ladi. IV.9 rasm. Metanning integral drossel-effektini aniqlovchi nomogramma




Keltirilgan  $P$  bosim va xarorat  $T$  ga bog‘liq bo‘lgan Djoul-Tomson koeffitsientining to‘liq funksiyasi.

Umumiy quvvati  $Q_x$  ni (IV.11) tenglamadan topamiz

$$Q_x = Q_r c_{pT} \alpha_i - \Delta p = Q_r c_{pT} (t_1 - t_2) \quad (\text{VI.11})$$

Bu erda  $Q_g$  – drosseldan gazning sarfi;  $-$  gazning issiqlik sig‘imi ;  $\alpha_i$  - Djoul-



Tomson koeffitsienti;  $\Delta p$  - drosselda bosimning tushishi;  $t_1$ ,  $t_2$  - drosseldan oldingi va keyingi gazning xarorati.

Tabiiy gazlar uchun Djoul-Tomson koeffitsienti quyidagicha . (VI.12)

Drossel effektni xisoblash usuli yoki nogmogramma bilan aniqlash bir qancha xatoliklar berishi mumkin, ayniqsa gazokondensatli konlardagi gazlar uchun  $\alpha$  qiymatini aniqlashda. Bunday xollarda eksperimental ma'lumotlar ancha ishonchlidir.

Izoentropiya jarayoni

Izoentropiya jarayoniga taqqoslanganda (gaz okimi xaroratining pasayishi) gaz kengayishi izoentropiya jarayoni ancha effektiv. Bunda gaz oqimi o'zining kengayishi bilan porshenli yoki turbinli turdag'i detanderlarda sirtqi ish bajaradi.

Termodinamikaning umumiy asoslariga ko'ra izoentropiya kengayishidagi xarorat o'zgarishining differensial effektini topishimiz mumkin.

$$\alpha_s = \left( \frac{\partial T}{\partial p} \right)_s = - \frac{\left( \frac{\partial S}{\partial p} \right)_T}{\left( \frac{\partial S}{\partial T} \right)_p} \quad (\text{VI.13})$$

$\left[ \frac{(\alpha)_s}{c_p} \partial T \right]_p = \frac{c_p}{T}$  va Maksvell mosligini xisobga olganda  $\left( \frac{\partial S}{\partial p} \right)_T = - \left( \frac{\partial S}{\partial T} \right)_p$ , quyidagini xosil qilamiz.

$$\alpha_s = \frac{1}{c_p} T \left( \frac{\partial V}{\partial p} \right)_p \quad (\text{VI.14})$$

Ideal gaz uchun  $s_p = c_{p0}$  va  $\left( \frac{\partial S}{\partial T} \right)_p = R/p$ , shuning uchun (VI.15)

$$(\text{VI.8}) \text{ va } (\text{VI.14}) \text{ tenglamalarni taqqoslab, quyidagini xosil qilamiz. } \alpha_s = \alpha_i + \frac{V}{c_p},$$

(VI.16)

Gazning izoentropiya kengayishidagi xarorat o'zgarishining differensial effekti gazning izoentalpiya kengayishidagi o'xshash koeffitsientidan doimo ortiq. SHunday qilib, gazning sanoat sharoitida izoentropiya kengayishining qo'llanilishi tabiiy gazning qatlam energiyasini unumli ishlatishga imkon beradi.

Gazning adiabaitik izoentropiya kengayishida gaz xaroratining o'zgarishini quyidagi nisbatdan aniqlaniladi.

$$T_2 = T_1 (p_{12}/p_{11})^{1/(k-1)} \quad (\text{VI.17})$$

Bu erda  $T_1$  va  $T_2$ ,  $p_1$  va  $p_2$  – kengayishidan oldingi va keyingi xarorat va bosim, K, Pa;  $k$  – adiabatik ko‘rsatkichi  $k=c_p/c_v$

Adiabatik kengayishidan keyingi gazning bajargan ishi, ichki energiyaning o‘zgarishiga teng.

$\Delta U = \Delta U$  gazning ichki energiyasi bilan xarorat o‘zgarishida quyidagi bog‘liqliq mavjud.

$$\Delta U = l = c_p(T_2 - T_1) \quad (\text{VI.18})$$

Detanderning sovuqlik ishlab chiqarish quvvati gaz kengayishining ishiga teng.

Bu kattalikni quyidagi tenglama orqali xisoblanadi.

$$g = l = \frac{Rk}{(k-1)(T_2 - T_1)} \quad (\text{VI.19})$$

Bu erda R – universal gaz doimiysi (VI.19) tenglamaga (VI.18) formuladagi  $T_2$  tenglikni qo‘yib, quyidagini xosil qilamiz:

$$g = l = \frac{Rk}{k-1} T_1 \left[ 1 - \left( \frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right] \quad (\text{VI.20})$$

Tenglamadan ko‘rinib turibdiki, detanderning sovutish samaradorligi adiabata ko‘rsatkichiga, boshlang‘ich xarorat  $T_1$  va gazning kengayish darajasi  $p_1/p_2$  ga bog‘liq.

Tabiiy gazni kengayishida ishlatiladigan zamonaviy turbodetanderlar bir pog‘onali mashinalardandir, shuning uchun gazning kengayishi keng chegarada tebranib turishi mumkin emas. Markazdan qochma mashinalar uchun siqish darajasi (kengayishning qaytar darajasi) 1,17-1,21 dan iborat.

Adiabatik izoentropiya kengayishidagi xaroratning o‘zgarishini T-S diagrammadan foydalanib topish mumkin.


Past xaroratlarda detanderda gazning xaqiqatda kengayish jarayoni atrof muxitdan issiqlik(sovuklik) olib kelinishi bilan amalga oshiriladi (IV.13 rasmdagi) fazoviy diagrammada 1-3 politropa bilan ifodalanadi.

Berilgan siklning xisobiy formulalari adiabatik kengayishga analogikdir. Ammo bu erda adiabatik ko‘rsatkichi o‘rniga politropa n ko‘rsatkichi qo‘llaniladi bunda  $n < k$

Masala. 10 MPa bosimda va  $20^{\circ}\text{S}$  xaroratda bo‘lgan tarkibi 94,5-SH<sub>4</sub>, 2,6%-C<sub>2</sub>H<sub>6</sub>, 1,3%- C<sub>3</sub>H<sub>8</sub>, 0,5 %-C<sub>4</sub>H<sub>10</sub>, 1,1 %- N<sub>2</sub> bo‘lgan tabiiy gaz uchun Joul-Tomson koeffitsientini aniqlash.

1. Aralashma xarorati va kritik bosimini aniqlaymiz.

$$P_{kr} = 0,945 * 4,49 + 0,026 * 4,72 + 0,013 * 4,12 + 0,005 * 3,67 + 0,011 * 3,28 = 4,473 \text{ MPa}$$



VI.12rasm. Keltirilgan bosim va xarorat asosida tabiiy gazning izobara issiqliq sig‘imiga o‘zgartirishlar.

$$T_{kr} = 0,945 * 191,1 + 0,026 * 305,5 + 0,013 * 370,0 + \\ + 0,005 * 425,2 + 0,011 * 126,2 = 196,95 \text{ K.}$$

2. Keltirilgan bosim va xaroratni aniqlaymiz

3. Ideal xolatda gazning issiqlik sig‘imini VI.11 rasmdan foydalanib aniqlaymiz:

$$S_{0r} = 0,945 * 36,03 + 0,026 * 55,73 + 0,013 * 76,65 + \\ + 0,005 * 100,98 + 0,011 * 28,07 = 37,31 \text{ kDj/(kg*mol}^{\circ}\text{S})$$

4. VI.12 rasmdan foydalanib izobara issiqlik sig‘imigao‘zgartirishlarni aniqlaymiz.

5. VI.10 rasmdan foydalanib umumiylashtirilgan funksiyani  $f(D_i) = 1.05$  topamiz

6. Djoul Tomson koeffitsientini aniqlaymiz

$$\alpha_i = \frac{\frac{196,95}{4,473} * 1,05 * 4,187}{37,31 + 15,08} = 3,69^{\circ}\text{C/MPa} \quad (4,187 - Djouldan koloriyaga o‘tkazilgan bosim koeffitsienti.)$$

## V. GLOSSARY

|  |   |
|--|---|
| Asosiy organik (neft-kimyo) sintez degan iborani ma'nosи | - bu kup tonnali maxsulot ishlab chikarish bulib, ular boshka organik texnologiyalar uchu asos xisoblanadi.   |
| Parafinlar   | -Organik sintez uchun texnik jixatdan muxim bulgan tuingan uglevodorodlar   |
| Kuyi parafinlar  | -Parafin uglevodorolari: metandan ( $SN_4$ ) to butangacha bulgani ( $S_4N_{10}$ ) oddiy sharoitda gazsimon moddalar, pentanlar $S_5N_{12}$ past temperaturada kaynaydigan suyukliklar.   |
| YUkori parafinlar  | Parafin uglevodorodlarining $S_{16}$ gacha bulgan vakillari xona sharoitida suyuklik, $S_{16}$ dan yuqorilari esa kattik moddalar xisoblanadi. Ularni suyuklanishi temperaturasi uglerod zanjiri kupayishi bilan ortib boradi, n-parafinlarni suyuklanish temperaturasi tarmoklangan izomerlarga nisbatan yukori buladi.  |
| Piroлиз  | - grekcha suzdan olingan bulib, rur-olov va lysis- parchalanish degan ma'noni bildiradi, ya'ni kimyoviy birikmalarni kizdirish natijasida parchalanish jarayoni   |
| Kreking  | - yukori temperaturada kaynaydigan neft fraksiyasining katta molekulalari kichik molekulalarga ajraladi, natijada benzin va alkenlar xosil buladi. Kreking 3 turga bulinadi: gidrokreking, katalitik kreking va termik kreking.   |
| Gidrokreking   | -Bu jarayonda krekinglanayotgan fraksiya juda yukori bosim va vodorod ishtirokida kizdiriladi. Buning natijasida yirik molekulalar parchalanadi, vodorod birikishi sodir buladi va kichik ulchamdagи tuingan molekulalar xosil buladi. Gazoyл va ogir fraksiyalardan benzin olish uchun gidrokreking jarayoni kullaniladi |
| Termik kreking   | YUmshok yoki kattik parafinlarni termik krekingi sanoatda n- $S_5-S_{20}$ uglevodorodli olefinlar olish uchun kullaniladi. Texnologiyasi buyicha bu ishlab chikarish neft maxsulotlari pirolizi va termik krekinga uxshaydi   |
| Katalizator  | -reaksiya jarayonini tezlashtiruvchi  |

|                                     |  |  |
|-------------------------------------|--|--|
|                                     |  | moddalarga aytildi.  |
| Katalitik reaksiya                  |  | - katalizator ishtirokida boruvchi reaksiyalarga aytildi   |
| Katalizatorni faolligi              |  | - uni katalizatordagi aktiv komponentlarning miqdoriga bog‘liqligi ko‘rsatadi, shu bilan birga texnologik parametrlarga (temperatura, bosim, xajmiy tezlik va boshqalar) bog‘liq.                                    |
| Hajmiy tezlik                       |  | - reaktorga yuklangan katalizator miqdorini, shu katalizator yuzasidan o‘tayotgan xom ashyo miqdorini nisbatiga aytildi (soat <sup>-1</sup> ).   |
| Piroliz jarayonini «bosh» fraksiisi |  | -tarkibi S <sub>5</sub> dan iborat parafin va olefinlardan iborat fraksiya   |
| Piroliz «engil» fraksiyasi          |  | - pirolizni moy fraksiyasi (75-180 <sup>0</sup> S), uning tarkibi monotsiklik aromatik uglevodordlar bilan olefin va parafinlar aralashmasidan iborat bulgan fraksiya  |
| Piroliz «kurtacha» fraksiyasi       |  | -Pirolizni moy fraksiyasi (180-300 <sup>0</sup> S);  |
| Riforming                           |  | xaydalgan benzinni oktan sonini oshirish va aromatik uglevodorodlar olish uchun kullaniladigan jarayon   |
| Atsetilen generatorlari             |  | -kalsiy karbidni suv ta’sirida parchalanishi sodir buladigan apparatlarni atsetilen genratorlari deyiladi. Issiklikni chikarish buyicha generatorlar 2 turga bulinadi  |
| «Xul» turdagи generatorlar          |  | -bu generatorlardagi reaksiya issikligi ortikcha suv yordamida sovitiladi. Generatorlarda 1kg SaS <sub>2</sub> ga 10kg suv sarflanadi, bunda kalsiy gidroksid suvda suspenziya xosil kiladi, uni tiklash mumkin emas |
| «Kuruk» turdagи generatorlar        |  | -Ulardagi issiklik ortikcha olingan suvning buglanishi natijasida reaksiya muxitidan chikariladi. Bu usulda Sa(ON) <sub>2</sub> kuruk xolda xosil buladi, uni kuriish materiallari tayyorlashda kullash osonlashadi. |
| Galogenlash                         |  | -Organik birikmalarga galogen atomlarini kiritish jarayonlarini. Galogenlash reaksiyalariga: ftorlash, xlorlash, bromlash va yodlash kiradi  |
| Galogenlovchi agentlar              |  | -bu erkin galogenlar va suvsiz galogenvodorodlardir. Atmosfera bosimi ostida ularning kaynash temperaturasi kuyidagicha, <sup>0</sup> S:<br>F <sub>2</sub> -188,0; HF +19,4<br>Cl <sub>2</sub> -34,6; HCl -83,7      |

|  |   |
|--|---|
|  | $\text{Br}_2 +58,8; \quad \text{HBr} -67,0$   |
| Katalizatorni regeniratsiyalash                    | - katalizatorning faolligi kamaya borgandan keyin uni qayta aktivlash turli usullar bilan (yondirish, vodorod bilan qaytarish, yuvish, turli xil komponentlar qo'shish va boshqalar regeneratsiyalash deyiladi.                       |
| Katalizator faolligi -                             | katalizatordagi aktiv komponentlar miqdori, texnologik parametrlari va katalizatorning fizik xususiyatlariga bog'liq kattalik.  |
| G'ovaklik -  | katalizatordagi kichik, o'rta va yirik yoriqlarga aytildi, u katalizatorning adsorbsion hususiyatini belgilab   |
| Ion katalitik galogenlash                          | Bu jarayonlarga kushbog va uch boglarga galogenlarni birikish, olefinlarni xlorgidrirlash, gidroxlorlash, aromatik xalkada urin almashinish va ba'zi bir kislorod va azotli birikmalarni xlorlash kiradi.                             |
| Erkin galogenlar yordamida galogenlash             | -Galogenlarni S=S boglarga birikishi.   |
| Gidroliz jarayoni                                  | -Suv yoki ishkorlar ta'sirida urin olish yoki ikkilamchi almashinish jarayonlariga gidroliz reaksiyalari deyiladi. Kupincha, xlorli xosilalar gidroliz va ishkorli degidroxlorlash reaksiyalarda oralik maxsulot sifatida kullaniladi |
| $\alpha$ -oksidlar olish                           | -Xlorgidrinlarni ishkor bilan degidroxlorlash orkali $\alpha$ -oksidlar sintez kilish jarayoni. Bunga propilenoksid, etixlorgidrin, bis (xlormetil) oksatsiklobutan misol bulla oladi.  |
| Alkillash  | -Organik va ba'zi bir noorganik moddalar molekulalariga alkil guruxlarni kiritish jarayonlari. Alkillash jarayonlari kupincha oralik boskich bulib, ular asosida monomerlar va yuvish vositalari olinadi.                             |
| Uglerod atomi buyicha alkillash                    | -Bu reaksiyada uglerod atomida joylashgan vodorod atomini alkil guruxga almashinishi sodir buladi. Bunday almashinishga parafin va aromatik birikmalar kodir.   |
| Azot atomi buyicha alkillash                       | -Bu reaksiya ammiak yoki aminlardagi vodorodni alkil guruxga almashinish orkali sodir buladi:<br>$\text{ROH} + \text{NH}_3 \rightarrow \text{RNH}_2 + \text{H}_2\text{O}$   |
| Kislorod va oltingugurt atomlari buyicha alkillash | -Bu reaksiyalarda alkil guruxi kislorod yoki oltingugurt atomi bilan boglanadi  |

|                      |   |
|----------------------|---|
| Vinillash            | -turli birikmalar tarkibiga vinil guruxini kiritishni   |
| Sulfatlash           | -Sulfat kislota-alkilsulfatlarga $\text{ROSO}_2\text{OH}$ asosida murakkab efirlar xosil kilish reaksiyalariga  |
| Nitrolash reaksiyasi | -Organik birikmalar tarkibidagi vodorod atomi urniga $\text{NO}_2$ guruxi almashinish jarayoni Nitrolash vositalari sifatida nitrat kislota, nitrat va sulfat kislota aralashmasi (melanj), nitrat va sirka kislota aralashmasi, azot oksidlaridan foydalaniladi. |
| Kerosin              | fraksiyasida → bi va trisiklik uglevodorodlar bor.<br>Neftni haydashda $350^{\circ}\text{C}$ dan yuqorida chiquvchi fraksiya tarkibi kam o'rganilgan. Bunda molekulyar og'irligi 300-1000 bolgan moddalar haydaladi.  |
| Termik kreking       | kimyoviy jarayon bo'lib, yuqori temperatura va bosim ta'sirida, ma'lum τ ichida boradi. Bunda uglevodorodlar bir vaqt ni o'zida, parchalanish, boshqa guruhga o'tish, zichlanish kabi reaksiyalar burishi mumkin.   |
| Piroliz              | asosan – gaz holatdagi to'yinmagan uglevodorodlar, metilen, etilenni olishda ishlatiladi.   |
| Etilen               | sintetik kauchuk, etil spiriti va boshqa organik moddalar olishda ishlatiladi.  |
| Alkanlar             | Alkanlar uchun C—C bog'ni uzilishi bilan qoldiqlarni toyintirishi va gidroizomerlashi harakterlidir:  |
| Gazokondensat        | tarkibida ko'p miqdorda metan, hamda neftni benzin, kerosin, ayrim holatlarda dizel fraksiyasiga kiruvchi yuqori molekulali uglevodorodlar bo'лади.   |
| Absorbsiya           | gaz aralashmasidagi propilendan pentangacha bo'lgan fraksiyalarni ajratib olish uchun ishlatiladi. Ajralayotgan qismda etan va etilen ham uchrashi mumkin.  |
| Oktan soni deb       | detonasiyaga nisbatan chidamlilik ko'rsatkichiga aytildi.   |
| Tabiiy gaz           | bu nefti bo'lman toza uglevodorod gazi.   |
| Detonasiya           | bu vaqtda yoqilg'ini yonishi natijasida alanga tezligi 2000-2500 mG's (35m/s o'rniga) tashkil etadi. Dvigatelda shovqin (stuk) va chala yongan gazlar ajralib chiqadi.  |

|                     |   |
|---------------------|---|
| Etalon yoqilg‘ilari | kam detonasiyaga uchraydigan izooktan (2,2,4-trimetilpentan), oktan soni 100 ga teng, ham ko‘p detonasiyaga uchraydigan oktan soni 0 bo‘lgan geptandir.   |
| Antidetonator       | metilsiklopetadientrikarbonil marganes $(CO)_3 MnC_5N_4CN_3$ (MSTM): 1 kg ga 0,05 – 0,25 gramgacha qo‘shiladi   |
| Neft                | suyuq yoqilg‘i, moylash yog‘lari va boshqa mahsulotlar olishning yagona manbaidir. Neft va tabiiy gazni qazib olish va ularni qayta ishslash tehnologiyalarini takomillashishi, o‘sishi halq hojaligi uchun zarur bolgan suniy tola, og‘itlar, polimer moddalar, kauchuk va boshqa mahsulotlar bilan to‘liq ta’minlashga olib bormoqda. |

## **VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

### **I.Maxsus adabiyotlar**

1. М. А. Танатаров и др. Технологические расчёт установок переработки нефти. Учебное пособие для вузов. –М, Химия, 2000.-352с.
2. А.Г.Сарданашвили, А.И.Лвова. Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа. Учебноэ пособиэ .-М., Химия, 2004.-256с
3. А.И.Скобло и др. Процессы и аппараты нефтегазопереработки и нефтехимии. Учебник для вузов.-М.: ООО “Недра – Бизнесцентр”. 2000.-677с
4. Speight, J.G. (2000). The Desulfurization of Heavy Oils and Residua. 2nd edn. Marcel Dekker, New York
5. Speight, J.G. and Ozum, B. (2002). Petroleum Refining Processes. Marcel Dekker, New York
6. С.М. Turobjonov. B.A. Abidov. Moylar va maxsus Suyuqliklar texnologiyasi. Darslik Toshkent 2010.

### **II. Internet saytlar**

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy

bazasi

3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi